ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

5^{1}-son

(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
N. Jo'rayeva	4	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida
J.B. Eshkuvatov	10	Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik kreativlik tushunchalari mazmuni va ularning amaliy ahamiyati
X. Rajabova	17	O'qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish aspektlari
I. Temirova	22	Jahon tajribasida ta'limda kollaborativ yondashuvdan foydalanish samaradorligiga oid nazariy qarashlar
M.S. Otajonova	28	Psixologik-pedagogik adabiyotlarda altruizmning mohiyati va mazmunini nazariy tahlil qilish
R. Madiyarova	32	O'quvchilarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishda badiiy san'atining ahamiyati
N. Abdullayeva	35	Pedagogik mas'uliyat orqali talabalarda kasbiy jozibadorlik sifatlarini tarkib toptirish
M. Voxobova	38	Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik metodlar bilan ishlash ko'nikmasi
A. Abdusalomov	42	Bo'lajak pedagoglarni kasbiy qobiliyatini rivojlantirish – pedagogik faoliyatsamaradorligining asosiy omili
D. Zikirova	46	Raqamli ta'lim muhitida bolajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
D. Miraxmedova	50	Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikasiya qobiliyatlarini rivojlantirishning improvizatsiya metodlari
S. Saparbaeva	53	Boshlang'ish sinf o'quvchilarining ingliz tilini tezkor o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish
M. Mirzayeva	55	Botanika fanlarini o'qitishda yangi o'quv dasturlarning o'rni va uning dolzarbligi
M. Keldiyorova	57	Ona tili ta'limiga doir adaptiv ko'nikmalarni shakllantirish
G.Abdukarimova	59	Ot va uning leksik-semantik, grammatik xususiyatlari
I. Ro'ziboyeva	61	Muhandislik grafikasi fanlaridan yangi avlod o'quv-uslubiy majmualarini takomillashtirish
X. Beknazarova	63	O'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari
N. Lutfiyev	67	Ko'p darajali ingliz tili o'qib tushunish testining ishonchlilik va validlik xususiyatlari
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
A. Abduqaxxorov	72	Talabaning pedagoglik qobiliyatini rivojlantirishda mustaqil ta' limning o'rni va ahamiyati
R. Jumatayev	74	Talabani kreativ fikrlashga o'rgatish metodi
D. Avezova	77	O'quvchilarning esse yozish malakasini shakllantirishning lingvometodik asoslari
M.E. Inoyatova	81	Adabiyot ta'limi samaradorligini oshirishda zamonaviy IT vosi-talarini qo'llash istiqbollari

 **MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**		
O. Ergasheva	84	O'quvchi-qizlarning ijtimoiylashuvida sharqona tarbiyaning o'rni
L. Shabdullayeva	89	Imom al-Buxoriy asarlarining pedagogik ahamiyati
 **TA'LIMDA IQTISODIYOT VA MOLIYALASHTIRISH**		
Z. Xudoyberdiyeva	92	Bank tizimida jamoatchilik bilan aloqalar va kommunikatsion siyosatini yo'lga qo'yishda samarali loyiha tuzish va uni amalga oshirish (Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Valyuta jamg'armasi tajribalari misolida)
D. Zikriyayeva	98	Banklarda valyuta operatsiyalari auditini takomillashtirish
 **MAKTABGACHA TA'LIM**		
I. Toshpo'latova	101	Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ komepetensiyasini rivojlantirishda faollik markazlarining o'rni
D. Qarshibaeva	105	Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etish mazmuni
 **MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH**		
A. Abdurashidov	109	Innovatsion yondoshuv asosida maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlarini malakasini oshirishning nazariy-metodologik asoslari
 **KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH**		
P. Xolmatov, M. Choriyeva	113	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni samarali tashkil etish va takomillashtirish
 **JISMONIY TARBIYA VA SPORT**		
M. Toshpo'latova	118	Bo'lajak chempionni musobaqaga psixologik tayyorlash tizimini takomillashtirish
J. Abdurahmonov, R. Normurodova, F. Homidjonova	121	Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasining umumiy asoslari
 **ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ**		
Г. Умарова	124	Лексико – семантическая группа глаголов поведения в русском, английском и узбекском языках
 **КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ: ЦЕЛЬ И СОДЕРЖАНИЕ**		
С. Ахтамбаев	130	Современные педагогические и информационные технологии фундаментальная основа повышения качества обучения студентов
 **СРАВНИТЕЛЬНАЯ ПЕДАГОГИКА**		
А. Мирзаназарова	133	Анализ зарубежных исследований по формирование навыка семейного чтения посредством взаимодействия семьи- образовательного учреждения
 **THEORY OF EDUCATION AND UPBRINGING**		
G. Jo'rayeva	140	Methods of self-assessment and self-reflection in the formation of professional erudition

Nargiza JO'RAYEVA,
''Alfraganus university" nodavlat oily ta'lim muassasasi, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti v.b, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI INTEGRATIV O'QITISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va ijtimoiy-pedagogik muammolari tahlili va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tavsiyaviy xarakterda ochib berilgan.

Tayanch so'zlar. Integratsiya, integrativ yondashuv, kasbiy kompetentlik, zamonaviy texnologiyalar, metod, tadqiqot, kompetentlik, yondashuv.

В данной статье представлен анализ социально-педагогических проблем и социальной значимости развития методической подготовки будущих учителей к интегративному обучению, а также рекомендательный характер форм, методов и средств совершенствования методической подготовки будущих учителей начальных классов к интегративному обучению.

Ключевые слова. Интеграция, интегративный подход, профессиональная компетентность, современные технологии, метод, исследование, компетентность, подход.

This article presents an analysis of the social significance and socio-pedagogical problems of developing the methodological training of future teachers for integrative learning, as well as the forms, methods, and means of improving the methodological training of future elementary school teachers for integrative learning.

Key words. Integration, integrative approach, professional competence, modern technologies, method, research, competence, approach.

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlarning muammolari pedagog kadrlar salohiyati bilan bog'liq. O'rganish va tahlillar zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi tezkor rivojlanayotgan ta'lim jarayonlarining talablaridan orqada qolayotganini ko'rsatmoqda. Bu holat pedagogik ta'limni rivojlantirish va uzluksiz ta'lim jarayonida pedagoglarni tayyorlashni yaxshilash bilan bog'liq muammolarning dolzarbligini ko'rsatadi. Ushbu muammolarning jiddiyligi shubhasizdir . Muntazam o'tkazilayotgan monitoring jarayonlarida ta'lim tizimining tezkor yangilanishi natijasida yuz berayotgan o'zgarishlarga javob berish va ulardan o'zib ketishga yetarli tayyor bo'lmagan pedagog kadrlar mavjudligi, ta'limga, shaxsga va o'qituvchilar faoliyatiga bo'lgan zamonaviy ijtimoiy talablar va bu talablarga yetarli darajada javob bermaydigan pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining holati aks etmoqda. Bu muammolar esa bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompitentligini rivojlantirish, o'qitishning zamonaviy yo'llarini ishlab chiqish, bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashda integrativ yondashuvni takomillashtirish, o'qitishda fanlararo integratsiyani rivojlantirish kabi masalalar ustida jiddiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “integratsiya”- ayrim qismlarning, elementlarning bog‘liqlik holatini, ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalavochi tushuncha, fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni deb ta’riflanadi. Integratsiya-o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq ekani ta’kidlanadi. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda integrativ yondashuv esa talabalarning mutaxassislikka oid bilim, ko‘nikma, amaliy ish-harakat usullari va shaxsiy sifat hamda fazilatlarining yaxlitligini ta’minlash xohish-istaklari, ehtiyojlari hamda ularga ta’lim-tarbiya berish maqsad va vazifalariga mos, qulay ta’lim muhitini tashkil etishga qaratilgan yaratuvchanlik va izlanishli tadqiqotchilik faoliyatidir. Integrativ yondashuv mazmunan o‘xshash, aloqador, mantiqiy bir-birini to‘ldiruvchi, bir-biriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o‘quv fanlarini integratsiyalash uchun qo‘llanilib, yaxlit mantiqiy, mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni shakllantirishdan iborat.

Integrativ ta’lim — bu fanlar orasidagi chegaralarni yo‘qotish va talabalarni to‘liq bilimga ega bo‘lishlari uchun turli sohalarni birlashtirishga qaratilgan pedagogik yondashuv. Bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borgan olimlar integrativ ta’limning nazariy va amaliy aspektlarini ko‘rib chiqqanlar.

N.K.Chapayev integratsiyaning quyidagi ular ostida maqsadli vazifalari yotadigan yo‘nalishlarini ajratadi:

– bilish predmetini kengaytirish va chuqurlashtirish;

– ko‘p predmetlilikni bartaraf qilish;

– mavzu (bo‘lim, butun kurs) ni o‘rganish vaqtini qisqartirish;

– takrorlanishlarni bartaraf qilish;

– ta’lim texnologiyasini o‘zgartirish;

– bilish predmetini tor aspektda ajratishni bartaraf qilish;

– ta’lim oluvchi shaxsining rivojlanishi uchun nisbatan maqbul sharoit yaratish;

– rollar, o‘yinlar, pedagogik jarayonda u yoki bu insonlarning yoki komponentlarning mavjudligi pedagogik o‘lchamlarini “tinch yo‘l bilan” qayta taqsimlash;

– ta’lim oluvchilar va pedagoglarning rivojlanishini tezlashtirishni rag‘batlantirish.

Integratsiya yo‘nalishlari bilish va pedagogik jarayonni tashkil qilishda ta’lim oluvchilar va pedagoglarda yuzaga keladigan real ehtiyojlarni aks ettiradi. Bu ehtiyojlar, o‘z navbatida, pedagogik jarayon qatnashchilari tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish va berish davomida aniqlangan qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi. Pedagogik integratsiya yo‘nalishlarining ancha to‘liq tasnifi N.K. Chapayev tomonidan taklif qilingan. Integratsiyaning tanlangan yo‘nalishlari integrativ jarayon tarkibi va strukturasini belgilaydi. Integrativ jarayon tarkibi deganda o‘zaro aloqadorlikka kirishadigan va yangi yaxlit birlikni hosil qiladigan ob’yektlar yig‘indisi tushuniladi.

V.V. Davidovning fikricha, rivojlantiruvchi ta’limning asosiy maqsadi bolaning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Pedagogik jarayonda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi shunga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerakki, bu bolalarning mustaqil ravishda muammolarni hal qilish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam bersin. Ko‘plab olimlarning tadqiqotlarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik ko‘nikmalarni shakllantirishda mantiqiy ta’lim elementlarini birlashtirish kerakligi ta’kidlanadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimi uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorgarligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ko‘rilmoqda. Ushbu muammo quyidagi jihatlar bilan bog‘liq:

1. O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish: bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarga bilim berish jarayonida nafaqat o‘z fanlarini yaxshi bilishlari, balki o‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llashda ham yuqori darajada tayyor bo‘lishlari kerak. Bu esa ularning pedagogik va metodik ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab qiladi.

2. Ijtimoiy rol va mas’uliyat: boshlang‘ich ta’lim tizimi o‘quvchilarning ta’lim olishdagi dastlabki qadamlari bo‘lib, bu jarayonda o‘qituvchilarning roli juda katta. Ularning mahorati bolalarning ijtimoiylashuvi, jamoaga qo‘shilishi va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

3. Ta’lim sifatini oshirish: Integrativ o‘qitish metodikasini ta’lim jarayonida qo‘llash o‘qituvchilarning ta’lim jarayonini samarali tashkil etishiga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yaxshilashga olib keladi. Ta’lim sifatining oshishi esa jamiyatning umuman ta’lim darajasini ko‘taradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda metodik yondashuvlarni takomillashtirish ta’lim sifatini oshirish uchun zarurdir. Bu kelajakda yanada malakali o‘qituvchilar tayyorlash orqali jamiyatda ta’limning umumiy darajasini ko‘taradi.

4. Pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash: pedagogik innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga kiritish, shu jumladan AKT, loyiha asosida o‘qitish va ko‘p fanli yondashuvlar o‘qituvchilarni zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda tayyorlashga yordam beradi.

5. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik: bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini ta’minlashda ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Bu esa jamiyat, ota-onalar va ta’lim muassasalari o‘rtasida samarali hamkorlik orqali amalga oshiriladi. Bu muammolarni hal qilish uchun ijtimoiy-pedagogik yondashuvlarni tizimli ravishda takomillashtirish kerak bo‘ladi, bu esa bolalarning ta’lim olishida muhim rol o‘ynaydi va ularning ijtimoiy taraqqiyotiga yordam beradi.

Har qanday muammo yechimi integratsiyalashgan bilimni talab etadi. Axborot-ta’lim muhiti chuqurlashgan bilimlar integratsiyasini, nafaqat tadqiq qilinayotgan muammo yuzasidan fan bilimlari sohasini, balki hamkorning milliy-madaniy xususiyatlarini, uning dunyoni bilishi va tushunishini, qarashlarini bilishni ham taqozo qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ yondashuv asosida o‘qitishga tayyorlashning afzalliklari turli tadqiqotlarda ta’kidlangan. Integrativ yondashuv o‘qituvchilarga fanlararo bilimlarni birlashtirib, talabalarni amaliy va hayotiy kontekstlarda o‘rgatishga yordam beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va kognitiv ko‘nikmalarini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha integratsiyalashgan o‘quv dasturlari samarali o‘quv muhitini yaratib, o‘quvchilarni fanlararo faoliyatlarga jalb qiladi. Bu yondashuv kelajakdagi o‘qituvchilarning mavzularo aloqalarni tushunishiga va integrativ metodlarni amaliyotda qo‘llashga tayyorlashda yordam beradi. Integrativ ta’lim metodlarini qo‘llash, shuningdek, talabalarni ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan loyihalarda ishtirok etishga jalb qiladi, bu esa ularga real hayotdagi muammolarni ko‘rib chiqish va hal qilishda yordam beradi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, integrativ yondashuv yordamida STEM (Fan, Texnologiya, Muhandislik va Matematika) sohalarida talabalarning ko‘nikmalari yaxshilanadi. Inquiry-based (so‘rov asosidagi) va project-based (loyiha asosidagi) o‘qitish usullari ushbu integratsiyaga asoslangan ta’limda keng qo‘llaniladi. Bu usullar orqali o‘quvchilar ko‘proq real hayotiy muammolarni hal qilishni o‘rganadilar va o‘z ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Shu bilan birga, ushbu yondashuv o‘quvchilarga muammolarni hal qilish va qarorlar

qabul qilishda ko‘proq imkoniyatlar beradi, bu esa ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ta’lim tizimida integrativ yondashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun loyiha asosidagi o‘qitish, kooperativ ta’lim va o‘quvchilarni faollashtirish texnikalari keng qo‘llaniladi. Bu texnikalar o‘qituvchilarni tayyorlashda ham alohida ahamiyat kasb etadi, ya’ni:

1. Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning): bu metodda o‘quvchilar real hayotga oid muammolarni hal qilish bo‘yicha loyiha ustida ishlaydi. Loyiha davomida o‘quvchilar turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtiradi, bu esa integratsiyani ta’minlaydi. O‘quvchilar mustaqil izlanish olib boradi, muammolarni hal qiladi va o‘z ishlari natijalarini namoyish etadi.

2. Muammo asosida o‘qitish (Problem-Based Learning): bu metod muammolarni hal qilishga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilar birgalikda ishlaydi va muammolarni hal qilish jarayonida turli fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini birlashtiradi.

3. O‘yin asosida o‘qitish (Game-Based Learning): o‘yin metodlari o‘quv jarayonini qiziqarli va motivatsion qiladi. Turli fanlarni o‘yinlar orqali integratsiya qilish o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishga va ularning faol ishtirokini ta’minlashga yordam beradi. Bu metod ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun samarali hisoblanadi.

4. Interaktiv dars metodlari: bu metodlarda o‘quvchilar faol ishtirok etadi va o‘qituvchi bilan muloqotda bo‘ladi. Munozaralar, guruhda ishlash, rol o‘ynash kabi usullar interaktiv darslarda qo‘llanadi va turli fanlarni birlashtirish imkoniyatini beradi.

5. Texnologiyalardan foydalanish: zamonaviy texnologiyalar, xususan, interaktiv taqdimotlar, ta’limiy dasturlar va ilovalar, elektron kitoblar va boshqa raqamli vositalar integrativ o‘qitishda muhim rol o‘ynaydi. Texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni faollashtiradi, turli fanlarni birlashtirishga yordam beradi va ta’lim jarayonini interaktiv qiladi.

6. Kooperativ o‘qitish (Cooperative Learning): bu metod o‘quvchilarni guruhlarda ishlashga rag‘batlantiradi. Guruhlarda ishlash jarayonida o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadi, bilim va ko‘nikmalarini birlashtiradi, bu esa turli fanlar o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi.

7. Ijtimoiy-emotsional o‘qitish (Social-Emotional Learning): bu metod bolalarning ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy-emotsional o‘qitish bolalarning turli fanlar bo‘yicha o‘z bilim va ko‘nikmalarini hayotiy tajribalar bilan birlashtirishga yordam beradi.

8. Integratsiyalashgan darslar (Integrated Lessons): integratsiyalashgan darslar turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatishga qaratilgan. Masalan, matematika darsida san’at elementlarini kiritish yoki til o‘rganishda tarixiy mavzularni qo‘llash orqali fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaratish mumkin.

9. Reflektiv o‘qitish (Reflective Teaching): bu metod o‘qituvchilarga o‘z darslarini doimiy ravishda tahlil qilish, o‘z o‘quv jarayonlarini yaxshilash uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Refleksiya integrativ o‘qitishning sifatini oshirishga va o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini chuqurlashtirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ o‘qitishga metodik tayyorlashda ularda XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish juda muhimdir. Bu kompetensiyalar jumlasiga muammolarni hal qilish, kreativlik, jamoada ishlash va texnologik savodxonlik kiradi. Integrativ o‘qitishning amaliy jihatlari, jumladan, sinfda o‘qitishni tashkil qilish, darslarda turli mavzularni bog‘lash texnikalari va interaktiv metodlarning qo‘llanishini o‘rganish

zarur. Bu amaliy yondashuvlar orqali o‘qituvchilarning kelgusida har qanday darslarni samarali o‘tishi ta’minlanadi.

Integrativ yondashuv amalda pedagogik jarayonning istalgan komponentlari, istalgan hodisa va predmetlar: moddiy va ideal ob’ektlar (tushunchalar, prinsiplar, g‘oyalar, konsepsiyalar, nazariyalar); faoliyat (usullar, metodlar, ko‘nikmalar, malakalar, texnologiyalar); shaxs (holatlari, sifatlari, xususiyatlari, motivlari) bo‘lishi mumkin.

Ta’limda integrativ yondashuvlar va pedagogik strategiyalar asosan quyidagi yo‘nalishlarga qaratiladi:


1. Pedagogik kompetensiyalar: zamonaviy ta’limda o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish muhimdir. Pedagogik kompetensiyalarning turli aspektlarini, jumladan, metodik va psixologik kompetensiyalarini mustahkamlash alohida e’tibor talab etadi.

2. Boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuvlar: boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuvlarni tatbiq qilish muhim hisoblanib, integrativ ta’limning mazmun va metodlarini birlashtirish orqali o‘quvchilarning umumiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishish mumkin.

3. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish zarur, pedagogik jarayonni har bir o‘quvchining individual xususiyatlariga moslashtirilishi kerak.

4. Metodik ta’lim: metodik tayyorgarlik va pedagogik strategiyalarni amalga oshirishda amaliy usullarning ahamiyatiga e’tibor qaratish, pedagoglar metodik materiallarni qanday to‘g‘ri ishlab chiqish va o‘quv jarayonida qo‘llashni bilishlari kerak.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda quyidagi shakl, metod va vositalardan foydalanish mumkin:



1-rasm. O‘qituvchilarni integrativ o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda foydalaniladigan shakl, metod va vositalar

Bo‘lajak mutaxassislarning integrativ o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomil-c lashtirishda bu shakl, metod va vositalarni o‘z o‘rnida, samarali qo‘llash orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish mumkin.

Integrativ ta’limni tashkil etish bo‘yicha kelajakdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik ta’minotni takomillashtirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Buni amalga oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega:

1. O‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish: umumiy fanlar bo‘yicha darsliklar, metodik tavsiyalar va didaktik materiallarni yaratish zarur. Bu kelajakdagi o‘qituvchilarga turli fanlar bo‘yicha o‘quv jarayonini integratsiya qilishda yordam beradi.

2. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish: Pedagogika oliygohlaridagi o‘qituv-chilar integrativ ta’lim metodlarini ta’lim jarayoniga joriy etishga yo‘naltirilgan malaka oshirish kurslaridan o‘tishlari kerak.

3. Amaliy-oriyentirlangan texnologiyalarni joriy qilish: loyihalarni amalga oshirish, fanlararo loyihalar va hamkorlikdagi o‘quv faoliyati kabi texnologiyalar kelajakdagi o‘qituvchilarning turli fanlar bo‘yicha bilimlarni integratsiya qilish ko‘nikmalarini rivoj-lantirishga yordam beradi.

4. Tadqiqot faoliyati uchun shart-sharoit yaratish: bo‘lajak o‘qituvchilar integrativ ta’lim sohasida tadqiqotlar o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Bu ularga nazariy jihatlarni chuqurroq tushunishga va amaliyotda qo‘llashga yordam beradi.

5. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) turli fanlarni integratsiya qilishni ancha osonlashtiradi, turli manbalarga kirish imkoniyati va samarali ta’lim uchun vositalarni ta’minlaydi. Bu yo‘nalishlar kelajakda-gi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun integrativ yondashuvda kasbiy rivojlanishni ta’minlaydigan sifatli uslubiy ta’minot yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахлиддинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования: Пед. фан. докт. дисс. автореф. – Т., 2000. – С. 44;

2. Хлебосолова О.А. Современные подходы к оценке качества образования: предметный аспект // Вестник МГУ "Педагогика", 2008. –№2. – С. 84-89;

3. Шалашова М.М. Новые подходы к оцениванию качества школьного образования, 2010. – № 9. – С. 23-26.

4. Inoyatov U.I. Zamonaviy elektron didaktik vositalarni yaratish, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash dolzarb ijtimoiy-pedagogik muam-mo// Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar// xalqaro ilmiy konferensiya. – T., 27-aprel, 2018-yil.

5. Чапаев, Н. К. Интеграция образования и производства: методология, теория, опыт: монография / Н. К. Чапаев, М. Л. Вайнштейн. – Челябинск: ЧИРПО; Екатеринбург: ИРРО, 2007. – 408 с.

6. Скворцова Г.И. Рекомендации по внутришкольному управлению качеством образования. // Справочник заместителя директора школы. - 2009. - № 2. - С. 50-56

7. Vijaya Kumari S.N. Constructivist Approach To Teacher Education: An Integrative Model For Reflective Teaching. i-manager’s Journal o n Educational Psychology, Vol. 7 l No. 4 l February - April 2014.

J.B.ESHKUVATOV,
A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK KREATIVLIK TUSHUNCHALARI MAZMUNI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XXI asr pedagogik ta’limda va kasbiy faoliyatda kreativlik tushunchasi, uning paydo bo‘lishi, shaxsga xos bo‘lgan qattiq va yumshoq malakalar, ularning uzluksiz ta’limdagi ahamiyati haqida, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilaridagi kreativ potensialning muhim darajalari haqidagi turli tadqiqotlar tahlili hamda mualliflik yondashuvlari bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar. “Hard skills”, “soft skills”, kretivlik, ijodkorlik, intellekt, modernizatsiya, kompetensiya, innovatsiya, nostandart, tafakkur.

В данной статье рассмотрено понятие креативности в педагогическом образовании и профессиональной деятельности XXI века, ее возникновение, специфичные для человека твердые и мягкие навыки, их значение в непрерывном образовании, а также в общем среднем образовании. описаны важные уровни творческого потенциала педагогов и авторские подходы.

Ключевые слова. “Жесткие навыки”, “мягкие навыки”, креативность, креативность, интеллект, модернизация, компетентность, новаторство, нестандартность, мышление.

In this article, the concept of creativity in pedagogical education and professional activity of the 21st century, its emergence, hard and soft skills specific to a person, their importance in continuous education, as well as general secondary education the analysis of various studies on the important levels of creative potential in teachers and the author’s approaches are described.

Key words.“Hard skills”, “soft skills”, creativity, creativity, intelligence, modernization, competence, innovation, non-standard, thinking.

Dunyo miqyosida innovatsion rivojlanishning global vazifalaridan biri insonlarda kreativlikni shakllantirishdir. Bunda yangi g‘oyalar ishlab chiqish, murakkab vaziyatlarga qulay yechim topa bilish, kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish, oqilona tavakkalchilikka bo‘lgan qobiliyat, kasbiy barkamollik kabi harakatlar nazarda tutiladi. YUNESKO kreativlik tushunchasiga ta’rif berib “erkin ijod qilish va kreativlik - sohalar rivojining asosidir”deb e’tirof etdi. Jahon miqyosida pedagoglarning ijodiy salohiyati, kasbiy kompetentligi va kreativligini rivojlantirish, yangi zamonaviy dasturiy vositalar orqali o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy metodlaridan kompleks foydalanish hamda ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning intellektual resurslarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

“Kreativlik” atamasiga oid izohlar soni minglab topiladi, ammo ulardan eng aniqrog‘i quyidagicha: kreativlik – yangi g‘oyalarni yarata olish qobiliyati bo‘lib, standart va odatiy chizmalardan, fikrlash qoidalaridan tubdan farq qiladi. Kreativ inson biron-bir vaziyat yoki muammoni noodatiy usulda ko‘ra oladi. U tubdan yangicha, nostandart tarzda fikrlaydi, muammolarni hal etishda yangi usul va yo‘llarni izlab topadi. Tabiiyki, uning tafakkuri konstruktiv va yaratuvchan xususiyatga ega. Boshqacha qilib aytganda, kreativ shaxs – bu innovatordir, deyish mumkin.

Shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini tadqiq etishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma kre-

ativlik muammosining alohida muhimligini belgilaydi. Shaxsiy ijodkorlikning dinamik (rivojlanib, o‘sib borishi) tasniflanishi kreativlik va uning asosiy qirralarida aks etadi. Biroq, kreativlik psixologiya va pedagogika fanlarining belgilangan ilmiy kategoriyasi borasida, “kreativlik” tushunchasi tegishli lug‘atlarda munosib differensiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O‘nlab ilmiy ishlarda ilmiy ijodkorlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o‘ziga va na unga taalluqli bo‘lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to‘xtam mavjud emas.

Terminologik lug‘atlarda kreativlik hayratga tushish va anglab olish, nostandart vaziyatlarda yechim topish qobiliyati, yangi narsalarni kashf qilishning maqsadga muvofiqligi va o‘z tajribasini chuqur anglash qobiliyati sifatida beriladi.

Aynan “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipining ustuvorlik kasb etishi, kompetensiyaviy yondashuv asosida zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni (erkinlik, ijodiy yondashuv, kreativlik, tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash va h.) egallash kelajakda ustuvor ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Ayni paytda ta’lim sohasidagi nufuzli Xalqaro ekspertlar tomonidan ta’lim tarbiya jarayoniga ikki xil kompetensiyalarni uyg‘un joriy etish taklif etilmoqda. Bular: “Hard skills - (ingliz. “qattiq” malaka) kasbiy kompetensiyalar hamda “Soft skills” - (ingliz. “yumshoq”, “moslashuvchan” malaka) universal (umumiy) kompetensiyalar.

“Hard skills” - malaka darajasini aniqlash va o‘lchash mumkin bo‘lgan bilimlar majmui sifatida (matnni kompyuterda terish malakasi, avtomobilni boshqarish ko‘nikmasi, ingliz tilida gapirish, matematik bilim, kompyuter dasturlaridan foydalanish ko‘nikmasi), “soft skills” aniq va umumiy o‘lchov birligiga ega bo‘lmagan moslashuvchan, egiluvchan malakalar (kreativlik, jamoada ishlash ko‘nikmasi, hissiy barqarorlik, mas’uliyat, tashabbuskorlik va h.) sifatida qayd etilmoqda.

“Hard skills” - “qattiq” malakaga ega bo‘lish uchun muayyan kasb bo‘yicha aniq bilim zarur bo‘ladi va bu ko‘nikmalarning mavjudligi imtihon o‘tkazish orqali aniqlanadi.

“Soft skills” - “yumshoq” kompetensiyalar (ijodkorlik, muloqotga kirishishi layoqati, jamoada ishlash qobiliyati, qat’iyatlilik, tanqidiy fikrlash va h.) esa ko‘p hollarda inson xarakteri va hayotiy tajribasiga bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli shaxsiy fazilat, xislat, qobiliyat sifatida ham talqin etiladi.

“Soft skills” tushunchasi tadqiqot predmeti (obyekti) sifatida ilmiy muomalaga kirishi ilk marta 1959-1972-yillarda AQSh armiyasi shaxsiy tarkibini tayyorlash jarayonidagi islohotlar bilan bog‘liq. Askarlarning shaxsiy va jangovor kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlarga rahbarlik qilgan psixolog, ehtiyojlar nazariyasi muallifi, mavzular bo‘yicha apperseptiv testlarni baholashning yangi metodikasini ishlab chiqqan professor Devid Makkleland AQSh davlat departamenti xizmatiga xodimlarni tanlash jarayonida ilk marta “yumshoq” (soft) kompetensiyalar va ularni baholash tushunchasini qo‘llaydi.

XXI asrga qadar ta’lim tizimida yoshlarga asosan “hard skills” – “qattiq” malaka darajasini berishga e’tibor qaratib kelindi. Ya’ni, muayyan kasbni puxta egallash, uning sir-asrorlarini to‘liq o‘zlashtirish – shaxsning yetuk mutaxassis ekanligini belgilovchi asosiy factor sifatida qayd etilgan.

XXI asr pedagogikasi esa zamonaviy dunyoda bu xislatlarning yetarli emasligi, endilikda tafakkurni rivojlantirish, kreativ makon, muhit, kreativ shaxs, kreativ mahsulot yaratishga bo‘lgan ehtiyoj asosida ish tutish lozimligini uqtirmoqda.

Jahoning bir qator nufuzli tadqiqot markazlari o‘z hisobotlarida zamonaviy ta’lim mazmunini “yumshoq” kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirish va modernizatsi-

yalash, kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta’lim muhitini yaratish, yoshlarda nostandart tafakkur tarzi va kreativlik xislatlarini shakllantirish zaruratini e’tirof etib, bu jarayonning pedagogik, metodologik va ilmiy-nazariy asoslarini taqdim etmoqda.

Butunjahon Iqtisodiyot Forumi e’lon qilgan 2020-yil uchun eng muhim 10 ta bilim, ko‘nikmalar ro‘yxatida aynan “yumshoq” kompetensiyalarga keng o‘rin berilganligi ham ana shu ehtiyojning muqarrar ekanligidan dalolat bermoqda.

Karnegi Melon fondi va Stendfords tadqiqot instituti ilmiy xulosalariga ko‘ra, “Fortune 500 ” top ro‘yxatiga kiritilgan kompaniyalar rahbarlarining muvaffaqiyatga erishishiga 75 foiz holatda “soft skills”, bor-yo‘g‘i 25 foiz holatda esa “hard skills” kompetensiyalari asos bo‘lgan. Olimlarning e’tirof etishicha, muvaffaqiyatga erishishda “yumshoq” kompetensiyalar kasblarning turi va murakkabligidan qat’iy nazar asosiy rol o‘ynagan .

Shu sababli ayni paytda o‘tkazilgan so‘rovlarda 77 foiz mutaxassislar “soft skills” – “yumshoq” kompetensiyalar bugungi kunda dolzarbligi va muhimligi jihatdan “hard skills” - individual kasbiy “qattiq” bilim, malakalardan ustun ekanini ta’kidlashgan. Aynan shuning uchun ham “soft skills” atamasi tez o‘zgarayotgan dunyoda inson uchun eng muhim bo‘lgan kompetensiyalar majmui sifatida ommaviylik kasb etmoqda. Bu borada Xalqaro ekspertlar tomonidan yuzlab maqolalar e’lon qilinmoqda va ularda bir-biriga yaqin bo‘lgan qarashlar ilgari surilmoqda.

Quyida ularning ayrimlari tahlilga tortildi:

“yumshoq malakalar” – bu shaxsiy sifatlar bo‘lib, inson uchun boshqalar bilan samarali va uyg‘un faoliyat olib borishiga imkon yaratadi”, “ish beruvchilar uchun nafaqat kasbiy bilimlar muhim, balki ta’lim muassasasida tahsil davomida berilmaydigan shaxsiy sifatlar ham juda ahamiyatlidir. Agar ishchi xodimlar kreativlik, mas’uliyat, muomala madaniyati kabi sifatlar mavjud bo‘lsa, bu ish samarasi va natijasiga albatta, ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Aynan shu kompetensiyalar majmuasi bugun “yumshoq ko‘nikmalar” ya’ni, “soft skills”, deb atalmoqda”.

Ushbu malakalar talab qilmaydigan, avtomatlashtirilishi mumkin bo‘lgan qolgan barcha kasblarga esa inson resurslari kerak bo‘lmaydi, ular avtomatlashtiriladi, robotlashtiriladi, raqamlashtiriladi” .

Shu bilan birga “yumshoq” malakalarni talqin etishda ikki xil yondashuv ustuvorlik kasb etmoqda. Bir guruh ekspertlar “yumshoq malakalar”ni inson asliyati va xarakterida tabiatan mavjud bo‘lgan va hayot davomida orttirib boriladigan shaxsiy fazilatlar, ko‘nikmalar majmuyi sifatida talqin etsa, ikkinchi guruh olimlar uni qo‘shimcha ravishda o‘rgatiladigan va o‘rganiladigan (ta’lim muassasasida) bilim, malaka, ko‘nikmalar majmuyi sifatida qabul qiladi.

Shu bois “soft skills” atamasi mazmunan va mantiqan yaxlit ma’noni o‘zida mujassam etgan ta’rif va tasnifga ega bo‘lishi va aynan shu nuqtai nazardan talqin etilishi maqsadga muvofiqdir.

E’lon qilingan maqolalar va materiallarni, tadiqotchilarning (Abashkina O., Barinova O.V., Gayduchenko E., Marusheva A., Davidova V., Jadko N.V., Churkina M.A., Ivanova D., Kanardova I., Klyukovskaya I., Miroshnichenko A.N., Novikova A.M., Choshanova M.A., Pavlova E., Portlend Yu., Sosnitskaya O., Tataurschikova D., Shipilova V., Chulanova O.L.) ilmiy va amaliy yondashuvlarini tahlil qilgan holda “soft skills” atamasiga quyidagi ta’rifni eng maqbul variant sifatida qabul qilamiz:

“Soft skills” ,“yumshoq malakalar” – bu ish jarayoni va ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradigan, muayyan kasb egalari faoliyatida muvaffaqiyatni ta’minlovchi noakademik, ustqurma bilim, malaka va ko‘nikmalar uyg‘unligidir.

Hozirgi vaqtda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kreativ yondashuvni amalga

oshirish bo‘yicha ijodiy ta’lim dasturlari muallifi Lids Metropolitan universiteti “Amaliy ijtimoiy fanlar” o‘qituvchisi, ijodiy markaz rahbari, f.f.d. Merilin Frayer “Ta’limda ijodkorlikni targ‘ib qilish va diagnostika o‘lchovlarining o‘rni” maqolasida ta’lim amaliyotida ijodiy tarkibiy qismni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradigan omillarni hamda umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilari tomonidan qo‘llaniladigan usullarni tavsiflaydi. Uning fikriga ko‘ra, hozirgi paytda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish usullari va ijodkorlik darajasini belgilashga qaratilgan diagnostika ishlari o‘qituvchilarda alohida qiziqish uyg‘otmoqda.

Kreativ pedagogika ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali sinfda ulardan samarali foydalanishlari imkoniyatlarini ochib beradi. Ijodkorlikni o‘rganish jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining intellektual va psixologik rivojlanishi tizimlarini shakllantirish muammolari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular shaxsiy-ijodiy fikrlash uslubining tarkibiy qismlarini shakllantirishga qaratilgan. Demak, pedagogning kreativligi – ta’lim beruvchining an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati bo‘lib, bu sifat o‘qituvchining o‘zini ijodiy namoyon qila olish kompetentligiga egaligi va unga tayyorgarlik darajasini ifodalaydi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli o‘quvchilar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadilar. Buning sababi ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar o‘quvchilarda erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Hozirda kreativ fikrlash qobiliyati nafaqat o‘quvchilar uchun, balki o‘zini Vataniga daxldor deb hisoblaydigan har bir inson uchun zarurdir.

Pedagog kreativlik kompetensiyasiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatda quyidagilarga e’tiborni qaratish zarur:

1. O‘quv faoliyatiga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlarni chuqur bilishi;

2.O‘quv manbalari, darslik, o‘quv va metodik qo‘llanma, tavsiyanoma, yo‘riqnomalarni tayyorlash malakasiga ega bo‘lishi;

3. Ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish;

4. Ta’lim jarayoni va ma’naviy-ma’rifiy ishlar loyihalarini tayyorlay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi va h.k.

Umumiy o‘rta maktab o‘qituvchilaridagi kreativ potensialning muhim darajalari quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi.

Yuqori dara: muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyib etib boradi, kreativ jihatdan o‘ta faol, izlanuvchan.

O‘rta daraja: ba’zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo‘lmasa-da, ammo namoyon bo‘ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo‘lishga intiladi.

Past daraja: garchi u yetarlicha asoslanmagan bo‘lsa-da, tashabbusni ilgari surishga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo‘lmaydi, izlanuvchan bo‘lishga intilmaydi.

Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ixtisoslashgan adabiyotlar, metodologik va pedagogik amaliyot natijalarini tahlil qilish asosida ma’lum bo‘ladiki, o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Ularning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi

pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun ularning malakasini uzluksiz oshirib borish talabi qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini-o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatda kreativ fikrlashga zarurat tug‘diradigan global muammolarni hal qilish uchun innovatsion bilim va yaratuvchanlik qobiliyatiga tobora ehtiyoj sezilmoqda. Ta’limning asosiy roli o‘quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur va kerak bo‘ladigan sifatli ta’lim berish hisoblansa, kreativ fikrlash hozirgi yoshlarning rivojlanishi uchun eng muhim zaruriy ehtiyojdir.

O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talaba o‘quvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘ladi. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi.

Ayni o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo‘sh, o‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi:“-Agarchi o‘zingizni kreativ emasman, deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”.

“Kreativ pedagogika” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talaba-o‘quvchilar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;

2) o‘qituvchilarga talaba-o‘quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Bugungi kunda pedagogika fani doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga doir o‘quv modullariga alohida e’tibor qaratiladi.

Bunda kreativ pedagogika muayyan vazifalarni bajaradi. Ular quyidagilardan iborat:

– ta’lim mazmuni, o‘quv rejalari va dasturlarini saralash;

– o‘quv moduli (fani)ni o‘qitishning taktika va strategiyalarini belgilash;

– mos psixologik-pedagogik tashxis vositalarini tanlash;

– ta’lim oluvchilarning kreativ rivojlanishini bashoratlash;

– kreativ shaxsni shakllantirishning boshqaruv tizimini ishlab chiqish.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo‘sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo‘ladi? Odatda, kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko‘zga tashlansa-da, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishlari zarur, degan ehtimolni ifodalaydi.

“Kreativlik” tushunchasining innovatsion qarorni qabul qilishning ijodiy jarayonini tasvirlashda qo‘llaniladigan turli izohlari mavjud. Kreativlik mazmunining eng ko‘p tarqalgan izohi – original va o‘rinli g‘oyalarning o‘ziga xos foydasini inobatga olmasdan yaratilishi bilan talqin qilinayotganlardir. Shu jumladan, aytish mumkinki, kreativlik –

hali hech kim qo‘l urmagan narsalarni amalga oshirish – ya’ni bu jarayon zanjir ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin: fikrlash , yaratish , qo‘llash. Boshqachasiga aytganda, g‘oya ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish kabi muvaffaqiyatli harakatlar – innovatsiyalarga aylanishi lozim. Tashkilotning amaliy faoliyatida bunga erishish uchun, ehtimol, keng kompetensiya va turli qobiliyatlarga ega bir necha insonlar kerak bo‘ladi.

Kreativ pedagogika o‘quvchilarni ijodiy o‘qishga, o‘z-o‘zini va kelajagini shakllantira olishga o‘rgatadi. Kreativ pedagogika, aksar hollarda, matematika, fizika, lingvistika yoki iqtisodiyot kabi har qanday fan yoki sohada qo‘llanilishi mumkin. Ma’lum bir darajagacha aytish mumkinki, o‘rganilayotgan fanning emas, uning metodologiyasi katta ahamiyatga ega: aynan ijodiy metodologiyalarning o‘tilishi ta’lim berish va olish jarayonini o‘zgartiradi.

Kreativ pedagogika atamasi va konsepsiyasining muallifi Andrey Aleynikov, ushbu atamaning izohini kashfiyot formulasi, texnologiya sohasida kashfiyotlarni tasvirlash uchun qo‘llaniladigan aniq og‘zaki formula ko‘rinishida taqdim etdi. “O‘quvchi ta’sir obyekti darajasidan ijod (kreativlik) subyekti darajasiga, an’anaviy (asosiy) darslik esa o‘zlashtirish fani darajasidan ba’zi yaratuvchanlik maqsadlariga erishish vositasi darajasiga o‘tkaziladi, qo‘shimcha material esa evristik uslublar va usullar harakatini tasvirlash va namoyish qilinishini o‘z ichiga olgan, ta’lim samaradorligi oshirish maqsadida markazdan qochirma o‘ta tanqidiy ta’sir fonida amalga oshiriladigan pedagogik ta’sir bilan ajralib turuvchi va ma’lum bir darsilikni o‘zlashtirish uchun subyektga nisbatan pedagogik ta’sirni o‘z ichiga oluvchi kreativ oriyentatsiya pedagogikasi”.

Kreativ pedagogika 1990-yili xorijda tan olingan bo‘lib, o‘zida quyidagilarni mujassamlashtiradi: san’at darslari,texnik ijod ,ijod psixologiyasi, muammolarni ijodiy hal qilish, ijodiy yo‘naltirilgan ta’lim dasturlari.

Intellektual va ijtimoiy (pedagogik) kreativlikning nisbiyligini o‘rganish to‘g‘risida aytadigan bo‘lsak, ularning o‘rtasida bevosita aloqa mavjudligini bildirish mumkin. Ya’ni ijodiy fikr yuritadigan o‘qituvchi o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqaga kirishishda o‘zini ijodiy tarzda namoyon qilish imkoniyatiga ega. Mazkur atamalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va yangi pedagogik g‘oyalarning asosi hisoblanadi.

Pedagogikaning boshqa munosabatlari kabi kreativ pedagogik munosabat ham, birinchi navbatda, pedagogning yangilanuvchan-izlanuvchan borlig‘ini va ehtiyojini aks ettiradi. Kreativ ta’lim jarayoni har bir ta’lim jarayonida har bir o‘quvchiga nafaqat mavjud ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirish, balki kelgusida o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirish, o‘z-o‘zini obyektiv baholashga nisbatan ehtiyojni shakllantirish imkonini beradi.

Ijtimoiy buyurtma, ilmiy izlanishlar va ta’lim amaliyoti darajasi talabalarining ta’siri ostida pedagogikada yangi yo‘nalish – kreativ pedagogika yuzaga keldi. “Kreativ pedagogika” atamasi zamonaviy ilmiy pedagogik leksikaga kirib ulgurdi, biroq u ilmiy soha sifatida hali mustaqil emas va o‘rganish borasida murakkab tasavvurga ega. Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariyada va insoniyat to‘g‘risidagi boshqa fan tizimlarida ko‘rib chiqiladi, ular: pedagogika tarixi va ta’lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, ta’lim va tarbiya metodikalari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalar.

Pedagogika obyekti sifatida shaxs, uning psixikasi emas, balki uning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik hodisalar tizimi: jamiyatning bir maqsadga qaratilgan faoliyati jarayonida inson shaxsining rivojlanishi bilan belgilaydigan voqelikning hodisalarida aks etadi. Ushbu hodisalar ta’lim atamasini olgan. Ta’lim umumiy voqelik bilan birdek, kreativ pedagogikaning ham izlanish obyekti hisoblanadi, biroq, ikkinchi turning

asosiy jihati shundaki, u e’tiborni ko‘proq ijodiy rivojlanayotgan ta’limga qaratadi”.

Aslida har qanday pedagogika kreativ ta’lim yo‘nalishiga ega masalan, muammoli, dasturlangan, intensiv o‘qitish va boshqalar. O‘quvchilarga allaqachon ma’lum bo‘lgan faktologik bilimlarning yetkazilishini ta’minlovchi, ta’limni ob’ektiv aniqlangan rivojlanish jarayoni sifatida hisoblaydigan, an’anaviy didaktikaga asoslangan pedagogika ham ma’lum bir kreativlikka ega”.

Kreativ pedagogika shaxsda innovatsion harakatchanlik, kreativlik va zamonaviy jamiyatda raqobatbardoshlilikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Hozirgacha kreativlik atamasiga nisbatan odatga aylanib qolgan tushuncha to‘g‘risida shaxslarning original qadriyatlarini yaratish, nostandart qarorlarni qabul qilish, ma’lumlilik chegaralaridan chiqish kabi xususiyatlarini aks ettiruvchi sifatlar; shaxsning ijodiy imkoniyatlarini mujassamlantiruvchi uning integral xususiyatlari sifatida so‘zlashish mumkin. Kreativlikning muhim tasniflari sirasiga intuitsiya, tasavvur, o‘ylar, oldindan ko‘ra olish, originallik, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, o‘z-o‘zini tashkillashtira olish va ishchanlik qobiliyatlari kiritiladi.

Kreativlik va intellektning o‘zaro bog‘liqligi yo‘q, deb qaraladigan tadqiqotlarda kreativlikni insonning hayotga moslashishi emas, balki dezadaptatsiyasi, atrofdagi olamga, ijtimoiy muhitga moslasha olmasligi oqibatida uni o‘zgartirishga kirishishi natijasi sifatida talqin qilinadi. Ya’ni, kreativ tafakkur insonga shu moslasha olmasligini yengib o‘tish uchun yo‘l axtarishi, yangilik yaratishiga turtki bo‘ladi.

Demak, kreativlik ijodiy qobiliyatlilik darajasi, shaxsning barqaror sifati hisoblanadigan ijod qilishga bo‘lgan layoqati sifatida kreativ tafakkurga chambarchas bog‘liq. Kreativ tafakkur esa shaxsning o‘z oldida turgan vazifalarini nostandart hal etish hamda o‘z maqsadlariga erishishning yangi, yanada samaraliroq yo‘llarini topish qobiliyatidir. Ya’ni kreativlik asosan boshqalarga o‘xshamagan g‘oyalarni o‘ylab topish, an’ana tusiga kirib qolgan fikrlashdan qochish hamda muammoli vaziyatlarni tez hamda samarali hal etish yo‘llarini bilish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Koroleva L.Yu. The problem of the formation of creative personality in psychological and pedagogical research // Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. The Volga region. Humanitarian sciences. - 2016. - No. 2 (38). - C. 212 - 223. DOI: https://elibrary.ru/item.asp?id=26637440.

2. Терминологический словарь современного педагога. М.: 1999. http://didacts.ru/dictionary/1032.

3. Михаэль Альбрехт - глава подразделения рекрутмента BMW Group. Хельмут Вагнер - декан факультета Studium Generale Мюнхенской высшей школы прикладных наук. Беттина Бартковяк - (Bettina Bartkowiak) - эксперт по вопросам рекрутинга и кадровой политики. Ме Илья Биндюк - директор платформы Expert. Валерий Остринский, Светлана Толкачева программа Executive MBA Евразийская школа менеджмента (EMAS).

4. “Что такое hard и soft skills?”, Ольга Биккулова, специалист Центра “Гуманитарные технологии”. https://proforientator.ru/. ИВК. https://www.mental-skills.ru/synopses/soft-skills-i-nard-skills-v-chem-raznitsa.html.

5. Владислав Шипилов - предприниматель, бизнес-тренер, основатель “SBA University”. Эльмира Максудова. Soft skills для IT. Что важнее: знать Java или уметь договариваться?. vc.ru (1.06.2018).

Xurshida RAJABOVA,
TATU Farg‘ona filiali, katta o‘qituvchisi

O‘QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ASPEKTLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo’lajak axborot texnologiyalari bo’yicha mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish – innovatsion ta’lim muhitining asosiy shartlaridan biri ekanligi hamda uning aspektlari, darajalari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Axborot texnologiyalari, kasbiy kompetentlik, innovatsion ta’lim muhiti, interfaol texnologiyalar, ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar, psixologik-pedagogik xususiyatlar.

В данной статье рассматривается тот факт, что развитие профессиональной компетентности будущих ИТ-специалистов является одним из основных условий инновационной образовательной среды, а также ее критериев и уровней.

Ключевые слова. Информационные технологии, профессиональная компетентность, инновационная образовательная среда, интерактивные технологии, социально-педагогические механизмы, психолого-педагогические особенности.

This article discusses the fact that the development of professional competence of future IT specialists is one of the main conditions for an innovative educational environment, as well as its criteria and levels.

Key words. Information technology, professional competence, innovative educational environment, interactive technologies, social and pedagogical mechanisms, psychological and pedagogical features

Yurtimizda ta’lim tizimiga qo‘yilgan talablar dunyoga yangi ko‘z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko‘zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas’uliyatli vazifadir.

Pedagog o‘z ixtisosligi bo‘yicha ta’lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas’uldir. U muntazam ravishda o‘z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o‘qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo‘lishi, aniqrog‘i, kasbiy kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. Endilikda o‘qituvchi uchun o‘zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta’lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o‘z faoliyatida qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo‘lishi lozim.

“Kompetensiya” tushunchasi, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv, kompetensiya egasi, bu atamalarning mazmuni haqida to‘xtalish uchun, eng avvalo, asrlar davomida shakllangan bu boradagi milliy an’ana va qadriyatlarga e’tibor qaratamiz.

“Kompetensiya” tushunchasini izohlar ekanmiz, bu atamaning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratamiz.

Kompetensiya lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma’nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni echa olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda “kasbiy kompetenlik” atamasi qo‘llaniladi. Bu so‘zni kasbiy vazifalarini

amalga oshirishda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati deb tushunsa bo‘ladi.

Kompetensiya – huquqshunoslik atamasi. Aniq organ yoki shaxsning vakolatiga kiradigan huquq va burchlari bo‘lib, davlat va jamoat tizimida mazkur insonning o‘rnini belgilaydi. Huquqshunoslik mazmuniga ko‘ra, kompetensiya quyidagi unsurlarni o‘z ichiga oladi: targ‘ib etiluvchi predmetlar (hududlar, hodisalar, harakatlar, ma’lum bir doirada yuritiladi), ma’lum organ va shaxsning o‘z faoliyati uchun qo‘llashi mumkin bo‘lgan huquq va burchlari, vakolatlari yig‘indisidir.

Kompetensiya ijtimoiy huquq bu – aniq bir sub’ektning boshqaruv jarayonlari uchun qonun bilan belgilab qo‘yilgan vakolati bo‘lib, ma’lum bir ijtimoiy vazifa ana shu vakolat zimmasiga yuklatilgan bo‘ladi.

Kompetensiya boshqaruv vakolati bu – ma’lum bir kasbiy vazifalarni hal etishda mutaxassis (xodim)ning shaxsiy vokolati sanaladi.

Madaniyatlararo kompetensiya – boshqa madaniyat nomoyandalari bilan muvaffaqiyatli til topish qobiliyati.

Tashkilotning asosiy kompetensiyasi – tashkilotning raqobatbardoshligini ta’minlovchi omil bo‘lib, raqobat kurashida asosiy tayanch vositasi sanaladi.

Kompetensiya hududi bu – shaxs yoki jamoaning bilim va mahorati yig‘indisidan iborat bo‘lib, ular o‘z vazifasini oliy va raqobatbardoshlilik doirasida amalga oshiradilar.

1983-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan chop etilgan ruscha-o‘zbekcha lug‘atda “kompetentnost” – “chuqur bilimga egalik”, “chuqur bilimga asoslanganlik”, “xabardorlik”, “omilkorlik” deb o‘zbek tiliga o‘girilgan. “Kompetentniy” – yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, kompetensiyaga ega bo‘lgan, vakolatli, masalani ko‘rib chiqishga haqli, ma’nolarida tarjima qilingan. “Kompetensiya” – biron-bir kishi xabardor bo‘lgan soha yoki masala, huquq yoki ixtiyor kabi tushunchalarda berilgan.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti tomonidan 1981- yilda chop etilgan ikki tomlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “kompetensiya” tushunchasi butunlay kiritilmagan. Umuman, mamlakatimizda har qanday sohaga, xususan, pedagogik faoliyatga kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv keyingi besh yil davomida qo‘llanila boshlandi.

O‘zbek tilining o‘ziga xos morfologik va semantik xususiyatlari nuqtai nazaridan yondashgan holda “kompetensiya” atamasi va tushunchalari lotinchadagi “competere” – “munosib”, “competo”– “munosibman” yoki “erishaman” so‘zlariga yaqin ma’noda ishlatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga ko‘ra, “kompetensiya” so‘zini barcha ma’noviy hollarda qo‘llash ko‘plab chalkashliklarning oldini oladi degan fikrni aytmoqchimiz. Bundan kelib chiqadiki, kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv, mazkur jamoa yoki shaxs ana shunday kompetensiya egasi, nihoyat, pedagogik kasbiy kompetensiya egasi deb qo‘llash maqsadga muvofiq. Shunday qilib, har qanday holatda ham, kompetensiya ma’lum bir shaxs yoki jamoaning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi. Uni ham qonuniy, ham axloqiy munosabatlari bilan mustahkamlaydi.

Jamiyatdagi biron-bir guruh, jamoa yoki shaxs ma’lum bir soha bo‘yicha yuksak malaka va bilimlarga ega bo‘lib o‘z sohasida kompetensiya egasi bo‘lib shakllanadi hamda ushbu vakolatini muntazam ravishda takomillashtirib boradi. Bu masalaga jamiyatning manfaatlari yuzasidan yondoshiladi. Shaxs esa o‘z kompetensiyasini takomillashtirib borish orqali, eng avvalo, o‘zining hayotiy manfaatlarini amalga oshi-

radi, shu bilan birga jamiyatning shaxsga qo‘yayotgan talablari darajasiga erishadi. Dunyo olimlari tavsiya qilayotgan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini biz yuqorida birlashtirish taklifini kiritdik. Kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv haqidagi ilmiy ishlarni tahlil qilar ekanmiz, bu ikki tushuncha haqida turli-tuman fikrlar aytilayotganligini yaqqol sezamiz.

A.G.Bermusning fikriga ko‘ra, “Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha xislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig‘ini yagona tizimga birlashtiradi”.1 “Kompetentlik bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o‘z bilimlarini uzluksiz ravishda yangilab borishi hamdir, – deydi M.A.Choshanov. M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassisning ma’lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi.

Kompetentlik insonning intellektual shaxsiy, ijtimoiy,kasbiy,hayotiy faoliyatiga asoslanadi, deb yozadi I.A.Zimnyaya.[2]

A.V.Xutorskiy “kompetnsiya” va “kompetentlik” tushunchalarini quyidagicha ajratib olish mumkin, deb hisoblaydi. Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatlari uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma’lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgizishidir. Kompetentlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig‘indisiga ega bo‘lishi demakdir.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, kompetensiya masalasi uning jamiyatdagi o‘rni masalasida qator bahslar davom etmoqda. Ta’lim-tarbiya sohasida asosiy universal kompetensiya unsurlarini anglab olish zamonaviy pedagogikaning eng asosiy muammolaridan biridir. Asosiy kompetensiya masalasida dunyo pedagoglari tajribasini tatbiq qilish yoki an’anaviy o‘zbek pedagogikasi me’yorlaridan kelib chiqqan holda kompetensiya mezonlarini belgilashda fikrlar xilma-xil bo‘lib, hali yechilmagan masalalar talaygina.

Pedagog olima L.T.Xurvaliyeva: “Kompetensiya – bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo‘lishi yoki ta’sir ko‘rsatish qobiliyati”, – deb ta’riflaydi.

Ta’lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovidir. Ta’lim-tarbiya jarayonlari davlat nazoratidagi umummilliy masala hisoblanadi. Mamlakatimizda ta’lim, ya’ni o‘qitish tarbiya bilan uyg‘unlikda olib boriladi. "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonun ta’lim jarayonini tubdan yaxshilashni talab qilar ekan, kompetentli pedagoglarni tayyorlashda ham ana shu talablardan kelib chiqqan holda yondashilishi ko‘zga tashlanadi. Kompetensiyalik yoki o‘ta mahoratlilik, oliy malakali pedagoglarni tayyorlash zamonamizning eng dolzarb masalasiga, aytish joiz bo‘lsa, davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasiga aylangan. Biz yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, pedagogik faoliyat jamiyatdagi funksiyalari bo‘yicha va kasbiy sifat xususiyatlariga qarab hamda psixologik tamoyillari bo‘yicha artist va olimlar tomoniga yaqindir. Pedagog mehnatining xususiyatlari insonni o‘qitish va tarbiyalash uchun mo‘ljallangan. Yoshlarda insoniy fazilatlarni shakllantirish, mehnat predmeti inson hisoblanishi hamda jamiyatni boshqaruvchi shaxsga bo‘lgan ta’siri o‘z-o‘zidan kompetentlikni talab qiladi. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun “Agar kosib yomon usta bo‘lsa, bundan davlat juda katta narsa yo‘qotmaydi, faqat xalq yomonroq kiyinadi, xolos. Agar yoshlar tarbiyachisi o‘z vazifasini yomon bajarsa, u holda mamlakatda nodon, johil, bilimsiz va ahmoqlar toifasi vujudga kela-

[1] Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. www.eidoc.ru. 2005, 09, 10.

[2] Зимняя И.А., И.А. Ключевых. Компетенции – новая парадигма результата образования. quality.petrsu.ru

di”– degan edi.

Oliy ta’lim muassasalari “Pedagog kadrlar qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy metodik markazini tashkil qilish vazifasini qo‘yadi.

Bosh ilmiy metodik markaz zimmasiga professor-o‘qituvchilar tarkibining kasbiy tayyorgarligi darajasini, ularning yuqori malakali kadrlar tayyorlash va tarbiyalashning talab qilinadigan darajasini ta’minlash bo‘yicha ish natijalarini hamda ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish asosida zamonaviy metodikalardan foydalangan holda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning umumta’lim dasturlarini, o‘quv-metodik va normativ materiallarini ishlab chiqish vazifasini yuklaydi. Xuddi shu qarorda o‘qituvchilar faoliyatini zamonaviy talablarga muvofiq baholash, chet tillari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘qitish bo‘yicha o‘quv-metodik materillar va samarali metodikalar ishlab chiqish belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha mintaqiviy markazlarida va tarmoq markazlarida seminar-treninglar tashkil qiladi. Quyidagilar: tegishli ta’lim fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari mazmunini takomillashtirishni, ta’limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashni ta’minlash maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo‘yicha mamlakatimizning ilg‘or, zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalari; pedagoglarni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari; ilmiy eksperemental, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishning samarali metodlari bilan tanishtirish maqsadida ilmiy-tadqiqot muassasalari (Fanlar akademiyasining ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, laboratoriyalari, shu kabilar) bilan hamkorlik qilish hamda ulardan pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun bazaviy ob’ektlar sifatida foydalanish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqadi; mintaqaviy va tarmoq markazlari faoliyatini muvofiqlashtiradi; oliy ta’lim muassasalarining rahbar xodimlari malakasini oshirish kurslari tashkil qiladi va o‘tkazadi.[3] Mazkur qarorga muvofiq, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish 5 ta hududiy markazlarini tashkil etish, 10 ta tarmoq markazlarini tashkil etish, oliy ta’lim muassasalari huzuridagi malaka oshirish ta’lim muasasalari va fakultetlarini tugatish to‘g‘risidagi takliflar qanoatlantiriladi. Demak, Vazirlar Mahkamasi qaroridan oliy ta’lim maktabi o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish yuzasidan davlat homiyligi ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda, mazkur qarorning bajarilishi yuzasidan taklif va mulohazalarimizni bildirishni lozim topdik. Bosh ilmiy metodik markaz mintaqaviy va tarmoq markazlari yuridik shaxs hisoblanadi. Malaka oshirish xizmatlari uchun ma’lum miqdorda to‘lovlar joriy etilmoqda. Bu albatta, ba’zi mahoratli o‘qituvchilar uchun iqtisodiy qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Barcha tashkiliy masalalarni umumlashtirgan holda quyidagicha taklif berar edik:

– mintaqaviy va tarmoq markazlarini muvaffaqiyatli tamomlagan oliy ta’lim o‘qituvchisi Bosh ilmiy metodik markazga davlat granti asosida malaka oshirishga jalb etilishi lozim.

– pedagog kasbiy kompetensiyasi bo‘yicha sertifikat uchun imtihon-sinov topshirilishi belgilanishi ko‘zda tutilishi kerak.

– sertifikatli o‘qituvchilar uchun ilmiy izlanishlar, pedagogik faoliyat yuzasidan

[3] “Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Vazirlar Mahkamasining qarori.

imtiyozlar berilishi lozim.

sinov va baholash imtihonlari uchun kasbiy kompetensiyaga xos to‘rt yo‘nalish asos qilib olinmog‘i darkor:

a) mutaxassisligi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlari;

b) pedagogik mahorati;

g) shaxsiy sifatlari;

d) dunyoqarashi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bo‘lajak axborot texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ega bo‘lish hamda ana shu vakolatni tasdiqlovchi sertifikatni qo‘lga kiritish o‘qituvchining yanada o‘sib borishi, bilimlarining takomillashishi, o‘z ustida ishlashi imkoniyatlarini yaratadi, o‘z kasbiga muhabbat va ishonch uyg‘otadi.

Biz yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, kompetensiya, ayniqsa, kasbiy kompetensiya shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnini belgilar ekan, jamiyat ham yuqori malakali kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashdan manfaatdor bo‘ladi.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniy o‘zining axloqiy-didaktik mazmundagi “Turkiy guliston yohud axloq” asarida xulqlarni yaxshi-yomonga ajratar ekan, o‘z mulohazalarini Gippokrat, Pluton, Aristotel, Sa’diy Sheroziy va Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Adib Vatan muhabbatini, uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan hisoblaydi.

“Vatan – bu har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakati, uni qadrlamoq, sevmoq, yoshartirmoq kerak”, – deydi. Abdulla Avloniy o‘z asarlarida ta’lim-tarbiya to‘g‘risida to‘xtalib, “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo momot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” – degan edi.

Ta’lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi, davlat va jamiyat nazoratidagi umummilliy masala, uning maqsadi va vazifasi komil inson tarbiyasidir, ta’lim-tarbiya ajratib bo‘lmaydigan uyg‘unlikdir.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda pedagog kasbiy kompetensiyasi mohiyatining teng yarmini tarbiyaga oid munosabatlar tashkil etishini ko‘ramiz. Pedagogning jamiyat oldidagi eng muhim burchi, faoliyatining natijasi komil inson tarbiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. www.eidoc.ru. 2005, 09, 10.

2. Лебедев О.Е. Компетентносный подход в образовании. www.nekrasovepb.ru

3. Зимняя И.А., И.А. Ключевных. Компетенции – новая парадигма результата образования. quality.petrsu.ru

4. Asadov Yu.M. O‘qituvchi kompetensiyasi boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish omili. Boshlang‘ich ta’limni takomillashtirish istiqbollari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – T., 2014. 3-5 bet.

5. Борисенко Е.Н. Педагогическое сопровождение формирования социальной компетентности студентов вузов: Дисс... докт. пед. наук.– Кемерово, 2013. – С.

Iqbol TEMIROVA,
Buxora davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

JAHON TAJRIBASIDA TA’LIMDA KOLLABORATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA OID NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada “kollaboratsiya” atamasining kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi va turli sohalardagi qo‘llanilishi haqida ma’lumot berilgan. Bugungi kunda ushbu atamaga qanday qaralayotganligi haqida fikr yuritiladi. Lev Vigotskiy, James Surowiecki va Jon Dyui kabi olimlarning kollaboratsiyaga oid qarashlari qanday bo‘lgani haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar. Kollaboratsiya, hamkorlik, Vigotskiy, yaqin taraqqiyot zonasi, omma donoligi, Surowiecki, jamoaviy aql, ilmiy tadqiqotlar, ta’lim, biznes.

В этой статье приведены сведения о происхождении, историческом развитии и использовании термина «коллаборация» в различных областях. Сегодня идет речь о том, как рассматривается этот термин. Речь идет о взглядах таких ученых, как Лев Выготский, Джеймс Суровецки и Джон Дьюи на коллаборацию.

Ключевые слова. Коллаборация, сотрудничество, Выготский, зона ближайшего развития, массовая мудрость, Суровецки, коллективный интеллект, научные исследования, образование, бизнес.

This article provides information on the origin, historical development, and use of the term “collaboration” in various fields. Today, there is a debate about how this term is viewed. We will talk about the views of scientists such as Lev Vygotsky, James Surowiecki, and John Dewey on collaboration.

Key words. Collaboration, collaboration, Vygotsky, zone of close development, public wisdom, Surowiecki, collective intelligence, scientific research, education, business.

Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta’lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy ta’lim bizning nafaqat bilim va ko‘nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo‘shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.


Zamonaviy ta’lim dunyodagi tinimsiz o‘zgarishlarga ko‘nikkan, turli muammo va to‘siqlarga tayyor turadigan professionallarning yangi avlodini shakllantirmoqda. Bunday ta’lim o‘quvchilarni nafaqat amaliy ko‘nikmalar bilan, balki o‘quvchilarga bugungi kunda zarur bo‘lgan zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan o‘quv texnikalari bilan ta’minlaydi. Bugun dunyoda “ijtimoiy ko‘nikmalar”ga (soft skills) ega bo‘lgan mutaxassislarga ehtiyoj ortib, ayni paytda “kasbiy ko‘nikmalar” (hard skills) o‘zining birinchi darajali ahamiyatini yo‘qotib bormoqda. Yangi 2023-2024 -o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta’lim olmoqda. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya’ni bu tamoyilda quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish va yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi. 4K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi. Ulardan biri kollaboratsiyadir. Bu atama mazmunini chuqurroq anglash maqsadida uning kelib chiqish tarixi, olimlarning qarashlarini

ko‘rib chiqmoqchimiz.

“Kolloboratsiya” atamasi fransuzcha “collaboration” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu “birgalikda ishlash” yoki “hamkorlik” ma’nosini anglatadi. Tarixan, bu atama qadimgi davrlardan boshlab mavjud bo‘lgan. Misol uchun, yunon va rim davlatlari o‘rtasidagi diplomatik va savdo aloqalari koloboratsiya sifatida qaralishi mumkin. O‘rta asrlarda xuddi shunday turli davlatlar va shaharlar o‘rtasida savdo va madaniy aloqalar ko‘paygan bir vaqtda hamkorlik va birgalikda ishlash muhim ahamiyat kasb etgan. XIX asr sanoat inqilobi davriga kelib bu tushuncha yangi ma’noga ega bo‘ldi. Ishchilar va ish beruvchilar orasida hamkorlik ma’nosida qo‘llanila boshladi. Biroz vaqt o‘tib aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, 1940-yillarda ikkinchi jahon urushi davrida “koloboratsiya” atamasi nazorat ostidagi hududlarda dushman bilan hamkorlik qilgan shaxslar yoki guruhlar uchun qo‘llanila boshlandi. Bu ko‘plab munozaralarga sabab bo‘ldi, chunki bu atama xiyonat yoki dushman bilan aloqalarni anglatishi mumkin edi. Nihoyat, XX asr oxiri va XXI asrda “koloboratsiya” atamasi ko‘plab sohalarga kirib keldi: biznes, ilmiy tadqiqotlar, ta’lim va san’at shular jumlasidandir. Bugungi kunda kolloboratsiya ko‘pincha turli sohalarda innovatsiya va samaradorlikni oshirish uchun muhim strategiya sifatida qaralmoqda. Bu insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni, birgalikda uyushib harakat qilish va hamkorlik natijalarini o‘rganish bilan bog‘liq. Jahondagi ko‘plab olimlar bu sohada tadqiqotlar olib borib, ilm-fan rivojiga sezilarli hissa qo‘shganlar.

Ulardan biri Lev Vigotskiy (1896–1934) bo‘lib, u asosan, madaniy-tarixiy nazariyasi bilan tanilgan va ta’lim, psixologiya, hamkorlik va o‘rganish jarayonlaridagi o‘zaro ta’sirni o‘rgangan. Uning ilmiy ishlari bugungi kunda ham ko‘plab tadqiqotlar va ta’lim amaliyotining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Vigotskiyning tadqiqotlari, ayniqsa, bolalar rivojlanishi, bilim olish jarayoni va o‘zaro hamkorlikning ahamiyati haqida chuqur ma’lumot beradi. Olimning madaniy-tarixiy nazariyasi insonning psixologik rivojlanishini jamiyat va madaniyat bilan bog‘liq holda tushuntiradi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, inson rivojlanishi ijtimoiy aloqalar orqali shakllanadi va madaniy vositalar, til, belgilar, ramzlar va boshqa ijtimoiy artefaktlar yordamida amalga oshiriladi. Bu nazariya, asosan, bolalar psixologiyasi va o‘rganish jarayonlaridagi hamkorlikning ahamiyatini ochib beradi.

Vigotskiy ilmiy ishlari orasida “Yaqin rivojlanish zonasi” (Zone of Proximal Development ZPD) konsepsiyasi alohida o‘rin tutadi. Bu konsepsiya o‘quvchi yoki bolaning o‘z mustaqil ravishda bajarishi mumkin bo‘lmagan, lekin yetukroq shaxs yoki pedagogning yordami bilan amalga oshirishi mumkin bo‘lgan vazifalar to‘plamini ifodalaydi. ZPD konsepsiyasi ta’lim va rivojlanish jarayonida hamkorlikning ahamiyatini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv bo‘yicha, bolalar yoki o‘quvchilar o‘rganish jarayonida o‘z tengdoshlari, o‘qituvchilari yoki tajribali shaxslar bilan hamkorlik qilganda yanada samarali rivojlanadi. Yaqin rivojlanish zonasi(YRZ) bu yaqin taraqqiyot zonasi bo‘lib, bolaning mustaqil ravishda bajara oladigan va umuman bajara olmaydigan narsalari orasidagi bo‘shliq hisoblanadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Yaqin rivojlanish zonasi (YRZ).

1-rasmda tasviri keltirilgan yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyaga ko‘ra o‘qituvchi yoki o‘quvchining ko‘proq bilimga ega bo‘lgan tengdoshi yordamida muammoni hal qilishni o‘rganadi. Ular hamkorlikda ishlash orqali bolalar bir-birlarini qo‘llab-quvvatlab, o‘zlari qodir bo‘lgan narsadan ko‘proq narsalarga erishishlari mumkin. Ilg‘or o‘quvchilar tushunchalarni tushuntirish yoki o‘rgatish orqali o‘z bilimlarini chuqurlashtiradi va bilimlari unchalik yuqori bo‘lmagan bolalar o‘z tengdoshlarining rahbarligi bilan yolg‘iz o‘zlari qila oladigan narsadan ko‘prog‘iga intilishadi.

Vigotskiy ijtimoiy hamkorlikni shaxs rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida ko‘radi. U bolalar va o‘quvchilar o‘zaro muloqot, muhokama va hamkorlik orqali bilimlarni samarali o‘zlashtirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Vigotskiy fikricha, bola rivojlanishi izolyatsiyada emas, balki jamiyat bilan o‘zaro aloqada, hamkorlikda va ta’lim jarayonlarida amalga oshadi. Ushbu jarayonlarda til va muloqot muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ijtimoiy tajribani uzatish va yangi bilimlarni egallash vositasi hisoblanadi.

Vigotskiy bolalar va o‘quvchilar o‘zaro muloqot, muhokama va hamkorlik orqali bilimlarni samarali o‘zlashtirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Vigotskiy fikricha, bola rivojlanishi izolyatsiyada emas, balki jamiyat bilan o‘zaro aloqada, hamkorlikda va ta’lim jarayonlarida amalga oshadi. Ushbu jarayonlarda til va muloqot muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ijtimoiy tajribani uzatish va yangi bilimlarni egallash vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda Vigotskiy nazariyasi ta’lim sohasida keng qo‘llaniladi. Uning yondashuvi ko‘plab ta’lim metodikalarida, jumladan, loyiha asosida o‘qitish, kollaborativ o‘rganish va qo‘llab-quvvatlash orqali ta’lim berish usullarida aks etadi. O‘qituvchilar va pedagoglar Vigotskiyning ZPD konsepsiyasini qo‘llash orqali o‘quvchilarni yuqori rivojlanish darajasiga ko‘tarish uchun zarur yordamni tashkil qilishadi.

Vigotskiyning yondashuvi, ayniqsa, ijtimoiy o‘rganish jarayonlarini yaxshilash, ta’limda hamkorlikni oshirish va bolalar va yoshlarning intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, uning ishlari kollektiv qaror qabul qilish jarayonlari, jamiyatdagi birgalikdagi harakat va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni tushunishga ham yordam beradi.

James Surowiecki – amerikalik jurnalist va yozuvchi bo‘lib, u asosan iqtisodiyot, moliya va ijtimoiy olimlar sohasida faoliyat yuritgan. U 2004 yilda nashr etilgan “The Wisdom of Crowds” (Omma Donoligi) asari bilan keng tanilgan. Ushbu kitobda Surowiecki katta guruhlarning aqli va ular tomonidan qabul qilingan qarorlar individual mutaxassislar yoki ekspertlardan ko‘ra samaraliroq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Asarda Surowiecki shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda agar katta guruhlar to‘g‘ri sharoitlar va qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarga ega bo‘lsalar ular umumiy ravishda juda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishlari mumkin. Bu qarorlar jamoaviy aql (kollektiv intelligence) orqali qabul qilinadi, ya’ni guruhdagi har bir insonning individual bilimlari va fikrlari yig‘ilib, birlashganda umumiy natija yuqori sifatli bo‘ladi. Surowiecki guruhning donoligi quyidagi asosiy sharoitlar mavjud bo‘lgandagina namoyon bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi:

– mustaqillik: har bir ishtirokchining qarorlari va xulosalari boshqalarning ta’siridan mustaqil bo‘lishi kerak;

– turlar xilma-xilligi: guruh ichidagi ishtirokchilarning turli nuqtai nazar va bilimlarga ega bo‘lishi kerak;

– desentralizatsiya: qaror qabul qilish jarayonlari markaziy boshqaruvdan erkin bo‘lishi lozim, ya’ni har bir ishtirokchi o‘ziga xos bilim va tajribaga asoslanib hissa qo‘shadi;

– yig‘ilish (agregatsiya): yig‘ilgan individual fikrlar va xulosalar samarali tarzda

umumlashtirilishi va birlashtirilishi kerak.

James Surowieckining “The Wisdom of Crowds” asari ko‘plab sohalarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan nazariyalar va amaliy yondashuvlar haqidadir. U to‘g‘ri tashkil etilgan guruhlar individual ekspertlardan ham samaraliroq qarorlar qabul qilishi mumkinligini ta’kidlab, kollektiv aql tushunchasini kengaytiradi. Bu esa bugungi kunda jamoaviy qaror qabul qilish jarayonlarining ahamiyatini yanada yuksaltiradi.


John Dyui (1859–1952) – amerikalik taniqli faylasuf, psixolog va ta’lim islohotchisi bo‘lib, asosan progressiv ta’lim va pragmatizm falsafasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Dyuining asarlari zamonaviy ta’lim amaliyotlari uchun asos yaratib berdi, ayniqsa, tajribaviy ta’lim, tanqidiy fikrlash va ta’limda demokratik, hamkorlikka asoslangan muhitning ahamiyatiga urg‘u berdi. U ta’limni o‘quvchilar faqat “tinglovchi” sifatida qaraladigan passiv jarayon sifatida ko‘rmadi. Aksincha, u interaktiv va kollaborativ yondashuv asoslangan bo‘lishi kerak. Olimning fikricha, o‘rganish faol ishtirok, muammolarni hal qilish va atrofdagilar o‘rtasida hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Dyui sinfni jamiyatning kichik modeli sifatida ko‘rdi, bu yerda o‘quvchilar real hayotiy tajribalar va boshqalar bilan hamkorlik orqali o‘rganishlari kerak. Dyuining ta’lim haqidagi falsafiy qarashlari, jumladan, hamkorlik va ijtimoiy o‘zaro ta’sirning ta’lim jarayonidagi ahamiyati uning quyidagi asarlarida keng yoritilgan.

“Demokratiya va Ta’lim” (Democracy and Education, 1916).Bu asarda Dyui ta’lim jarayonida demokratiyaning muhim rolini va hamkorlikning ahamiyatini ta’kidlaydi. U ta’limni jamiyatdagi demokratik qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlash uchun zarur vosita sifatida ko‘radi.

“Tajribadan Ta’lim” (Experience and Education, 1938) Dyuining bu asarida tajribaviy ta’limning ahamiyati haqida batafsil bayon qilinadi. U o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda o‘rganishi va bu jarayonda hamkorlik qilishlari haqida so‘z yuritadi.

“Maktab va Jamiyat” (The School and Society, 1899) Bu asarda Dyui maktabning jamiyatdagi roli va ta’lim jarayonida ijtimoiy o‘zaro ta’sirning muhimligini ochib beradi. Dyui hamkorlikdagi faoliyatning quyidagi asosiy jihatlarini aytib o‘tadi:

Tajribaviy ta’lim. J.Dyuining tajribaviy ta’lim konsepsiyasi o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishini ta’kidlaydi. Dyuining fikricha, ta’lim nafaqat kitoblar orqali ma’lumot olishdan iborat bo‘lib qolmasligi, balki o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarda faol ishtirok etishga undashi zarur (2-rasmga qarang).



2-rasm. O‘quvchilarni hayotiy faoliyatga yo‘naltirish

2. Demokratik ta’lim. Dyui demokratik ta’lim tushunchasini rivojlantirishda katta ahamiyat bergan. Uning fikricha, ta’lim muassasalari jamiyatning kichikroq bir mikrokozmosi bo‘lib, u yerda o‘quvchilar demokratik qadriyatlarni o‘rganishlari kerak. Demokratik ta’lim quyidagi tamoyillarni o‘z ichiga oladi:

Hamkorlik va jamoaviy ishlash: O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga undash orqali ularning hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish. Bu jarayon ularni kelajakda jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Hurmat va tolerantlik: O‘quvchilar boshqalarning fikrlarini hurmat qilishni va turli nuqtai nazarlarni qabul qilishni o‘rganishlari kerak. Bu esa ijtimoiy muhitda konstruktiv muloqotni ta’minlaydi.

Birgalikda qaror qabul qilish: Sinfda yoki maktabda qarorlar qabul qilish jarayonlariga o‘quvchilarni jalb etish orqali ularni mas’uliyatli va mustaqil shaxslar sifatida shakllantirish. Masalan, sinf qoidalarini birgalikda belgilash yoki o‘quv dasturini rejalashtirishda ularni ishtirok etishga undash.

3. Muammo asosida o‘rganish. Muammo asosida o‘rganish (Problem-Based Learning) Dyuining ta’lim yondashuvlaridan biridir va u o‘quvchilarning muammolarni aniqlash, tahlil qilish va hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Muammolarni identifikatsiya qilish: O‘quvchilarni real yoki simulyatsiyalangan muammolar bilan tanishtirish va ularni aniqlashga undash. Masalan, tarix darsida tarixiy hodisalarni tahlil qilish yoki matematika darsida murakkab masalalarni yechish.

Tahlil va yechim topish: O‘quvchilar muammolarni tahlil qilish, sabablarini aniqlash va samarali yechimlar topish yo‘llarini izlashlari kerak. Bu jarayon ularning analitik fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

Hamkorlikda ishlash: O‘quvchilar guruhlarda ishlash orqali turli fikrlarni muhokama qilishadi va eng yaxshi yechimni topish uchun birgalikda harakat qilishadi. Bu esa jamoaviy ish va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Natijalarni baholash: Topilgan yechimlarning samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish uchun fikr almashish. Bu jarayon o‘quvchilarga o‘z ishlari ustida fikr yuritish va xatoliklardan saboq olish imkonini beradi.

4. Ijtimoiy o‘zaro ta’sir. Dyui ijtimoiy o‘zaro ta’sirni ta’lim jarayonining muhim elementi deb bilgan. Unga ko‘ra, o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlik ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy o‘zaro ta’sir quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Muloqot va munozara. O‘quvchilar o‘rtasida faol muloqot va munozaralar o‘tkazish orqali o‘z fikrlarini ifoda etish va boshqalarning fikrlarini tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Masalan, debatlar tashkil etish yoki guruh muhokamalari o‘tkazish.

Empatiya va hamdardlik. O‘quvchilarni boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishga va hurmat qilishga o‘rgatish. Bu esa ularning ijtimoiy aloqalarda yanada samimiy va samarali bo‘lishlariga yordam beradi.

Jamoaviy ishlash qobiliyati. O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga undash orqali ularning jamoada muvaffaqiyatli ishlash qobiliyatini rivojlantirish. Bu jarayon ularga turli rollarni bajarish, vazifalarni taqsimlash va birgalikda ishlashni o‘rgatadi.

Konfliktlarni hal qilish. O‘quvchilarga konfliktlarni konstruktiv tarzda hal qilish yo‘llarini o‘rgatish. Bu esa, ularning ijtimoiy aloqalarda yuzaga keladigan muammolarni samarali hal qilishlariga yordam beradi.

J.Dyuining qarashlari ta’limda hamkorlik, ijtimoiy o‘zaro ta’sir va amaliy faoliyatlarni

o‘z ichiga olgan samarali ta’lim metodikasini taqdim etadi. Uning g‘oyalari zamonaviy ta’limda o‘quvchilarni faol, mustaqil va demokratik shaxs sifatida shakllantirishga katta hissa qo‘shmoqda. Dyuining ta’lim tamoyillari orqali yaratilgan muhit o‘quvchilarning puxta bilim olishlarini hamda kelajakda muvaffaqiyatli hayot kechirishlari uchun keng imkoniyat yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, J.Dyui, L.Vigotskiy va J. Surowiecki kabi olimlarning har biri ta’lim va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishda turli qarashlarni taqdim etgan bo‘lsa-da, umumiy nuqtayi nazardan, hammasi kollaboratsiyaning inson rivojlanishidagi va jamoaviy ishning samaradorligidagi muhimligini ta’kidlaydi. Ularning g‘oyalari bugungi kunda ham ta’lim va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishda dolzarb hisoblanadi. Tahlillardan shuni ko‘rish mumkinki, yuqorida ilmiy g‘oyalari o‘rganilgan olimlarning qarashlari bir-birini to‘ldirgan holda zamonaviy ta’lim va ijtimoiy hamkorlikning muhim tamoyillarini shakllantirishga yordam beradi. Demak, kolloborativ yondashuv jamiyat taraqqiyotidagi barcha sohalarda inson kapitalining rivojlanishi uchun muhim asos bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Daniels, H. (2001). Vygotsky and Pedagogy. Routledge.

2. Biesta, G. (2006). Beyond Learning: Democratic Education for a Human Future. Paradigm Publishers.

3. Lorenz, J., Rauhut, H., Schweitzer, F., & Helbing, D. (2011). How Social Influence Can Undermine the Wisdom of Crowd Effect. Proceedings of the National Academy of Sciences.

4. Гарифзянова А. Р. (2004) Своеобразие сущности человека в культурно-историческом пространстве. Автореферат диссертации по философии. Елабуга.

M.S. OTAJONOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ADABIYOTLARDA ALTRUIZMNING MOHIYATI VA MAZMUNINI NAZARIY TAHLIL QILISH

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarning altruistik kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy va uslubiy asoslarini kompetensiyaga asoslangan, faoliyatga asoslangan yondashuvlarni sintez qilish va o‘quvchilarning altruistik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmunli va tarkibiy modelini ishlab chiqish orqali aniqlash zarurati bilan bog‘liqligi ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Altruizm, kompitensiya, pedagogik altruizm, alltruizmning kelib chiqishi, fidokorlik, jo‘mardlik.

В статье раскрывается необходимость определения научно-методических основ формирования альтруистической компетентности студентов путем синтеза компетентностного, деятельностного подходов и разработки содержательной и структурной модели развития альтруистической компетентности студентов

Ключевые слова. Альтруизм, компетентность, педагогический альтруизм, происхождение альтруизма, самоотверженность, щедрость

The article reveals the need to determine the scientific and methodological foundations of the formation of altruistic competence of students by synthesizing competence-based, activity-based approaches and developing a meaningful and structural model of the development of altruistic competence of students.

Key words. Altruism, competence, pedagogical altruism, origin of altruism, dedication, generosity

Bugun jahon hamjamiyati oldida har bir millatning taraqqiyoti uchun yangi paradigma, millatning yangi sifatini shakllantirish vazifasi turibdi. Ushbu vazifani ta'lim-tarbiyada sifatli natija olishga qaratilgan loyihalar orqali hal qilish mumkin bo‘ladi. Oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'limni rivojlantirishning maqsadlaridan biri umumiy mafkuraviy va qadriyatli yondashuvlarga asoslangan to‘limning barcha darajalarida to‘lim va tarbiya tizimini yaratishdir. Shu bilan birga, axloqiy va estetik tarkib o‘quv dasturining eng xilma-xil qismlariga kirib borishi kerak, chunki axloqiy tarbiya o‘quvchilarni shakllantirishning eng muhim elementlaridan biridir. Shaxsning umumiy axloqiy madaniyati asosida kasbiy etika – o‘quvchilarning altruistik tayyorgarligi shakllanishi kerak. O‘quvchilarimizning har tomonlama yetuk mo‘naviyatli, malakali, yuqori darajada kasb ko‘nikmasiga ega kadr bo‘lib yetishishida, avvalambor, altruistik kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Madaniyati yuqori, professional tayyorgarlik va insoniy prinsiplarga ega o‘quvchilar shubhasiz vatan va xalq oldida o‘zining chinakam vazifasini og‘ishmay mas’uliyat bilan bajara oladi. Ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish debochasi esa avvalo oila, so‘ngra to‘limdir.

Ushbu mavzuning O‘zbekiston va xorijda o‘rganilganlik darajasi sezilarli darajada farq qiladi. O‘quvchilarni altruistik tayyorlash zarurligini asoslash MDH davlatlari olimlaridan: Berberova L.B, Xaraeva J.T.A, Gidlevskiy A.V, Zdrikovskaya T.A, Zotov R.A, Lavericheva I.G, Pravotorov G.V, Gidlevskiy A. V, Zdrikovskaya T. A, Zotov R. A, K. A Abulxanova-Slavskaya, V. A Pechenev, D. S Shimanovskiy, A.V.Zosimovskiy, E.V.Subbotskiy tadqiqotlarida o‘quvchi, uning shakllanishining turli bosqichlarida uning

qadriyat yo‘nalishlari, e’tiqodlari, tamoyillarini shakllantirishning psixologik, pedagogik va madaniy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu mavzu xorijiy olimlar O Kont, A Smit, J. J. Russo, K Gilligan, N Nodding, V. A Pechenev, L Kolberg, M May, J. Piaget, X Hartshorn, Pekman, G.N Avxach, M.T Burke-Beltran, R.G Alresyan, S.A Amonashvili, V.S Muxina, D.I Feldshteyn, S.G Yakobson, D Solomon, M.S Uotson, K.L Deluci, E. Schaps, V. Battisch (1988); E. M Ginnis, A.P Goldstein (1997); V. Battistic, A.S Bryk, B.H Schneider (2003); P.A.T Grinberg, M.T. (2009-yil); G. Dunlap, R. Iovannone, D. Kincaid, K. Wilson, K. Christiansen, P. Strain, S. English (2010); K.A. Shonert-Reichl (2017); H. Shin, A.M. Rayan, E. Shimoliy (2019); U. Kuswendi (2019)) tomonidan pedagogik faoliyatning ijtimoiy yo‘nalishi va mazmuni, ijtimoiy va hissiy kompetensiya o‘qituvchi, uning yordamga bo‘lgan munosabati va “ustoz-shogird” qo‘llab-quvvatlash jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan biroq o‘qituvchilarni axloqiy va altruistik tayyorlash masalalari O‘zbekistonda ham, chet ellarda ham psixologik-pedagogik tadqiqotlarda hali to‘g‘ri yoritilmagan va kam o‘rganilgan. Shu bilan birga, o‘quvchilarning altruistik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish zarurati O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining umumiy madaniy va maxsus tayyorgarligi darajasiga talabalarning ortib borishi; qat’iy shakllangan universal va kasbiy axloqiy qadriyatlarga ega o‘quvchilarni tayyorlash zarurati bilan bog‘liq.

Altruizm kasbiy etikaning amaliy, me’yoriy qismidir. Bu atama altruizm (lot, alter - o‘zga) – ma‘naviy xokisorlik, fidoiylik va insonparvarlikni ifodalaydigan tushuncha. Uni birinchi bo‘lib XIX asrda fransuz faylasufi O. Kont muomalaga kiritgan. Lekin bu ma‘naviy tamoyil Sharqda jo‘mardlik nomi bilan ancha avval vujudga kelgan. O‘rta asrlarda musulmon Sharqida jo‘mardlik, insonparvarlik va vatanparvarlikni targ‘ib etuvchi tasavvuf tariqatlaridan biri sifatida o‘z falsafiy asosiga ega bo‘lgan, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asarida bu tushunchaga to‘rif berilgan. Altruizm kishidagi o‘z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg‘usidan kelib chiqadi. Mohiyatan beminnat homiylik, xayriya yoki ko‘makka asoslanadi. O‘z manfaatidan o‘zga manfaatini ustun qo‘yib yashash jo‘mard insonning hayot tarziga aylanadi. Bu oddiy xayriya yoki yordam emas, balki muhtojlikning har qanday ko‘rinishiga qarshi o‘ziga xos kurashdir. Altruizm xudbinlikning ziddi sifatida ashaddiy pragmatizm g‘oyasiga qarshi kurashda, mo‘naviy muhitni sog‘lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvat- nomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asarida bu tushunchaga to‘rif berilgan. Pahlavon Mahmud milliy tariximizda altruizmning haqiqiy timsoli deb e’tirof etilgan. Ancha oldin, altruizm axloqiy tamoyil sifatida tushunilgan va mavjud edi. Shunday qilib, Suqrot shaxsning xudbinligini qoplaydigan axloq qonunining asosi “olish emas, balki berish“ va boshqalarning foydasiga xizmat qilish istagi insonda kuchliroq, deb hisoblardi.

Altruistik harakatlarni jadidlar faoliyatida ham ko‘rish mumkin. Jadidlar ta‘lim fidokorlaridir. Ulardan Abdulla Avloniy birinchi bo‘lib kimyo, geografiya, fizika va astronomiya fanlarini maktabda o‘qitish taklifini beradi. Ilg‘or g‘oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi: 1909-yilda “Jamiyati xayriya” tuzib, yetim bolalarni o‘qitgan, Fayzulla Xo‘jayev talabalarni xorijga jo‘natib o‘qitishning tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan va o‘z hisobidan juda ko‘p shogirdlarini xorijda o‘qitgan, jadidlarninig mo‘rifiy sohadagi ikkinchi vazifasi xayriya va maorif jamiyatlarini tuzish edi. Bu borada “Turon”, “Jamiyati xayriya”, “Tarbiyai atfol” kabi jamiyatlar ochildi. 1909-yil 12-mayda Toshkentda tuzilgan Turkiston jadidlarining “Jamiyati xayriya” tashkiloti mahalliy yoshlarni chet ellarga o‘qitish, homiylik qilish ishiga rahbarlik qildi. Uning yordami bilan yoshlar Rossiyaning

Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlaridagi oliy maktab va madrasalarga, shuningdek, Istanbul, Qohira kabi xorijiy shaharlar oliy ta'lim muassasalariga o‘qishga yuborila boshlandilar. Lekin ko‘proq darajada bu tushuncha an’anaviy ravishda tibbiyot, madaniyat, psixologiya va dinda rivojlangan.

“Altruizm” tushunchasi inson kasbiy faoliyatning har qanday sohasida qo‘llaniladi: tibbiy, harbiy, pedagogik, psixologik, madaniyat, din, falsafa, huquqiy, boshqaruv va boshqalar. Zamonaviy mutaxassisning kasbiy faoliyatining altruistik xususiyatlarini zamonaviy tushunish falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy nazariyalar tomonidan turli yo‘llar bilan talqin qilinadigan jahon altruizmining fundamental muammolarini ob’ektiv va har tomonlama ko‘rib chiqish va tushunishga asoslangan.

Harbiy altruizmga Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, To‘maris jasoratlarini misol keltirish mumkin. Vatandoshlari va yurti uchun o‘z jonidan kechib insonlarni himoya qilish harbiy altruizmning yaqqol namunasidir. Harbiy sohada amalga oshirilayotgan harbiy altruizmning muhim yo‘nalishlaridan biri bu shaxsiy tarkibni vatanga muhabbat, iftixor, milliy g‘urur, munosib farzand bo‘lib yetishishga intilish, fidokorlik kabi xislatlarni shakllantirishdan iboratdir. Milliy armiyamiz saflarida harbiy xizmatni o‘tashga muyassar bo‘layotgan yoshlarimiz nafaqat harbiy soha sir-asrorlarini puxta o‘zlashtirishi, balki shu bilan birga ular ona Vatanini, xalqini himoya qilish, sarhadlar daxlsizligini to‘minlash muqaddas burch ekanligini anglagan holda, vatanparvar, mard, jasur insonlar bo‘lishlari zarur. Davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni to‘kidlaganidek: “shaxsiy tarkib mo‘naviy jihatdan zaif bo‘lsa, yo‘ni, askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas’uliyat bo‘lmasa yoki ularning o‘rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin” deganlari harbiylarimizga yanada mas’uliyat yuklaydi.

Ushbu uyg’un kombinatsiya bilan faqat ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar tanlanadi hamda refleksiv va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga turtki beradigan dialogik muloqot, shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirish zarurati paydo bo‘ladi, deb taxmin qilinadi. Shunga asoslanib, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibida biz motivatsion, ijodiy, aks ettiruvchi va kommunikativ komponentlarni aniqlandi.

O‘qituvchi kompetentsiyasining mezonlari, kompetentsiya komponentlari:

– Pedagogik faoliyat (tayyorlash darajasi, OUUNning shakllanish darajasi, innovatsion ish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, tadqiqot ishlari, ta’lim, malakalar, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini diagnostika qilish).

– Psixologik-pedagogik muloqot (psixologik-pedagogik muloqot: qiziqish, motivatsiya, ongli ta’lim, aloqalar: o‘qituvchi talaba, talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda)

– O‘qituvchining shaxsiyati (emotsionallik, nutqning ifodaliligi, shaxsning ijodkorligi, tashkiliy qobiliyatlari, hazil tuyg’usi, qat’iyatlilik, intizomlilik).

Zamonaviy pedagogika maktabining bitiruvchisi jamiyatga muvaffaqiyatli integratsi-

yalashishi va unga moslashishi uchun zarur bo‘lgan, amaliyotga yo‘naltirilgan bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Zamonaviy maktab stereotiplarida o‘ylamaydigan, lekin taklif qilingan muammolarni hal qilishning yangi usullarini izlashni va muammoli vaziyatdan chiqish yo‘lini qanday topishni biladigan malakali o‘qituvchilar kerak. Ushbu muammoni hal qilish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarning klassik shakllanishidan voz kechish va kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish mafkurasiga o‘tish kerak. Ta’limning yangi natijalariga (birinchi navbatda, ta’lim va kasbiy mustaqillik; muammolarini hal qilish, qaror qabul qilish kompetensiyasi, mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqalar) bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Binobarin, xalq pedagogikasi vujudga kelgan paytdan boshlab, eng avvalo, o‘qituvchining yosh avlodni tarbiyalash, ularni kelajak faoliyati sohasiga tayyorlashdagi kasbiy-psixologik malakasini, tajribasini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ular hayotining asosini tashkil etadi. Shunisi e’tiborga loyiqki, o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning asosiy vazifalari har doim va barcha odamlar orasida umuminsoniy xususiyatga ega bo‘lgan va mavjuddir. Chunki xalq ta’limidagi sifat siljishi bevosita o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining rivojlanish darajasiga (o‘qituvchining kasbiy-psixologik tayyorgarligiga) bog‘liq. Yosh avlod tarbiyasida o‘qituvchining kompetentsiyasi (shaxsiy) fazilatlari qanchalik muhimligini ko‘rsatadigan ko‘rsatkich kattalarning o‘z ustozlarini eslab, odatda o‘qitish usullarini, o‘z fanini chuqur bilish xususiyatlarini va o‘z fanining tabiatini nomlashi mumkin. O‘qituvchining talabalarga munosabati – bu o‘qituvchining pedagogik kompetentsiyasining xususiyatlari va uning munosabati o‘quvchilarda umrbod muhrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayidahmyedov N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003-yil.

2. Sayidaxmyedov N.Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. -T.: RTM. 2000-yil.

3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – T.: TDPU, 2003-yil.

4. Farbyerman B. Ilg’or pedagogik texnologiyalar. ‘‘Fan’’ nashriyoti 2000-yil.

5. Tolipov O‘.Q., Barakayev M., SHaripov SH.S. Kasbiy pedagogika. – T.: TDIU, 2001-yil.

Dildora ZIKIROVA,
Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BOLAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari yoritilib bugungi kunda ta’limning zamonaviy texnologiyalar jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning raqamli kompetentsiyasi mazmuni bayon etilgan. Kasbiy kompetensiya, kompetentlik va shu bilan birgalikda kasbiy kompetensiya atamalari yuzasidan izlanish olib borgan olimlarning fikr-mulohazalari o‘rganilib, qarashlaridagi umumiylik hamda bir-biriga zid jihatlari tahlil qilingan shuningdek, kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga doir bir qancha masalalar nazariy jihatdan o‘z ifodasini topgan.

Tayanch so‘zlar. Raqamli texnologiya, raqamli muhit,kompetensiya, kasbiy kompetensiya, kasbiy faoliyat, ijtimoiy kompetensiya, texnologik kompetensiya, xalqaro ilg‘or tajribalar.

В данной статье освещены теоретические основы развития профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов в цифровой образовательной среде, а также описано содержание цифровой компетентности будущих учителей начальных классов в процессе современных образовательных технологий. Изучены мнения ученых, проводивших исследования о терминах профессиональной компетентности, компетентности и профессиональной компетентности вместе с этим, проанализированы общие и противоречивые стороны их взглядов. Теоретически сформулирован ряд вопросов, связанных с развитием профессиональной компетентности.

Ключевые слова. Цифровые технологии, цифровая среда, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональная деятельность, социальная компетентность, технологическая компетентность, лучшие международные практики.

In this article, the theoretical foundations of the development of professional competences of future primary school teachers in the digital educational environment are highlighted, and the content of digital competence of future primary school teachers in the process of modern educational technologies is described today. The opinions of scientists who have conducted research on the terms of professional competence, competence and professional competence together with this have been studied, the commonalities and contradictory aspects of their views have been analyzed. Several issues related to the development of professional competence have been theoretically expressed.

Key words. Digital technology, digital environment, competence, professional competence, professional activity, social competence, technological competence, international best practices.

Zamonaviy ta’lim jarayonining innovatsion rivojlanishida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining shakllanib rivojlanishida raqamli ta‘lim muhiti muhim ro‘l o‘ynaydi. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini belgilab beruvchi eng asosiy tamoyillardan biri hisoblangan kasbga oid ko‘nikmalarni yuksak darajada egallashi, ularda pedagogik jarayonni yuqori saviyada olib borishini ta’minlaydigan sifatlarni shakllantirish bo‘yicha tizimli ravishda ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘qituvchilar ishini yengillashtirish va ularning salohiyatidan oqilona foydalanish uchun kelgusi yilda ta’limni raqamlashtirish ishlarini yakunlab, “Onlayn maktab”,

“Raqamli va xavfsiz maktab”, “Elektron darslik”, “Elektron kundalik” kabi tizimlar joriy etiladi.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta‘lim muhitinining barcha sohalarini qamrab oldi. Shu bilan birga raqamli texnologiyalar davlat va jamiyat boshqaruvini ijtimoiy sohada va ta’lim sohasdida juda ko‘p qulayliklar va yengilliklarlar yaratdi.

Mamlakatimizda “o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasi” atamasini o‘rganish va undan foydalanish XX asrning 80-90-yillariga to‘g‘ri keladi. Ushbu davrda mahalliy olimlarimiz ushbu ta’lim hodisasi va turli xil kompetentsiya tarkibiy qismlarini chuqur kontseptsiyalashga qaratilgan istiqbolli urinishlarni amalga oshirdilar. Zamonaviy o‘qituvchi o‘zining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo‘llay olishi – kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir.

Pedagog o‘z ixtisosligi bo‘yicha ta’lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas’uldir. U muntazam ravishda o‘z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o‘qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo‘lishi, aniqrog‘i, kasbiy kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. Endilikda o‘qituvchi uchun o‘zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta’lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o‘z faoliyatida qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. “Kompetensiya” tushunchasini izohlar ekanmiz, bu atamaning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratamiz.

Kompetensiya lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma’nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi.Shu bilan birga o`z kasbimga munosib va loyiq bo‘laman degan ma’nolarda ham qo‘llasak bo‘ladi. O‘z kasbiga munosib bo‘lish uchun nazariy va amaliy bilimlarni egallashi va tajriba hosil qilishi va kasbiy kompetinsiyalarni o‘zida mujassamlashtirishi kerak. Ko‘p hollarda “kasbiy kompetenlik” atamasi qo‘llaniladi. Bu so‘zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati va ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribani o‘rganib, raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish va samarali tajribaga ega bo‘lish deb tushunsa bo‘ladi. Insonda professionalizmni tashkil etuvchi unsurlardan biri kompetensiya hisoblanadi.

Hozirgi paytda oliy pedagogik maktabning asosiy vazifasi, biz yuqorida tilga olib o‘tgandek raqobatbardosh, kompetentli o‘qituvchilar tayyorlashdan iboratdir. Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan oliy ta’lim maktablarida ishlay oladigan, o‘z kasbiy vazifalarini mustaqil va ijodiy yecha oladigan o‘qituvchilarga bizning mamlakatimizda ham talab kuchayib bormoqda. Pedagogik kasbiy kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv masalasida butun dunyo olim va mutaxassislari o‘rtasida ilmiy munozara,bahslar va ilmiy izlanishlar olib borib tadqiqotlarni amalga oshiryaptilar.

“Kompetentlik bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o‘z bilimlarini uzluksiz ravishda yangilab borishi hamdir, – deydi M.A.Choshanov.

M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassisning ma’lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi.

Noaniq vaziyatlarda faoliyat ko‘rsata olish qobiliyati bu kompetentlikdir– deydi O.Ye.Lebedev.

V.A.Bolotov va V.V.Serikovlarning fikriga ko‘ra, kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv talabaning bilimdonligini emas, balki muammolarni hal qila olish qobiliyatini

ko‘rsatadi va eng birinchi darajadagi zarur qobiliyat deb baholaydi.

V.Slastenin, I.Isaev va boshqalar tomonidan yozilgan “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasining 3-bobi “Pedagogning kasbiy kompetensiyasi”ga bag‘ishlanib, bu tushuncha va mahorati haqida fikrlar beradi. Mualliflarning ta’kidlashicha, pedagogika kompetensiya tizimi, amaliy va nazariy tayyorgarligi, pedagogning kasbiy kompetensiyasi kasbi boshqaruvchi va shakllantiruvchi xususiyatga ega. Shaxs shakllanishini boshqarish kompetentlikni talab qiladi. Bu o‘zida o‘qituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligini jamlagan holda uning kasbiy mahoratini namoyish qiladi. U yoki bu kasb yo‘nalishi bo‘yicha o‘qituvchining malakaviy tasnifi pedagog kompetensiyasi modeli me’yorlari bilan o‘lchanadi, deb yozadilar.

A.V.Xutorskiy “kompetnsiya” va “kompetentlik” tushunchalarini quyidagicha ajratib olish mumkin deb hisoblaydi. Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatlari, uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma’lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgizishidir. Kompetenlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig‘indisiga ega bo‘lishi demakdir.

A.Avloniy nomidagi O‘qituvchilar malakasini oshirish instituti pedagog olimasi L.T.Xurvalieva: “Kompetensiya – bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo‘lishi yoki ta’sir ko‘rsatish qobiliyati”, – deb ta’riflab quyidagi guruhlarga ajratadi

Kasbiy kompetensiya:

– pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish;

– o‘z ustida ishlash;

– ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish;

– talabalar ehtiyojini anglay olishi;

– talabalarda motivatsiyani shakllantirish;

– ta’lim muhitiga yangilik kiritishi;

– o‘z fanini mukammal bilishi;

– ingliz tilini yaxshi bilishi kabi kasbiy kompitensiyasini izohlab berganlar.

A.V.Xutorskiy ta’limda o‘qituvchining yetti kompetensiyasini tavsiflaydi:

1.Dunyoqarash asnosida, ya’ni qadriyat va o‘zini anglash-o‘qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ko‘ra oladi va tushunadi bunga o‘zini yo‘naltiradi, pedagog sifatida o‘z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya - o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘z-o‘zini anglash mexanizmini ta’minlaydi.

2. Umummadaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlarga hurmat; ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Ilm-fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini anglay olishi va talabalarga tushuntira olishi.

3. O‘quv va bilish jarayoni - o‘qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O‘quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko‘nikmasini tahlil qila olishi.

4. Ma’lumotga ega bo‘lish - pedagogik faoliyati, o‘z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko‘nikmasi.

5. Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

6. Ijtimoiy - foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas’uliyat, jamiyat rivojidagi

ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

7. O‘z ustida ishlashi - jismoniy, ma’naviy, intellektual jihatdan o‘z-o‘zini rivojlantirib borishi. Hissiyotini boshqarish kabi kasbiy kompetensiyasini ta’riflab berganlar.

O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasi masalasida T.L.Xurvalieva olib borgan ilmiy izlanishlar diqqatga sazovordir.

O‘qituvchining kompetensiya modelini quyidagicha tasniflaydilar:

1. Pedagog faoliyatining maqsadi va mazmuni.
2. Kasbiy sifatlar.
3. Pedagogik qobiliyat, metod va texnologiyalar.
4. Kasbiy motivatsiya kabi kasbiy kompetensiya modelini keltirib berganlar.

Zamonaviy o‘qituvchining asosiy kompetensiyasi:

1. O‘z “ta’limiy kamchiliklari” ni mustaqil tuzatib, talabalar bilan birga o‘qishni bilish.
2. Talabalarni mustaqil faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishni bilish.
3. O‘quv jarayonini sahnalashtirish bunda turli xil faoliyat usullaridan foydalanish, ularga talabalarning moyilligi va qiziqishiga qarab ishlarni taqsimlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish.
4. Tadqiqotchilik tafakkuriga, talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmasini tashkil etishni bilishi kerak.
5. Talabalarni yutuq va rivojlanishlarini baholash tizimidan foydalanish.
6. O‘quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni bilish.
7. Dars jarayonida suhbat va bahs-munozara olib borish, talabalar o‘zlari xohlab aytmoqchi bo‘lgan fikr, qarash va munosabatlarini bayon eta olishlariga yo‘naltirilgan muhit yaratish. Nafaqat talabalar bir-birlari bilan, balki o‘qituvchi bilan ham shaxsiy qarash va munosabat, tanqidlarni tahlil qilishlari kerak.

Yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, kompetensiya, ayniqsa, kasbiy kompetensiya shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnini belgilar ekan, jamiyat ham yuqori malakali kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashdan manfaatdor bo‘ladi. Har bir pedagog o‘zining kasbiy kompetensiyasini standartlar asosida shakllantirishi kerak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’limda pedagogning kasbiy kompetensiyaning shakllanishi ta’lim sifatini oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o‘qituvchining jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi o‘zida kasbiy faoliyatga doir kompetensiyalarni, ko‘nikma va malakalarni qay darajada shakllantirishi hamda rivojlantirib borishi raqamli muhit bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi jadal rivojlanib borayotgan ijtimoiy hayotda o‘zining kasbiy faoliyati, pedagogik mahorati bilan nom qozonishni istagan har qanday jonkuyar pedagog tinimsiz izlanish, o‘rganishni amalga oshirgan holda raqamli muhit jarayonni tashkil qilishi kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. 30.09.2020

2. Shavkat Mirziyoyev raisligida ta’lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish va ta’lim sifatini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor 30.10.2020 y.

3. D.X.Aslanova, F.F.Salomov, Y.M.Halikov. “Kasbiy kompetentlik”. O`quv qo`llanma. Samarqand: Iqtisodiyot, 2020 yil, 86 bet.

4. M.T.Axmedova Pedagogik konpetentlik (uslubiy qo‘llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.

Dilafruz MIRAXMEDOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti,"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKASIYA QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IMPROVIZATSIYA METODLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda improvizatsiya usullaridan foydalanish samaradorligini o'rganadi. Ish aloqa ko'nikmalarini o'rgatishning zamonaviy yondashuvlarini va bu jarayonda improvizatsiyaning rolini tahlil qilishga asoslangan. Muallif pedagogika universitetlari talabalari o'rtasida kuzatuv va so'rov o'tkazish usullaridan foydalangan holda o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalarini taqdim etadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, improvizatsiya usullari kelajakdagi o'qituvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini, o'z-o'zidan fikr bildirishini, shuningdek, empatiya ko'nikmalarini va talabalar bilan samarali muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni optimallashtirish uchun o'quv jarayoniga improvizatsiya usullarini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar muhokama qilinadi.

Tayanch so'zlar. Improvizatsiya, aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish, kelajakdagi o'qituvchilar, o'quv jarayoni, o'qitish usullari, ijodkorlik, aloqa samaradorligi, kasbiy tayyorgarlik, o'qitish amaliyoti, interaktiv o'qitish usullari, guruh dinamikasi

В данной статье рассматривается эффективность использования методов импровизации в развитии коммуникативных навыков у будущих учителей. Работа основана на анализе современных подходов к обучению коммуникативным навыкам и роли импровизации в этом процессе. Автор представляет результаты эмпирического исследования, проведенного среди студентов педагогических вузов методами наблюдения и опроса. Результаты показывают, что методы импровизации помогают развивать у будущих учителей уверенность в себе, саморефлексию, а также навыки эмпатии и эффективного общения с учениками. В заключение в статье рассматриваются практические рекомендации по внедрению методов импровизации в учебный процесс с целью оптимизации подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности.

Ключевые слова. Импровизация, развитие коммуникативных навыков, будущие учителя, процесс обучения, методы обучения, креативность, эффективность общения, профессиональная подготовка, педагогическая практика, интерактивные методы обучения, групповая динамика.

This article examines the effectiveness of using improvisation methods in developing communication skills in future teachers. The work is based on the analysis of modern approaches to teaching communication skills and the role of improvisation in this process. The author presents the results of an empirical study conducted among students of pedagogical universities using observation and survey methods. The results show that improvisation techniques help to develop future teachers' self-confidence, self-reflection, as well as empathic skills and effective communication with students. In conclusion, the article discusses practical recommendations for introducing improvisation methods into the educational process in order to optimize the preparation of future teachers for professional activities.

Key words. Improvisation, development of communication skills, future teachers, learning process, teaching methods, creativity, communication effectiveness, professional training, teaching practice, interactive teaching methods, group dynamics.

Zamonaviy ta’limda ta’lim bilimlarni uzatish bilan cheklanmaydi. Muvaffaqiyatli o‘qituvchi talabalarni jalb qilish va ilhomlantirish qobiliyatiga ega bo‘lgan yuqori darajadagi muloqot qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Improvizatsiya usullari kelajakdagi o‘qituvchilar orasida bunday ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun samarali vositaga aylanmoqda. Ta’lim kontekstida improvizatsiya nafaqat kutilmagan vaziyatlarga tezda javob berish qobiliyati, balki ta’lim maqsadlariga erishish uchun o‘z bilim va ko‘nikmalarini ijodiy qo‘llash qobiliyatidir. Bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat o‘z mavzularini bilishlari, balki talabalar, hamkasblar va ota-onalar bilan samarali munosabatda bo‘lishlari kerak.Improvizatsiya metodlari kelajakdagi o‘qituvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi birinchi qadam bu ularga ega bo‘lish muhimligini anglashdir. Improvizatsion usullar kelajakdagi o‘qituvchilarga ushbu ongni amalda qo‘llashga imkon beradi. Ular turli vaziyatlarda moslashuvchan va o‘ziga ishonishni o‘rganadilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilar talaba, ota-ona yoki hatto ma’mur rolini sinab ko‘rishlari mumkin. Bu ularga o‘quv jarayonining turli tomonlarining ehtiyojlari va umidlarini yaxshiroq tushunishga, shuningdek, o‘z muloqotlarini ma’lum bir suhbatdoshga moslashtirishni o‘rganishga yordam beradi.Yana bir samarali usul-bu improvizatsiya orqali empatiyani o‘rgatish. O‘qituvchilar turli xil ehtiyojlar va hayotiy vaziyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning rollarini o‘z zimmalariga olishlari mumkin, bu ularning his-tuyg’ulari yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu o‘qituvchi va talaba o‘rtasida yanada yaqin aloqani yaratadi, bu esa samarali aloqa va umuman o‘quv jarayoniga yordam beradi.

Shuningdek, improvizatsion o‘qitish usullari faol tinglash ko‘nikmalarini va ochiq savollar berish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. O‘qituvchilar ma’lumotni diqqat bilan idrok etishni va dialogda faol ishtirok etishni talab qiladigan o‘yinlar va mashqlardan foydalanishlari mumkin. Vanihoyat, ijodiy fikrlashni rivojlantirish o‘yinlari va nostandart yechimlarni tezda topish qobiliyati kelajakdagi o‘qituvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.Ular tezkor fikrlashga, standart ssenariylardan tashqariga chiqishga va o‘rganish va o‘zaro munosabatlarga innovatsion yondashuvlarni topishga o‘rgatadilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishning improvizatsiya usullari ularning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismidir. Ular har bir o‘quvchining muvaffaqiyatli o‘rganishi va rivojlanishi uchun asos bo‘lgan sinfda ishonch va o‘zaro tushunish muhitini yaratishga yordam beradi. Muloqot qobiliyatlari har qanday o‘qituvchining muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu ko‘nikmalar nafaqat bilimlarni samarali etkazishga yordam beradi, balki sinfda qo‘llab-quvvatlovchi va ilhomlantiruvchi muhit yaratadi. Improvizatsion usullar kelajakdagi o‘qituvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tobora ommalashib borayotgan vositaga aylanmoqda. Ushbu maqolada ushbu maqsadga erishish uchun qanday usullardan foydalanish mumkinligini ko‘rib chiqing.

Birinchidan, improvizatsiya o‘qituvchilarga tezkor javob berish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilar ko‘pincha sinfda kutilmagan vaziyatlarga duch kelishadi, bu esa tez va yetarli javobni talab qiladi. Improvizatsiya mashqlari bunday reaksiyalarni mashq qilishga imkon beradi, bu esa yangi sharoitlarga tezda moslashish qobiliyatini yaxshilaydi.

Ikkinchidan, improvizatsiya empatiya va tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini hissiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi va barchaga yondashuvni topishi kerak. O‘zaro ta’sir va hissiyotlar almashinuviga asoslangan improvizatsiya

mashqlari o‘qituvchilarga empatiyani rivojlantirishga va o‘quvchilarining ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Uchinchi jihat – ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Improvizatsion usullar o‘qituvchilarni qutidan tashqarida o‘ylashga va muammolarga kutilmagan yechimlarni topishga undaydi. Bu, ayniqsa, har bir talaba noyob bo‘lgan va individual yondashuvni talab qiladigan ta’limda juda muhimdir.

Bundan tashqari, improvizatsiya o‘qituvchilarga notiqlik mahoratini oshirishga yordam beradi. Tinglovchilar oldida ifodali va ishonchli gapirish qobiliyati o‘qituvchi ishining muhim jihati hisoblanadi. Improvizatsion mashqlar omma oldida nutq so‘zlash va ovoz va tana bilan ishlashga imkon beradi. Vanihoyat, improvizatsiya o‘qituvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Ular improvizatsiyani qanchalik ko‘p mashq qilsalar, ular bu mahoratni shunchalik yaxshi o‘zlashtiradilar va sinfdagi kutilmagan vaziyatlardan kamroq qo‘rqishadi.Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qitishda improvizatsiya usullarini qo‘llash ularga nafaqat o‘z o‘quvchilari bilan samarali muloqot qilish, balki turli xil ta’lim vaziyatlariga muvaffaqiyatli javob berish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu ijodiy fikrlash, o‘z - o‘zidan paydo bo‘lish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, improvizatsiya usullari o‘qituvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Ular o‘qituvchilarga tezkor javob, hamdardlik, ijodiy fikrlash, notiqlik mahorati va o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantirishga yordam beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ushbu usullardan foydalanish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirishi va o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkatjonovna, Mirzoyeva Nigora. “boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.” fan, ta’lim va amaliyotning integrasiyasi (2022): 252-255.

2. Islomovich I. T. Academic profession and university in the context of modern institutional reforms //International Journal of Human Computing Studies. – 2021. – T.: 3. – №. 2. – C. 7-10.

3. Борисова, Елена Николаевна, and Валерий Александрович Гроховский. “Коллективная импровизация как коммуникация (на примере обучения джазовых пианистов в вузе).”Высшее образование сегодня 5 (2018): 41-46.

4. Галянт, Ирина Геннадьевна, and Е. В. Секерина. “Контактная импровизация в психолого-педагогической работе с детьми.” ББК 74.100 я43 А 43 (2017): 116.

5. Широкова, Алина Алексеевна, and Светлана Игнатьевна Горелова. “Планирование и импровизация при осуществлении кризисных коммуникаций.” Ответственные редакторы (2023): 756.

Sulishxan SAPARBAEVA,
NMPI, Pedagogika kafedrasi doktoranti

BOSHLANG‘ISH SINF O‘QUVCHILARINING INGLIZ TILINI TEZKOR O‘RGANISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rganishning ahamiyati ochib berilgan. Mamlakatimizda ingliz tilini o‘qitish uchun yaratilayotgan darsliklar, o‘quv dasturlari va ingliz tilini qanday qilib boshlang‘ish sinf o‘quvchilariga tez va samarali o‘rgatish usullari, til o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, o‘quv qo‘llanmalari, dasturlar, tezkor o‘rganish, ko‘nikmalar, amaliy, motivatsiya, interaktiv o‘qitish.

В статье раскрывается важность изучения английского языка для младших школьников. В учебниках, которые создаются для обучения английскому языку в нашей стране, даны рекомендации, как быстро и эффективно преподавать английский язык младшим школьникам, развивать навыки изучения языка.

Ключевые слова. Учащиеся начальных классов, учебные пособия, программы, быстрое обучение, навыки, практика, мотивация, интерактивное обучение.

The article reveals the importance of learning English to primary school students. In our country, textbooks created for teaching English, educational programs and methods for teaching English quickly and efficiently to beginner schoolchildren, recommendations for the development of language learning skills are given.

Key words. Elementary students, tutorials, programs, quick learning, skills, hands-on, motivation, interactive teaching.

Ingliz tili bugungi dunyoda global kommunikatsiya uchun muhim tillardan biridir. Dunyoning jadal rivojlanayotgan davlatlari orasida mamlakatimizda ham har yili ilm-fanning bir nechta yo‘nalishlari tanlab olinib, ularning samaradorligini oshirishda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ingliz tilini dunyoning aksariyat qismlarida so‘zlashadigan til sifatida ko‘rib, bugungi kunda bu tilni o‘rganishga bo‘lgan talab va ahamiyatni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog‘cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliz tili o‘rganishga harakat qilinmoqda. Ingliz tilini o‘rgatishda o‘rganuvchining bilim salohiyati va yosh xusuyatlaridan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o‘rgatib borish yaxshi natija beradi.Hozirgi kunda yurtimizdagi ta’lim sohasini tubdan chet tillariga tadbiq qilish maqsadida yaratilayotgan darsliklar, o‘quv dasturlari va qo‘llanmalar yoshlarimizning globallashgan til bo‘lgan ingliz tilini chuqur egallash maqsadlarning amaldagi isbotidir. Davlat ta’lim standarti asosida maktablarda 1-4 sinflarga haftasiga 2 soatdan chet tili fani o‘qitiladi. 2013-2020-yillarda boshlang‘ish sinflar uchun “Kids English” darsligi o‘qitilgan bo‘lsa, 2020-yildan boshlab ko‘plab viloyatlarda tajribadan o‘tkazilgan “Guess what” darsligiga almashtirildi. Bu darslikning afzalligi shundaki, 4 ko‘nikma va grammatikani o‘z ichiga olgan va o‘quvchilarning ingliz tilini tez o‘rganishiga zamin yaratadi.

Qaysidir chet tilini o‘rganish uchun avvalo o‘sha tilda muloqat qilish eng samarali usullardan biridir. Bolalar bu tilni bilmasdan ham yodlash orqali bir - birlari bilan muloqotga kirisha oladilar, sababi ular kattalarga solishtirganda eslab qolish qobiliyati ancha yuqori hisoblanadi. Shu sababdan ham pedagoglar o‘quvchilarga bir-biri bilan kommunikatsiya imkoniyatlarini yaratishi va o‘quvchilarga ingliz tilini amaliy ravishda ishlatish imkoniyatini berishi juda muhimdir. Darslarda o‘quvchilarni ingliz tilida gaplashish, savollar berish va javoblar olish jarayonida ingliz tilini qo‘llashni o‘rgatish samarli usullardandir. O‘quvchilar o‘zlariga hali tanish bo‘lmagan tilda gaplashishi qiyin, albatta. Buning uchun bolalarga til o‘rganish uchun kuchli so‘z boyligini yaratish juda muhimdir.O‘quvchilarni nutq va yozishda yangi so‘zlardan foydalanishga undash, so‘z o‘yinlari, kartochkalar va so‘zlarni biriktirish mashqlari kabi lug‘at boyligini oshirish mashg‘ulotlarini muntazam ravishda o‘tkazish orqali ularni ingliz tilida gaplashishga o‘rgatish mumkun. Grammatikani bilmasdan turib bolalar muloqot qila olishmaydi degan fikrlar tug‘iladi va buning uchun grammatikani alohida qoidalar orqali emas, balki mazmunli kontekstda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Maktab o‘quvchilari 2-sinfida ingliz tilidagi harflarni o‘rganadi va ushbu vaqtdan boshlab ularda o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning samarali til o‘rganishida katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning tilni bilish darajasiga mos keladigan yoshga mos o‘quv materiallari bilan darsni olib borish, muntazam o‘qish odatlarini rag‘batlantirish va yozma ifodani rivojlantirish uchun alohida e’tibor qaratish zarur.

Bundan tashqari o‘quvchilarni ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish bolalarni til o‘rganishga bo‘lgan bor imkoniyatlarini kengaytirib beradi. Bolalarni til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda faqatgina bir element bilan amalga oshirib bo‘lmaydi. Birinchi navbatdaa dars beradigan xonaning ahamiyati katta. Ingliz tili xonasini turli xil rang-barang ingliz tilida yozilgan plakat, rasmlar kabi ko‘plab ko‘rgazma qurollari bor atmosfera bolani o‘sha tilga bo‘lgan qiziquvchanligini orttiradi. Shu bilan bir qatorda o‘qituvchi darsni interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanishi boshlang‘ish sinflarning darsga bo‘lgan katta qiziqishlarini uyg‘otadi. Bu usuldan foydalanishda o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari, ro‘lli o‘yinlar, videolar, audio materiallar va internetdagi resurslardan foydalanish orqali motivatsiyasi oshiriladi va tilni o‘rganish jarayoni qiziqarli bo‘ladi.Bolalar bog‘chasidan endi maktab partasiga o‘tirishni o‘rganayotgan o‘quvchilar sinfida ingliz tilini tezda o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda e’tiborga olish kerak bo‘lgan ayrim masalalar ham mavjud. Xulosa o‘rnida aytish kerakki, tilni o‘rganish vaqt va izchil harakat talab qiladi. Ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini rag‘batlantirish, o‘quvchilarning yutuqlarini nishonlash va ularga ingliz tilidan haqiqiy vaziyatlarda foydalanish imkoniyatini berish orqali ularga ingliz tilini tez va samarali o‘rganish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berish mumkin. Bu tavsiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini tezkor o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязичному языку. – М. Просвещение, 1991

2. Xoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili O‘qitish metodikasi. – T.: 2003

3. Вятютнев М.Н. Обучение иностранному языку в начальной школе.

Malika MIRZAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

BOTANIKA FANLARINI O‘QITISHDA YANGI O‘QUV DASTURLARINING O‘RNI VA UNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya

Maqolada hozirgi botanika fanlarini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari, turlari, muammolari hamda yangi zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi, vazifalari, lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, botanika fanlarini oq‘itishda yangi o‘quv dasturlarining o‘rni hamda uning vazifalari batafsil ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Botanika fanlari, o‘qitish, zamonaviy texnologiyalar, samarali usullar, turlar, muammolar, lokal darajadagi pedagogik texnologiyalar, yangi o‘quv dasturlari.

В статье подробно описаны эффективные методы, виды, проблемы использования современных технологий в преподавании ботанических наук, а также применение и задачи новых современных технологий, использование педагогических технологий, роль новых образовательных технологий, программы по преподаванию ботанических наук и ее задачи.

Ключевые слова. Ботанические науки, преподавание, современные технологии, эффективные методы, виды, проблемы, локальные педагогические технологии, новые образовательные программы.

The article describes in detail effective methods, types, problems of using modern technologies in teaching botanical sciences, as well as the use and tasks of new modern technologies, the use of pedagogical technologies, the role of new educational technologies, programs for teaching botanical sciences and its tasks.

Key words. Botanical sciences, teaching, modern technologies, effective methods, types, problems, local pedagogical technologies, new educational programs.

Ayni paytda yurtimiz OTM va umumta’lim maskanlarida o‘quv jihozlar, multimedia texnologiyalari va elektron ta’lim resurslari mavjud.

Xo‘sh, bugungi avlod o‘quvchilariga biologiyani o‘qitishda muvaffaqiyatga erishish uchun nima qilishingiz mumkin? Biz amaliyotchi o‘qituvchi sifatida samarali o‘quv dasturlarni to‘pladik.

Eng avvalo, biologiyani jonli tarzda o‘qitish lozim. Faol o‘qitish usullari passiv usullari o‘rniga butunlay almashtirildi. Jonlilik, dinamika va tajriba zamonaviy biologiya o‘qituvchisining sodiq va eng yaxshi hamrohlaridir. Murakkab ilmiy tushuncha va qonuniyatlarni o‘zlashtirish uchun o‘quvchilar nafaqat ular haqida o‘qituvchidan eshitibgina qolmay, balki ularning e’tibor va tushunchalarini tezda sinab ko‘rishlari kerak.

Nazariy materiallar bilan taqdimot paytida va darhol keyin viktorinalar, qisqa so‘rovlar, krossvordlar talabalarga aql-zakovatini faollashtirish va darsga jalb qilish uchun imkon qadar ko‘proq imkoniyat beradi. Shuningdek, biz faol tinglashni rag‘batlantirish uchun ajoyib strategiyani tuzish dars sifatini oshiradi. Masala, yangi mavzu bo‘yicha materialni taqdim etayotganda, har 5-7 daqiqada to‘xtab, o‘quvchilardan ajratilgan materialning 3 asosiy nuqtasini ko‘rsatish va unga qoniqarli javob olgandan keyingina mavzuni davom ettirish samaralidir. Butun auditoriya uchun videolar, taqdimotlar va illyustratsiyalarni qulay va tez takrorlash uchun biologiya xonasini multimedia uskunalari - ish stoli kompyuteri yoki noutbuki bo‘lgan interfaol kompleks, proyeksiya ekranli proyektor yoki interaktiv panel bilan jihozlashingiz kerak.

Yangi o‘quv dasturlarning amaliy darslari uchun quyidagi yangi usullar tavsiya

qilinadi:

Biologiya darsida guruh vazifalarini tashkil qilish usuli

Talabalar biologik qonunlarni isbotlash va ko‘rsatish uchun bir guruh olimlar vakili bo‘lishadi. Bunday tadbirlar ilmiy nutq uslubini rivojlantirishning ham samaralidir.

Tengdosh tengdoshga usuli

Bunda o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, har bir guruhga mavzuning muayyan tomonini o‘rganishni topshiring. Keyin har bir guruh o‘rganganlari haqida butun sinfga hisobot berishlari so‘raladi. O‘quvchilar o‘z tengdoshlarini o‘qitishga qiziqish va mas’uliyat bilan yondashadilar.

Talabalar o‘rtasida qiziqarli guruh mashg‘ulotlari uchun darslik va internetdan tashqari qo‘shimcha o‘quv vositalari bilan ta’minlash kerak. Shuning uchun o‘qituvchilar ko‘pincha gerbariylar, kolleksiyalar, ilovalar modellari va boshqa turdagi ko‘rgazmali va laboratoriya jihozlari kabi tarqatma materiallarga murojaat qilishlari kerak.

Biologiyani kundalik hayot bilan bog‘lab o‘qitish usuli

Dars mavzusi ularning qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lmasa va hayotda amaliy ahamiyatiga ega bo‘lmasa, o‘quv jarayoniga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati bo‘lmasa, fanni o‘rganish maqsadini tushunmasa, talabalar o‘zlarini o‘rganishga ishtiyoqsiz his qiladilar.

Darslik doirasidan chiqib, talabalar e’tiborini biologiyaga (atrof-muhit, DNK, demografik o‘zgarishlar, tibbiyot, botanika, zoologiya va boshqalar) ta’sir etuvchi dolzarb ilmiy maqolalar va dolzarb voqealarga qaratib, ularni birgalikda tahlil qilishlariga ham e’tibor qaratish lozim.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash usuli

Talabalar hali o‘zlari xohlagan mutaxassislik bo‘yicha qaror qilmagan bo‘lishi mumkin, ammo ularga turli biologiya kasblariga darslarni moslashtirish orqali yordam berish mumkin.

Tabiiy diqqat bilan ekskursiyalarni tashkil qilish usuli

Barcha o‘qituvchilar o‘qitishda yuqori natijalarga faqat fanga chinakam qiziqish orqali erishilishiga ishonch hosil qilishadi. O‘lkashunoslik muzeyi, botanika bog‘i, fermer xo‘jaligi, ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi – bularning barchasi o‘quvchining biologiya va uning ahamiyati haqidagi tushunchalarini boyitish manbai; ular kognitiv qiziqish uyg‘otadi va ayni paytda uni qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu kasbiy faoliyatga harakatlarni rag‘batlantirish, olingan ma’lumotlarni mustaqil ravishda boshqarish, ijodiy “qutidan tashqari” tafakkurni shakllantirish qobiliyatining pedagogik muammolarini hal qilishni o‘z ichiga olgan sifat jihatidan yangi didaktik va o‘quv dasturlarini joriy etish imkonini beradi. Shuningdek, bolalarning tabiiy qobiliyatlarini maksimal darajada ochib berish, fan va amaliyotning eng yangi yutuqlaridan foydalanish orqali rivojlantirish innovatsiyalarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ta’lim sohasidagi innovatsion faoliyat insonning o‘zini-o‘zi axloqiy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga ega amaliyot sifatida jamiyatda mavjud bo‘lgan barcha turdagi amaliyotlarning o‘zgarishini ta’minlashi bilan muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. И.Найма. Развитие современных педагогических техноло- гий (организационно-деятельностный подход): Дис .канд. пед. наук. - Пя тигорск, 1993.-С. 97.

2. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. - М.: Народное образование, 1998. - С. 3 - 5.

Manzura KELDIYOROVA,
“Iqtisodiyot va pedagogika universiteti” nodavlat oily ta’lim muassasasi, “Pedagogika va o‘qitish metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

ONA TILI TA’LIMIGA DOIR ADAPTIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy ilmiy ma’lumotlarga muvofiq adaptiv ko‘nikmalarni shakllantirish muammosi, “Adaptiv ko‘nikma” tushunchasinin mohiyati, shu bilan birga adaptiv ko‘nikmalarni shakllatirishda o’qitish metodlari, dars shakllari, darsdan va sinfdan tashqari ishlar, to’garaklar, ekskursiyalar, o’quv xonalarini jihozlash, zamonaviy va ilg’or pedagogik texnologiyalar, xorij tajribalar batafsil ochib berilgan.

Tayach so‘zlar. Adaptiv ko‘nikma, til, moslashuv, uslub, individual, ta’lim, psixologiya, faoliyat.

В статье рассмотрены и подробно раскрыты проблемы формирования адаптационных навыков в соответствии с современной научной информацией, сущность понятия “Адаптивные навыки”, а также методы обучения по формированию адаптационных навыков, формы уроков, внеклассных занятий, кружков, экскурсий, оборудование кабинетов, современные и передовые педагогические технологии, зарубежный опыт.

Ключевые слова. Адаптивный навык, язык, адаптация, стиль, личность, образование, психология, деятельность.

The article examines and reveals in detail the problems of developing adaptive skills in accordance with modern scientific information, the essence of the concept “Adaptive skills”, as well as teaching methods for the formation of adaptive skills, forms of lessons, extracurricular activities, clubs, excursions, classroom equipment, modern and advanced pedagogical technologies, foreign experience.

Key words. Adaptive skill, language, adaptation, style, personality, education, psychology, activity.

Tadqiqotchilar, odatda, chet ellik talabaning moslashuvini universitetga (o‘quv jarayoniga) moslashish yoki universitetda o‘qishning butun jarayonini kelajakdagi kasbga moslashish deb hisoblashadi. Moslashuv jarayonining ko‘p o‘lchovliligi uni yana bir tomondan o‘zbek tili orqali va uni o‘rganish jarayonida amalga oshiriladigan, universitetda o‘zbek tilini o‘rganishning butun davriga, shu jumladan, o‘z-o‘zidan va uslubiy jihatdan amalga oshiriladigan lingvomadaniy moslashish jarayoni sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Adabiyotda “ijtimoiy muhit” atamasi qo‘llaniladi va quyidagi darajalarni ajratadi: mikro; makro; mega.

Moslashuv jarayoni shaxsning yangi yashash muhitiga optimal va faol qo‘shilishini tashkil etish orqali boshqarilishi kerak. Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, adaptiv tizim an’anaviy o‘qitish tizimiga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Umuman olganda, o‘qituvchi dars vaqtining ko‘p qismini talabalar bilan individual, mustaqil ishlashga ajratishini nazarda tutadi. Bu esa talabaga har qanday material ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini egallash imkonini beradi. Eslatib o‘tamiz, A.S. Granitskaya chiziqli bo‘lmagan dars dizaynini taklif qildi. Ya’ni, odatiy dars bir necha bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda hammaga o‘rgatish kiradi (bu bosqichda o‘qituvchiga yangi materialni tushuntirish uchun 5-7 daqiqa vaqt beriladi); Ikkinchi bosqich ikkita parallel jarayonni

o‘z ichiga oladi: talabalarning mustaqil ishi va o‘qituvchining talabalar bilan individual ishlashi. Buning uchun o‘qituvchi tabaqalashtirilgan individual vazifani qo‘yadi. U kartalardan foydalanadi, uni amalga oshirish xususiyatlarini sharhlaydi va bu vazifani bajarishni so‘raydi. Shu bilan birga, o‘qituvchi ushbu dars uchun bajarilgan individual topshiriqni tekshiradi.

Darsning tuzilishi shunday rejalashtirilgan bo‘lishi kerakki, u jonli, hissiy, ehtimol o‘yin shaklida o‘tadi, bu o‘quvchilarga vaqtincha muhim tadqiqotchi va kashfiyotchi sifatida his qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, u zerikkan va e’tiborsiz shaxslarda ham qiziqish uyg‘otadi. Darsda o‘qituvchi o‘zini do‘stona tutishi, qulay muhitda, har bir o‘quvchining shaxsiyatiga e’tibor qaratishi kerak. Qiziqarli, oson hazm bo‘ladigan darsni o‘tkazish uchun men o‘z amaliyotimda darslarni o‘tkazishning nostandart shakllaridan foydalanaman. Ularning asosiy maqsadi talabalarning o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishga qiziqishini rivojlantirishdir. Masalan, tashkil etishning o‘zgartirilgan usullari bilan darslar (dars-ma’ruza, dars-bilimni himoya qilish, g‘oyalarni himoya qilish); fantaziyaga asoslangan darslar (dars-ertak, dars-ijodkorlik); “Interaktiv plyus” ilmiy hamkorlik markazining standart tashkil etish usullarini o‘zgartirishni nazarda tutuvchi darslar (juftlashgan so‘rov, dars-test, baholash himoyasi, dars-konsultatsiya, dars-seminar, o‘quvchi formasini himoya qilish, teledars, televideniye, dars-bilimni jamoatchilik tomonidan tekshirish, dars-konsultatsiya, yakuniy suhbat, talabalar konferentsiyasi); o‘yinga asoslangan raqobat asosidagi darslar (dars-o‘yin, dars-estafeta o‘yin, duel, musobaqa) kabi turlarga bo‘linadi.

Tajribaning samaradorligini quyidagi faktlar orqali kuzatish mumkin:

1. Talabalarning bilim darajasi oshdi, buni o‘quv davrlari natijalari ham tasdiqlaydi.

2. Fanga kognitiv qiziqish ortdi, o‘quvchilarning bilimga qiziqishining namoyon bo‘lishi va ularning darsda va darsdan tashqari faol mustaqil ishlashga intilishi.

3. Amaliy va mustaqil ishlarni bajarish jarayonida badiiy adabiyot asarlaridan foydalanish chastotasi ortib, maktab o‘quvchilarining hissiy-axloqiy rivojlanishiga yordam beradi.

4. Maktab o‘quvchilari ijodiy loyiha va tadqiqot faoliyatida faol ishtirok eta boshladilar. Amaliy tadqiqot ishlarini tahlil qilish natijalari faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarning intellektual, ijodiy va shaxsiy rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, degan xulosaga kelishga imkon beradi.

5. Talabada yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashda o‘z qobiliyatlarini anglash, o‘z dunyoqarashini mustaqil va samarali ravishda kengaytirish qobiliyati mavjud. Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta’kidlaymizki, o‘rta ta’lim bosqichida moslashtirilgan ta’lim tizimiga o‘tish mustaqil, maqsadli, ijodiy shaxsni ta’lim va tarbiyalashni amalga oshirishning muhim va zarur shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. — М.: Гнозис, 2003.

2. Журавлева Н.А. Языковая среда как обучающий фактор и резерв повышения эффективности краткосрочного обучения русскому языку: Дисс. ... канд. пед. наук. — М., 1981.

3. Иванова М.А. Психологические аспекты адаптации иностранных студентов к высшей школе. — СПб.: Нестор, 2000.

Go‘zal ABDUKARIMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “O‘zbek tili va adabiyot”i yo‘nalishi talabasi

OT VA UNING LEKSIK-SEMANTIK, GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada tilshunoslikda ot so’z turkumi va uning leksik, grammatik xususiyatlari haqida ilmiy-nazariy asoslarga ega fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, tilshunoslikda otlarning uslubiy xususiyatlari haqida munozaralar bildirilgan.

Tayanch so‘zlar. Morfologiya, so‘z turkumlari, ot, leksik, semantik, grammatik xususiyatlar.

В статье изложены научно-теоретические мнения о группе существительных и ее лексических и грамматических особенностях в языкознании. Также, освещается результаты дискуссии в лингвистике о стилистических особенностях существительных.

Ключевые слова. Морфология, группы слов, существительное, лексические, семантические, грамматические особенности.

The article presents scientific and theoretical opinions about the group of nouns and its lexical and grammatical features in linguistics. Also, the results of the discussion in linguistics about the stylistic features of nouns are highlighted.

Key words. Morphology, groups of words, nouns, lexical, semantic, grammatical features.

Antik davrning buyuk olimi Aristotelning “Poetika” asarida morfologiyaga oid ilk namunalar kuzatiladi. Asarning “Til va fikr” (XIX fasl), “Nutq bo‘laklari” (XX fasl), “Otlarning turlari” (XXI fasl) kabi fasllari bevosita morfologiyaga oid qarashlarni o‘z ichiga oladi. Yana shuni ham qayd etishimiz lozimki, eramizdan oldingi 170-90-yillarda Aleksandr maktabi vakillaridan bo‘lmish Dionisiy Frankiyskiy qadimgi grek tili uchun 8 ta so‘z turkumini: ot, fe’l, sifatdosh, artikl, olmosh, ko‘makchi, ravish va bog‘lovchilarni ajratib tahlil qilgan. Olimning so‘z turkumlarini ajratish bo‘yicha qarashlari o‘zining aniqligi bilan ajralib turadi: “Ot turlanuvchi so‘z turkumi bo‘lib, tana yoki narsa va umumiy hamda xususiyning ifodasidir,Masalan:

umumiy- odam, xususiy – Sokrat.

Ot – mustaqil so‘z turkumlaridan biri. U boshqa so‘z turkumlaridan bir necha belgi-xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ot quyidagi xususiyatiga ko‘ra tasnif qilinadi:

1. Bir turdagi predmetdan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko‘ra;
2. Kim yoki nima so‘roqlariga javob bo‘lishiga ko‘ra;
3. Sanalish-sanalmasligiga ko‘ra.

Ot mustaqil so‘z turkumi sifatida quyidagi grammatik kategoriyalarga ega:

1. Ot yasalish xususiyatiga ega: gulchi, paxtakor, o‘tloq, qalamdon;
2. Ot sonlashish xususiyatiga ega: qalam- qalamlar, gul-gullar;
3. Ot o‘zining egalik ko‘rsatgichiga ega: maktabim, maktabing, maktabi; maktabimiz, maktabingiz, maktablari;
4. Kelishik formalari bilan o‘zgaradi: uyga, uyni, uyning, uyda, uydan.
5. Gapda barcha gap bo‘laklari vazifasida kela oladi.

Otlarni ma’no jihatdan turlicha tasnif qilish mumkin. Bunda ot turkumiga kirgan

so‘zlarning grammatik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi semantik belgilar asos qilib olinadi. Bir turdagi predmetlardan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko‘ra otlar ikkiga: atoqli va turdosh otlarga bo‘linadi.

Shavkat Rahmatullayev esa ot so‘z turkumi yuzasidan quyidagi fikrlarni bildiradi: “Sharq olamida, shu jumladan o‘zbeklarda borliq kishi va nokishi deb ikkiga ajratiladi. Shunga ko‘ra, nokishi tushunchasi ostiga jonsiz predmetlar bilan birga jonli predmetlar ham mansub deb tushuniladi. Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida ot leksemalarning kishini va nokishini anglatishiga ko‘ra tasniflanishi rus tilidagi jonli va jonsiz deb tasniflashdan farq qiladi”.

Otlarning leksik-semantik xususiyati:

Keng ma’noda predmet ma’nosini ifoda etish otning leksik xususiyatidir. Predmet ma’nosini tirik mavjudotlar (parranda, qush, chumoli kabilar), yer va osmonga, kundalik turmushga oid narsalarning nomi (quyosh, oy, tog‘, tosh, daryo, tuz, non, choynak, qoshiq kabilar), o‘simliklarning nomi (paxta, sholi, jo‘xori, beda kabi), voqea-hodisalarning nomi (to‘y, anjuman, majlis, shodlik, ishonch, kurash) o‘rin-vaqt nomlari (yoz, kuz, pastlik, tepalik), atab qo‘yilgan shaxs va predmetlarning nomi (Toshkent, Zulfiya, Sirdaryo, “O‘qituvchi” nashriyoti kabi) ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy adabiyotlarda ot so‘z turkumi, xususiyatlari haqida ko‘plab qarashlar, ma’lumotlar berilgan. Ot so‘z turkumi sifatida o‘ziga xos morfologik paradigmaga, yasalish tizimiga, xoslangan sintaktik pozitsiyasiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005. 260 b.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – T.: Universitet, 2006. 450 b.
3. Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R, Boqiyeva G.H. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. 414 b.
4. Umurqulov B.U. Hozirgi o‘zbek tili. – T.: 2012. 150 b.
5. O‘zbek tili grammatikasi, I tom. Morfologiya. – T.: Fan, 1975. 602 b

Iroda RO‘ZIBOYEVA,
QDU o‘qituvchisi

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDAN YANGI AVLOD O‘QUV-USLUBIY MAJMUALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada fanlaridan yangi avlod o‘quv-uslubiy majmualarini takomillashtirish muammolari batafsil tahlil qilingan, “Elektron darslik”, “Elektron nashr”, “O’quv dasturi”, “Elektron ta’lim vositasi”, “Kompyuter o’quv dasturi”, “Kompyuterni o’rganish vositasi” tushunchalari mohiyati haqida fikr yuritilgan. Muallif tomonidan yangi avlod o‘quv-uslubiy majmualarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Yangi avlod, elektron darslik, muhandislik, san`at, rivojlanish, ta`lim oluvchi, ta`lim beruvchi, pedagogika.

В статье подробно анализируются проблемы совершенствования учебно-методических комплексов нового поколения. Раскрываются сущность понятий «Электронный учебник», «Электронное издание», «Учебная программа», «Электронное учебное средство», «Компьютерная учебная программа», «Компьютерное средство обучения. Автором даны рекомендации по совершенствованию учебно-методических комплексов нового поколения.

Ключевые слова. Новое поколение, электронный учебник, инженерия, искусство, развитие, ученик, учитель, педагогика.

The article analyzes in detail the problems of improving educational and methodological complexes of the new generation. The essence of the concepts “Electronic textbook”, “Electronic publication”, “Curriculum”, “Electronic educational tool”, “Computer educational program”, “Computer educational tool” is revealed. The author gave recommendations for improving the new generation of educational and methodological complexes.

Key words. New generation, electronic textbook, engineering, art, development, student, teacher, pedagogy.

“Elektron darslik” atamasi hozirda ta’lim sohasida mustahkam o‘rin olgan, ammo hozir ham olimlar o‘rtasida ushbu tushunchaning mohiyatiga nisbatan yagona nuqtai nazar mavjud emas. Bu “o‘quv maqsadining elektron nashri”, “o‘quv dasturi”, “elektron ta’lim vositasi”, “kompyuter o‘quv dasturi”, “kompyuterni o‘rganish vositasi” va boshqa shu kabi sinonimik atamalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ko‘rsatilgan muammoga qo‘shimcha ravishda, shuni ta’kidlash mumkinki, agar “elektron darslik” atamasining o‘zi tan olingan bo‘lsa ham, o‘qituvchilar o‘rtasida ushbu tushunchaning ta’rifi bo‘yicha kelishuv mavjud emas.

Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili asosida ma’lum bo‘ldiki, “darslik” atamasiga nisbatan “elektron” kabi xususiyat qo‘shilishi o‘qitishda kompyuterlarning paydo bo‘lishi munosabati bilan qo‘llanila boshlandi va buning natijasida, axborotni yangi - elektron shaklda taqdim etish uchun kompyuterning salohiyati oshdi.

Zamonaviy AKT muhitda o‘qitish-ta’lim jarayonini samarali tashkil etish. Elektron pedagogikaning predmeti pedagogik tizim hisoblanadi. Pedagogik tizim qo‘yidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: o‘qituvchi, o‘quvchi, ta’limning maqsad va vazifalari, o‘qitish mazmuni, o‘qitish shakli, usul va vositalari. Elektron darslik yaratishda amal qilinishi zarur bo‘lgan tamoyillar (kvantlashtirish, to‘liqliligi, ko‘rgazmaliligi,

tarmoqlashuvi, boshqarish, moslashtirish, kompyuterli ta’minot, to‘planuvchanligi) hisobga olinib, elektron darslik yaratish texnologiyasini loyihalashtirish 7 bosqichni o‘z ichiga oladi:

1) konsepsiyasini ishlab chiqish (fan standarti va mashg‘ulot o‘tkazish metodikasiga tayanuvchi elektron darslik yaratishning asosiy g‘oyasini ishlab chiqish, darslikning mazmunli qismini tuzish);

2) loyihalashtirish (ko‘rinishida ishchi namunasini, axborot bloglari va ekran shakllari andozalari to‘plamini, murojaatlar interfaolligini ta’minlovchi giper ilovalar tuzilmasining tartibli sxemasini ishlab chiqish);

3) ekran shakli va axborot bloglari dizayni (aniq o‘quv jarayoni, psixologik-pedagogik xususiyatlari, ergonomika talablari, o‘quv materiallari tuzilishi va mazmuniga mos ravishda dizayn tuzilishini qurish);

4) o‘quv materiallarini elektron shaklda tayyorlash va ularni bo‘limlar bo‘yicha bir ish seansi, ya’ni bir dars uchun mo‘ljallangan elementar qismlarga yoki modullarga ajratish;

5) ilova tuzilmasi elementlarini to‘ldirish (tayyorlangan materiallarni ishlab chiqilgan andozalar va ekran shakllariga joylashtirish, ilovalar tizimini to‘ldirish hamda foydalanuvchi bilan qayta aloqani tashkil qilish);

6) test sinovlari va sozlash (har bir ilova, aloqa ishlari to‘g‘riligini va foydalanuvchi harakatiga dastur javobining to‘g‘riligini tekshirish);

7) o‘quv jarayoniga tatbiq etish (albatta, ta’lim beruvchilar va o‘quvchilar refleksiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash bilan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida elektron darslikni qo‘llash).

Zamonaviy AKT muhitida o‘qitishni internet resurslaridan foydalanishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Internet tarmog‘i ta’lim xizmatlarining juda katta potentsialiga ega. Elektron pochta, virtual kutubxona va muzeylar, ta’limiy portal va saytlar, mavzuli blog va forumlar, telekonferentsiyalar, elektron olimpiadalar va viktorinalar, zamonaviy ta’limning tarkibiy qismiga aylanmoqda. O‘quv maqsadli elektron vositalarni yaratish quyidagi uchta muhim bosqichning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi:

Mazmun bosqichi – bu bosqichda elektron vositalarning axborot-ta’lim resurslarini shakllantiriladi va uning axborot ta’minoti mazmuni yaratiladi;

Tashkiliy bosqich – bu bosqichda elektron vositalar yaratishning texnik jihatlari bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning toifalarini aniqlashtirish, mavjud resurslarni tizimlashtirish va yangilab borish mexanizmlarini ishlab chiqish, ta’lim muassasalaridagi mavjud resurslarni integratsiyalash, elektron ta’limni tashkil etish, axborot-ta’lim resurslariga bo‘lgan talabni aniqlash maqsadida foydalanuvchilar bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil etish amalga oshiriladi;

Metodik ta’minot bosqichi – bu bosqichda elektron vositalardan o‘quv jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish, maslahat xizmatlarini bajarish yo‘lga qo‘yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Балалаева Е.Ю. Анализ сущности понятия "Электронный учебник" // Вестник Марийского государственного университета. – 2016. – №4 (24). – С. 5-9.

2. Овчинникова К.Р. Учебник и электронный учебник: исторический экскурс // Сибирский педагогический журнал. – 2007. – №8. – С. 292-305.

3. Уваров А.Ю. Электронный учебник: теория и практика / А.Ю. Уваров. – М.: Изд-во УРАО, 1999. – 220 с.

X. BEKNAZAROVA,
Osiyo texnologiyalar universiteti, “Pedagogika kafedrasi” katta o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARNI TABAQALASHTIRIB O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarga individual yondashuv asosida tashkil etiladigan ta’lim turi – differensiallashgan ta’lim, uni tashkil etish va unga qo‘yiladigan talablar haqida fikr yuritiladi.

Tayach so‘zlar. O‘quvchi, o‘qituvchi, differensiallashgan ta’lim, o‘quvchi ehtiyoji, o‘quvchi qiziqishi, differensiallashtirilgan guruhlar, o‘quv topshiriqlari.

В данной статье обсуждается тип образования, который создается на основе индивидуального подхода к обучающимся - дифференцированное образование, требования к его организации и требования.

Ключевые слова. учащийся, учитель, дифференцированное образование, потребности учащихся, интерес учащихся, дифференцированные группы, учебные задания.

This article discusses the type of education that is created on the basis of an individual approach to students - differentiated education, requirements for its organization and requirements.

Key words. Pupil, teacher, differentiated education,pupil’s need, pupil’s interest, differentiated groups, learning tasks.

Individual va differensial o‘qish bir xil emas. Differensial ta’lim – o‘quv jarayonini o‘quvchilar guruhining yetakchi xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish bo‘lsa, individual ta’lim har bir o‘quvchining qobiliyati, iqtidoriga qarab beriladi. Ishni samarali tashkil qilish uchun dastur, darslik, didaktik materiallarning yangi variantlari yaratiladi.

Differensial, ya’ni tabaqalashtirilgan ta’lim so‘zi lotin tilidan “different”, butunni qism, shakl, bosqichlarga bo‘lish ma’nosini anglatadi. Keyingi yillar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim oluvchi uchun eng qulay sharoitlarni ta’minlaydigan o‘quv jarayoni bu differensial ta’limdir.

Differensiya ta’lim o‘qituvchilardan o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va o‘qish imkoniyatlarini (diqqat, fikrlash, xotira va boshqalarning rivojlanish darajasi), aniq fanlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalar darajasini tashkillashtirishni o‘rganishni talab qiladi, bu esa korreksion samaraga erishish maqsadida kelgusi individuallashtirishni amalga oshirish imkonini beradi.

Bolalar maktab dasturlarini o‘rganishga turli tayyorgarlik bilan kelishadi. Statistikaga murojaat etadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning 65 foiz maktabga bir xil psixik rivojlanish bilan keladi va bu me'yor hisoblanadi; 15 foiz kam yoki ko‘p darajada bu bosqichdan o‘tadi; 20 foiz bolalar, aksincha kam bo‘ladi.

Amaliyot tasdiqlashicha, rivojlanishning barcha bosqichlari bo‘yicha meyoriy ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bolalar faqat kitoblarda bo‘ladi. Odatda har bir bolada u yoki bu og‘ishishlar (oz miqdorda bo‘lsa ham) bo‘lib, kelgusida o‘qishdan orqada qolishga olib kelishi mumkin.

O‘quvchilarning maktabdagi o‘quv jarayoniga tayyorgarlik darajasi bir xil emas

va yildan-yilga ko‘rsatkich pasayib ketmoqda. Ba’zilarda tayyorgarlik darajasi keyingi o‘qishdagi muvaffaqiyatlariga mos keladi, ba’zilarida me'yorga arang yetib boradi.

Differensial yondashuvni amalga oshira turib, o‘qituvchi quyidagi talablarga amal qilishi kerak:

– o‘quvchilar uchun yaxshi muhitni yaratish;

– o‘quvchilar o‘zidagi imkoniyati va qobiliyatiga ko‘ra o‘qishi, undan nima kutilayotgani haqida tasavvurga ega bo‘lishi, o‘quv jarayonida motivatsiya bo‘lishi uchun o‘quvchilar bilan yaqindan muloqotda bo‘lishi kerak;

– turli darajadagi ta’lim oluvchilarga ularnnig imkoniyatlariga mos dasturlarni egallashlari taklif etiladi.

Turli bosqichli ta’lim uchun o‘qituvchilar quyidagilardan foydalanadilar:

– topshiriq bilan birga ozgina yordam elementlari mavjud bo‘lgan ma’lumot-kartochkalar;

– ko‘ngilli bajarish uchun muqobil topshiriqlar;

– o‘quvchilar tomonidan mazmuni yoritilgan topshiriqlar;

– faoliyatning ratsional usullarini egallashga yordam beruvchi topshiriqlar.

Ta’limning turli bosqichli differensiyasi o‘quv jarayonining turli bosqichlarida keng qo‘llanadi: yangi materialni o‘rganish, differensiyalangan uy vazifasi, darsda bilimlar o‘lchovi, o‘tilgan mavzuni egallaganlikni joriy tekshirish, mustaqil va nazorat ishlar, xatolar ustida ishlash, mustahkamlash darslari.

O‘quvchilarni iqtidoriga ko‘ra guruhlarga ajratish bilan bir qatorda differensiallashgan o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish juda muhim hisoblanadi. Ona tili fanidan differensiallashgan o‘quv topshiriqlarining quyidagi turlari mavjud:

1. Ijodiylik darajasiga ko‘ra differensiallashgan o‘quv topshiriqlari.
2. Murakkablik (qiyinlik) darajasiga ko‘ra differensiallashgan o‘quv topshiriqlari.
3. O‘quv materiali hajmiga ko‘ra differensiallashtirish.
4. O‘quvchilarning mustaqillik darajasiga ko‘ra differensiallashtirilgan o‘quv topshiriqlari.
5. O‘qituvchidan olinadigan yordam hajmiga ko‘ra differensiallashtiriladigan o‘quv topshiriqlari.

Ijodiylik darajasiga ko‘ra differensiallashgan o‘quv topshiriqlari. Bunday o‘quv topshiriqlari o‘quvchilar o‘quv-bilim faoliyati turiga ko‘ra farqlanadi va ular reproduktiv yoki produktiv (mahsuldor) o‘quv topshiriqlari tarzida tuzilishi mumkin. Reproduktiv o‘quv topshiriqlari o‘quvchilardan ijodiy yondashuvni talab etmaydi va asosan namuna asosida bajariladigan topshiriqlar kiradi. Produktiv (mahsuldor) o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida ijodiy yondashuv talab etiladi va an’anaviy topshiriqlardan bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning xilma-xilligi bilan farq qiladi.

Matematika darslarida produktiv – ijodiy xarakterdagi quyidagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin:

Matematik obyektlarni tasniflash (tushunchalarni, geometrik figuralarni. Masalan, “Rasmda nechta uchburchak bor?”

– matematik ob'ektlarni boshqasiga o‘zgartirish (masalan, oddiy arifmetik amallarni tarkibliga aylantirish);

– ma’lumotlar ortiqcha yoki kam bo‘lgan o‘quv topshiriqlari;

– topshiriqlarni turli usullar bilan yechish, qulay (ratsional) usulni tanlash;

– mustaqil ravishda matematik masalalar, tengsizliklar, misollar tuzish va h.k.

2. Murakkablik (qiyinlik) darajasiga ko‘ra differensiallashgan o‘quv topshiriqlari.

Differensiallashgan ta'limni tashkil etishning bu turida murakkablashtirilgan o'quv topshiriqlari o'zlashtirishi birmuncha yuqori bo'lgan o'quvchilar guruhi uchun fodalanilib ular quyidagicha mazmunda bo'lishi mumkin:

– matematik materiallarni murakkablashtirish (masalan, birinchi va ikkinchi guruh o'quvchilari uchun ikki xonali sonlar asosida misollar berilsa, uchinchi guruh o'quvchilariga bir xonali sonlardan iborat misollar berilishi mumkin);

– misollarni yechish yoki masalalar yechimini topishda bajariladigan ishlar sonini ko'paytirish (masalan, ikkinchi va uchinchi guruhda uch bosqichli topshiriq berilsa, birinchi guruh uchun to'rt bosqichli topshiriq beriladi);

– taqqoslash amalini asosiy o'quv topshirig'iga qo'shimcha ravishda bajarish topshirig'ini berish (masalan, uchinchi guruhga misolni bajarishdan avval sonlarni o'sib borish tartibida yozish topshirig'ini berish);

– teskari amallarni bajarishga doir o'quv topshiriqlarini berish (masalan, ikkinchi va uchinchi guruhga katta o'lchov birliklarini kichiklariga almashtirish topshirig'i berilsa, birinchi guruhga kichik o'lchov birliklarini kattalariga almashtirish topshirig'i beriladi).

O'quv materiali hajmiga ko'ra differensiallashtirish. Differensial ta'limning bu turida birinchi va ikkinchi guruh o'quvchilariga asosiy o'quv topshirig'idan tashqari, unga o'xshash bo'lgan qo'shimcha material ham beriladi. Bunday o'quv topshiriqlari o'quvchilarning topshiriqlarni turli tezlikda amalga oshirishi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Sekin ishlaydigan yoki o'zlashtirishda qiyinchiliklari bo'lgan o'quvchilar mustaqil ishlarni boshqa o'quvchilarga nisbatan sekin bajaradilar va tekshirish vaqtida ishlarni tugatishga qiynaladilar, ular uchun qo'shimcha vaqt ajratish lozim bo'ladi. Bu vaqtda esa iqtidorli va faol o'quvchilar uchun beriladigan qo'shimcha topshiriqlar ular vaqtining behuda sarflanmasligiga yordam beradi.

Qo'shimcha topshiriq sifatida birmuncha murakkabroq yoki ijodiy xarakterdagi o'quv topshiriqlarini berish mumkin. Shu bilan birga o'yin xarakteridagi, nostandart topshiriqlar ham berilishi mumkin. Bunday topshiriqlarni alohida tarqatma material sifatida berib individuallashtirish mumkin. O'quvchilar bunday topshiriqlarni qo'shimcha daftarlariga ham bajarishlari mumkin.

4. O'quvchilarning mustaqillik darajasiga ko'ra differensiallashtirilgan o'quv topshiriqlari. O'quv jarayonini bunday asosda differensiallashtirishda turli o'quv topshiriqlaridan foydalanilmaydi. O'quvchilar bir xil o'quv topshiriqlarini bajaradilar, ammo uni ayrim o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida bajarsalar, ayrimlari mustaqil bajaradilar.

Bunday differensiallashtirishda tayyorgarlik davrida o'quvchilar topshiriq sharti bilan tanishadilar, uni mazmuni va bajarish tartibini aniqlashtiradilar. Shundan so'ng odatda birinchi guruh o'quvchilari mustaqil ravishda topshiriqni bajarishga kirishadilar. Boshqa o'quvchilar esa o'qituvchi yordamidan foydalangan holda bajarish tartibini tahlil qiladilar va bajarishga kirishadilar. Shundan keyin ikkinchi guruh o'quvchilari ham mustaqil ishlay boshlaydilar. Uchinchi guruh o'quvchilari esa topshiriqni o'qituvchining yordamidan foydalangan holda bajaradilar. Bunday topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarning mustaqillik darajasi turlicha bo'ladi. O'quvchilar o'qituvchining yordamidan voz kechish vaqtini o'zlari belgilaydilar. Agar ular yana qiyinchilik sezsalar, o'qituvchidan yana yordam olishlari mumkin.

5. O'qituvchidan olinadigan yordam hajmiga ko'ra differensiallashtiriladigan o'quv topshiriqlari. Bu usul o'quvchilarning mustaqillik darajasiga ko'ra differensiallashgan o'quv topshiriqlaridan farqli ravishda o'qituvchi rahbarligida amalga oshirilmasdan, barcha o'quvchilar mustaqil ishni bajarishga kirishadilar. O'quvchilarning imkoniyat-

larini hisobga olgan holda, ayrim o‘quvchilarga vaqti-vaqti bilan yordam berib boriladi.

O‘qituvchi yordamni turli shakllarda berishi mumkin. masalan: a) tayyorgarlik mashqlari yoki yordamchi topshiriqlar ko‘rinishidagi yordam; b) qo‘shimcha ma’lumotlar ko‘rinishadagi yordam (yordamchi kartochkalar, maslahat kartochkalari, doskaga qo‘shimcha ma’lumotlarni yozib ko‘rsatish shaklida).

Yordamchi kartochkalar bilan ishlash bunday turdagi differensiallashgan o‘quv jarayonini tashkil etish uchun ayniqsa qulay hisoblanadi. Bunda birinchi guruh o‘quvchilari topshiriqlarni mustaqil bajarishga kirishadilar. Ikkinchi va uchinchi guruh o‘quvchilariga esa yordam tariqasida qo‘shimcha foydalanish uchun ma’lumotlar yozilgan yordamchi kartochkalar tarqatiladi. Bunday yordamchi kartochkalar barcha o‘quvchilar uchun bir xil bo‘lishi, guruhlar uchun alohida tayyorlanishi yoki har bir o‘quvchi uchun individual tarzda tuzilishi mumkin. O‘quvchilarning mustaqillik darajasi yordamchi kartochkalardan foydalanganlik darajasi bilan belgilanadi. Kartochkalar topshiriqlarni bajarishda foydalanilishiga ko‘ra murakkablashib borish tarzida tuzilishi mumkin.

Yordamchi kartochkalarda quyidagicha yordam turlari ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin:

– topshiriqni bajarishga doir namuna: bajarish tartibi, ketma-ketligi va qayd qilish tartibi haqidagi ma’lumotlar;

– axborot beruvchi ma’lumotlar: qoidalar, ta’riflar, o‘lchov birliklari va shu kabilar;

– ko‘rgazmali ma’lumotlar: illustrasiyalar, modellar, jadvallar va shukabilar.

– ayrim tushunchalar ta’rifi yoki muhim tushunchalarni ajratib ko‘rsatish tarzida;

– topshiriq bajarilishini yengillashtiruvchi qo‘shimcha savollar;

– topshiriqlarni bajarishga doir dastlabki vazifalarni bajarib ko‘rsatish yoki qisman bajarib ko‘rsatish.

Differensiallashgan o‘quv topshiriqlarining turli shakllaridan bir dars davomida yoki bitta predmetni o‘qitish jarayonida samarali foydalanish mumkin. Bu o‘quvchilarning faol ishlashlari uchun qulay sharoit yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. — М.: 2002.352 стр.

2. Олешков М.Ю., Уваров В.М. Современный образовательный процесс: основные понятия и термины.— М.: Компания Спутник, 2006.154 стр.

Nasimbek LUTFIYEV,
O‘zbekiston respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Bilim va malakalarni baholash agentligi bosh mutaxassisi

KO‘P DARAJALI INGLIZ TILI O‘QIB TUSHUNISH TESTINING ISHONCHLILIK VA VALIDLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 16-fevraldagi 73-son qaroriga muvofiq respublikada o‘tkaziladigan ko‘p darajali ingliz tili testining validligi va ishonchliligi tahlil qilingan. 8,000 dan ortiq nomzod ishtirok etadigan test sinovlarining o‘qib tushunish bo‘limining samaradorligini baholashga qaratilgan tavsiyalardan iborat bo‘lib, klassik test nazariyasidan foydalangan holda, testning psixometrik xususiyatlarini, jumladan, uning konstruktsion validligi va ishonchlilik koefitsientlarini tahlil qiladi. Olingan natijalar testning turli darajalarda ingliz tilidagi malakani to‘g‘ri o‘lchash qobiliyatini tahlil qiladigan asosiy statistik jihatlarini ko‘rsatadi.

Tayanch so‘zlar. O‘qib tushunish, validlik, ishonchlilik, ingliz tili malakasi, klassik test nazariyasi.

Статья посвящена валидности и надежности многоуровневого теста по английскому языку, проводимого в соответствии с постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 73 от 16 февраля 2022 года «Об утверждении административного регламента оказания государственных услуг по определению уровня владения иностранными языками». Целью статьи является оценка эффективности раздела теста на понимание прочитанного с участием более чем 8000 кандидатов, используя классическую теорию тестов для анализа психометрических свойств теста, включая его конструктивные коэффициенты валидности и надежности. Полученные результаты отражают основные статистические аспекты, анализирующие способность теста точно измерить уровень владения английским языком на разных уровнях.

Ключевые слова. понимание прочитанного, валидность, надежность, владение английским языком, классическая теория тестирования.

This article is devoted to the validity and reliability of a multilevel English language test conducted according to the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 73 dated February 16, 2022 “On approval of the administrative regulation of the provision of public services on determining the level of knowledge of foreign languages”. It aims to evaluate the effectiveness of the reading comprehension section of the test with more than 8,000 candidates, using classical test theory to analyze the psychometric properties of the test, including its construct validity and reliability coefficients. The obtained results show the main statistical aspects that analyze the test’s ability to accurately measure English proficiency at different levels.

Key words. Reading comprehension, validity, reliability, English language proficiency, Classical test theory.

O‘qib tushunish — bu yozma belgilarni dekodlash va matnlardan ma’no chiqarish qobiliyatini o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali kognitiv faoliyat hisoblanadi. Bu til bilimi, tushunish qobiliyatlari va o‘qilayotgan materialni

tushunish uchun orqa fondagi bilimlarni integratsiyalashni talab qiladi (Alderson, 2000; Koda, 2005). Ushbu jarayon faollikni va matn bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishni talab qiladi, bu esa o‘quvchilarga xulosalar chiqarish, yakunlar yasash va ma’lumotlarni turli kontekstlarda qo‘llash imkonini beradi.

O‘qib tushunish qobiliyatining ahamiyati shaxsiy akademik muvaffaqiyatdan tashqari keng tarqalgan; bu samarali muloqot poydevoridir. Olim Weir (2005) ta’kidlaganidek, o‘qib tushunish nafaqat akademik yutuqlar uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma, balki tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishning muhim tarkibiy qismidir. Ikkinchi til kontekstlarida, masalan, O‘zbekistonda, ingliz tilida yaxshi o‘qib tushunish qobiliyati talabalar ta’lim yo‘nalishlariga va global mehnat bozoriga tayyorgarligiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Statistik dalillar o‘quvchilarning o‘qib tushunish qobiliyatini rivojlantirishda duch keladigan qiyinchiliklarni ko‘rsatadi. Tadqiqotlar ko‘plab talabalar o‘qib tushunishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini, bu esa ularning umumiy til o‘zlashtirishiga va boshqa fanlardagi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatmoqda. Misol uchun, Alderson (2000) o‘qib tushunish ko‘nikmalari ko‘pincha talabalar akademik muvaffaqiyatlari bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi, yuqori darajadagi o‘quvchilar turli baholarda yaxshiroq natijalar ko‘rsatadilar.

Til o‘rganishda o‘qib tushunishning muhim rolini hisobga olgan holda, o‘qib tushunish qobiliyatini aniq baholash zarur. Ushbu maqola O‘zbekistonda ko‘p darajali ingliz tili o‘qib tushunish testining validligi va ishonchliligi, o‘qib tushunish komponentining psixometrik xususiyatlarini tahlil qilish uchun klassik test nazariyasidan foydalanadi. 8000 dan ortiq nomzodlardan olingan empirik ma’lumotlarga asoslanib, ushbu tadqiqot mintaqada o‘qib tushunish validligiga oid qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

1. Validlik nazariyasi

Validlik testning o‘lchamoqchi bo‘lgan bilim va ko‘nikmani to‘g‘ri o‘lchash darajasini anglatadi. Ta’lim baholashlari kontekstida, ayniqsa, o‘qib tushunishi testlari uchun validlik juda muhimdir, chunki ushbu testlar natijalari o'quvchining haqiqiy qobiliyatlarini aks ettirishiga ishonish mumkinligini belgilaydi. Messick (1989) fikriga ko‘ra, validlik bir-biri bilan bog‘liq bir necha tushunchalarni o‘z ichiga oladi, jumladan, mazmun validligi, konstrukt validligi, mezon bilan bog‘liq validlik va yuza validlik.

1. Mazmun validlik: bu tur, test elementlari o‘lchanayotgan konstruktsiyani qanchalik yaxshi ifodalashini baholaydi. O‘qib tushunish testi uchun, mazmun validligi testda samarali tushunish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni aks ettiruvchi o‘qib tushunish vazifalarining namunasini o‘z ichiga olishini ta’minlaydi. Alderson (2000) test elementlarini o‘quv dasturi va o‘quvchilardan rivojlantirilishi kutilayotgan aniq o‘qib tushunish ko‘nikmalari bilan moslashtirishga urg‘u beradi.

2. Konstrukt validlik: bu testning nazariy konstruktsiyani qanchalik aniq o‘lchashini baholaydi. Masalan, o‘qib tushunish testida bu testning haqiqatan ham o‘qib tushunish ko‘nikmalarini baholashini nafaqat, so‘z boyligi yoki testni o‘tkazish strategiyalari kabi bevosita qobiliyatlari kabilarni o‘z ichiga oladi. Weir (2005) nazariy validlikni aniqlash uchun o‘qib tushunishning nazariy asoslarini chuqur tushunishni talab qilishini ta’kidlaydi.

3. Mezon bilan bog‘liq validlik: mezon bilan bog‘liq validlik test ballari va bir xil konstruktsiya o‘lchovlari o‘rtasidagi munosabatni anglatadi. Agar o‘qib tushunish testi valid bo‘lsa, u boshqa belgilangan o‘qib tushunish qobiliyatini baholashlar bilan bog‘lanishi kerak. Alderson (2000) ikkita shakl mavjudligini tushuntiradi: bir vaqtda

o‘tkazilgan boshqa o‘lchovlar bilan test ballarini taqqoslaydigan solishtirma validlik va test ballarining kelajakdagi natijalarni qanchalik yaxshi taxmin qila olishini baholaydigan prediktiv validlik.

4. Yuza validlik: yuza validlik rasmiy validlik turi bo‘lmasa-da, “yuza validlik” (face validity – N.L.) testning o‘zini o‘lchash kerak bo‘lgan qobiliyatni o‘lchashga qanchalik ko‘rinish berishini anglatadi, bu esa subyektiv baholashga asoslanadi. Weir (2005) ta’kidlaydiki, yuzaki validlik manfaatdor tomonlarning testni qonuniy deb qabul qilishini ta’minlash uchun muhim bo‘lsa-da, bu testning samaradorligi bo‘yicha empirik dalil bermaydi.

O‘qib tushunish testining validligini belgilash test natijalarining ahamiyatli va amaliy bo'lishini ta’minlash uchun zarurdir. Valid testlar ta’lim beruvchilarga o‘qitib tushunish amaliyotlarini, o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni va talabalar o‘qib tushunishini qo‘llab-quvvatlash uchun ishonchli ma’lumotlar taqdim etadi.

2. Ko‘p darajali ingliz tili testi o‘qib tushunish qismi spetsifikatsiyasi va formati.

O‘qib tushunish testi O‘zbekistonda o‘tkaziladigan ko‘p darajali ingliz tili testining komponentlaridan biri hisoblanadi. Ushbu test nomzodlarni turli darajadagi bilim va ko‘nikmalarini baholaydi — xususan, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages – N.L.) standartlari bo‘yicha B1, B2 va C1 darajalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu baholashning asosiy maqsadlari muvaffaqiyatli nomzodlarga haqiqiy sertifikat berish va har bir nomzodning o‘qib tushunish qobiliyatlari bo‘yicha batafsil ma’lumot taqdim etishdan iborat.

O‘qib tushunish testi beshta alohida qismdan iborat bo‘lib, ma’lum o‘qish ko‘nikmalari va kompetensiyalarini maqsad qiladi. Umuman olganda, testda turli matn turlarida, jumladan, badiiy adabiyotlar, ma’lumot materiallari, broshyuralar va qo‘llanmalar, gazeta va jurnal maqolalari, hisobotlar va ta’lim materiallari kabi, taxminan 2,400 so‘zdan iborat bo‘ladi. Nomzodlar o‘qib tushunish vazifalari bo‘yicha tushunishlarini o‘lchashga mo‘ljallangan jami 35 ta savol taqdim etish belgilangan. O‘qib tushunish komponenti quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi:

1-Qism: qisqa ma’lumotli, yarim rasmiy matnlarni tushunish, bo‘shliqlarni to‘ldirish vazifalari orqali (6 ta savol, B1 daraja – N.L.), nomzodlarning xulosalar qila olish va aqliy model yaratish qobiliyatlarini baholash.

2-Qism: qisqa ma’lumotli matnlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, nomzodlar o‘zaro bog‘lanmagan qisqa matnlarni bir qator bayonotlarga moslashtirish vazifalari (8 ta savol, B1 daraja – N.L.) orqali, asosiy ma’lumotni o‘qish qobiliyatini sinovdan o‘tkazish.

3-Qism: noshirlik matnlarining turlarini tushunish, paragraflarga sarlavhalarni moslashtirish (6 ta savol, B2 daraja – N.L.) orqali, nomzodlarning asosiy g‘oyalar va matn tuzilishini tushunish qobiliyatlarini baholash.

4-Qism: ko‘p tanlovli savollar va to‘g‘ri/noto‘g‘ri /berilmagan bayonotlar (9 ta savol, B2 daraja – N.L.) orqali, nomzodlarning asosiy fikrlar, tafsilotlar va matndagi ma’noni tushunish qobiliyatini baholash.

5-Qism: rasmiy ma’lumotli matnlarga e’tibor berish, to‘ldirish vazifalari va ko‘p tanlovli savollar (6 ta savol, C1 daraja – N.L.) orqali, nomzodlarning asosiy fikrlar, tafsilotlar va muallifning maqsadini tushunish qobiliyatini sinovdan o‘tkazish.

Nomzodlarga o‘qib tushunish testini tugatish uchun bir soat vaqt beriladi, shu vaqt ichida ular javoblarini javob varaqasiga ko‘chirib, o‘zlarining tushunish qobiliyatlarini namoyish etishlari lozim. Har bir savol bir ballga ega bo‘lib, bu aniq va samarali baholash tizimini ta’minlaydi.

Umuman olganda, o‘qib tushunish testi nafaqat nomzodlarning malaka darajasini baholashga qaratilgan, balki ularning ingliz tilida samarali o‘qib tushunish qobiliyatlarini oshirishni maqsad qilmoqda. Turli xil matn turlari va vazifa formatlari orqali baholash xalqaro standartlarga mos keladi va nomzodlarning o‘qish qobiliyatlarini keng qamrovli baholashni ta’minlaydi.

1. “Matn sarlavhalarini moslashtirish” topshirig‘i tahlili

O‘qib tushunish testining tafsilotlariga yaqinroq yondashar ekanmiz, B2 darajasidagi matn sarlavhalarini moslashtirish vazifasini o‘z ichiga olgan 3-qismni tahlil qilishga e’tibor qaratamiz. Ushbu qismda nomzodlardan berilgan matndagi paragraflar uchun mos sarlavhalarni tanlash talab etiladi va u olti savoldan iborat. Ushbu vazifa quyidagi sabablarga ko‘ra muhim hisoblanadi:

Birinchidan, sarlavhalarni moslashtirish nomzodning matnning asosiy g‘oyalari va mavzuga oid elementlarni tushunish qobiliyatini baholaydi, bu esa samarali o‘qib tushunish uchun juda muhimdir. Alderson fikriga ko‘ra, asosiy g‘oyalarni aniqlash yozilgan mazmunni tushunishda muhimdir, chunki bu o‘quvchilarga murakkab ma’lumotni samarali ravishda o‘rganishga yordam beradi. Bu qobiliyat ayniqsa akademik va professional muhitlarda, asosiy g‘oyalarni tushunish yozma materiallar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Ikkinchidan, ushbu vazifa nomzodlarning matnning bosh ma’nosini anglash va matnning turli qismlari o‘rtasida bog‘lanishlarni aniqlash qobiliyatini baholaydi. Olim Weir ta’kidlaydiki, o‘qib tushunish nafaqat so‘zlarni dekodlashni, balki matnning turli qismlari bo‘yicha ma’lumotlarni birlashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Mos sarlavhalarni tanlash orqali nomzodlar taqdim etilgan materialni birlashtirish va izchil tushuncha yaratish qobiliyatlarini namoyon etadilar.

Ushbu vazifaning samaradorligini tahlil qilish uchun biz nomzodlarning sarlavhalarni bo‘limlarga moslashtirishdagi natijalarini o‘rganib chiqdik. Natijalar qiyinchiliklarning qanday belgilari borligini ko‘rsatdi, bu esa nomzodlar qaysi sohalarda yaxshi ko‘rsatkichlarni ko‘rsatgani va qaysi joylarda qiyinchiliklarga duch kelganini ko‘rsatdi. Nomzodlarning tanlovlari va to‘g‘ri sarlavhalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash orqali ushbu vazifaning konstruktsion validligini o‘rganishga imkoniyat yaratdik. Ushbu izlanish test savollarini takomillashtirishga yordam berdi va o‘qib tushunishining murakkabliklarini to‘g‘ri aks ettiradigan baholashni ishlab chiqish muhimligini ta’kidlaydi.

2024-yil may oyida biz o‘qib tushunish testini 8,000 dan ortiq nomzodlar ishtirokida o‘tkazdik. Ushbu testdan olingan statistik ma’lumotlar, xususan, sarlavhalarni moslashtirishni o‘z ichiga olgan 3-qismdagi test elementlarining ishlashini va xususiyatlarini o‘rganish uchun quyidagi jadvalga e’tibor qaratamiz:

Savol raqami	Qiyinlik (Mean)	Standart og‘ish	Korrelyatsiya
24Ma116	0.687	0.464	0.277
24Ma117	0.559	0.497	0.334
24Ma118	0.735	0.441	0.253
24Ma119	0.794	0.404	0.298
24Ma120	0.420	0.494	0.373

1. Qiyinlik:

O‘rtacha qiymatlar har bir elementning o‘rtacha qiyinlik darajasini ko‘rsatadi, bu 0

dan 1 gacha bo‘lgan shkala bo‘lib, yuqori qiymatlar osonroq elementlarni anglatadi. Masalan, 24Ma119 elementi 0.794 o‘rtacha bilan eng yuqori natijaga ega bo‘lib, bu nomzodlar uchun boshqa elementlarga nisbatan oson bo‘lganini ko‘rsatadi. Aksincha, 24Ma120 elementi 0.420 o‘rtachaga ega bo‘lib, bu elementning qiyinroq ekanligini anglatadi. Umuman olganda, o‘rtacha qiyinliklar elementlar qiyinliklarining yaxshi tarqatilgan diapazonini ko'rsatadi, bu esa nomzodlar malakalarining turlicha darajalarini ajratish uchun muhimdir.

2. Standart og‘ish:

Standart og‘ish nomzodlarning javoblaridagi farqlanishni ko‘rsatadi. Yuqori standart og‘ish kengroq javoblar diapazonini anglatadi, past standart og‘ish esa ko‘pchilik nomzodlar bir-biriga o‘xshash ball olganligini bildiradi. 24Ma117 (0.497) va 24Ma120 (0.494) elementlari eng yuqori standart og‘ishlarga ega bo‘lib, bu elementlar bo‘yicha nomzodlarning natijalarida sezilarli farqlanish mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa, ushbu elementlar ba’zilar uchun qiyinroq, boshqalar uchun esa osonroq bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

3.Korrelyatsiya:

Korrelyatsiya qiymatlari elementlarning yuqori va past darajadagi nomzodlarni ajratishdagi samaradorligini aks ettiradi. 0.2 yoki undan yuqori bo‘lgan korrelyatsiya yaxshi element ajratilishi uchun odatda qabul qilinadi. Ushbu tahlildagi barcha elementlar ushbu ko‘rsatkichni oshirib, har bir element har xil qobiliyatga ega nomzodlarni muvaffaqiyatli ajratishini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, 24Ma117 (0.334) va 24Ma120 (0.373) elementlari eng kuchli ajratish qobiliyatiga ega bo‘lib, bu ularning yuqori va past malaka darajalari o‘rtasida ajratishda ayniqsa samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qib tushunish testi o‘zining xilma-xil tuzilishi va ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqilgan vazifalari bilan turli darajalarda ingliz tilini bilishni baholash uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Kelgusida, baholash amaliyotlarini va metodologiyalarini takomillashtirishni davom ettirish muhimdir, bu esa til bilish testlarining validligini va isbotlanishini oshirishga yordam beradi. O‘zbekistonda ingliz tili ta’limining sifatini oshirishga intilish, doimiy tadqiqot va rivojlantirish samarali baholashlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa xalqaro standartlarga mos keladi va tez o‘zgaruvchan global muhitda o‘quvchilar ehtiyojlarini qondiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alderson, J. C. (2000). Assessing Reading. Cambridge University Press. 10-12

2. Hughes, A. (2003). Testing for Language Teachers. Cambridge University Press. 26

3. Koda, K. (2005). Insights into Second Language Reading: A Cross-Linguistic Approach. Cambridge University Press. 16

4. Messick, S. (1989). Validity. In R. L. Linn (Ed.), Educational Measurement (3rd ed., pp. 13-103). American Council on Education. 13-15

5. Snow, C. E. (2002). Reading for Understanding: Toward an R&D Program in Reading Comprehension. RAND Corporation. 7

6. Weir, C. J. (2005). Language Testing and Validation: An Evidence-based Approach. Palgrave Macmillan. 45-47

Abdulaziz ABDUQAXXOROV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, menejer

TALABANING PEDAGOGLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA' LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, mustaqil ta'lim olishning mazmun mohiyati, nazariy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada mustaqil ta'limning samarali usullari, iste'dodni namoyon etish, rag'batlantirish va rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar. Mustaqil fikrlash, rivojlantirish, amaliy ko'nikmalar, shakllantirish, mustaqil ta'lim, mazmun mohiyati, nazariy asoslar, samarali usullar, iste'dod, rag'batlantirish va rivojlantirish imkoniyatlari.

В статье описаны реформы, проводимые в системе образования, развитие самостоятельного мышления учащихся, формирование практических навыков, содержание и теоретические основы самостоятельного образования. Также, в статье раскрываются эффективные методы самостоятельного обучения, возможности проявления, стимулирования и развития талантов.

Ключевые слова. Самостоятельное мышление, развитие, практические навыки, формирование, самостоятельное образование, содержания, теоретические основы, эффективные методы, талант, мотивация и возможности развития.

The article describes the reforms carried out in the education system, the development of independent thinking of students, the formation of practical skills, the content and theoretical foundations of independent education. Also, the article reveals effective methods of independent learning, opportunities for manifestation, stimulation and development of talents.

Key words. Independent thinking, development, practical skills, formation, independent education, content, theoretical foundations, effective methods, talent, motivation and development opportunities.

Pedagogik mukammallik, eng avvalo, kasbiy faoliyatning yuqori darajasi, ta' lim jarayonida turli pedagogik vaziyatlarni ijodiy yengishga qodir bo'lgan shaxs xususiyatlari va fazilatlari majmui.

Pedagogik mahoratning bir qancha tarkibiy qismlari mavjud.

Birinchidan, albatta, bu insonparvarlik yo'nalishi bo'lib, unga ko'ra inson eng oliy qadriyat hisoblanadi, uning manfaatlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. Odamlar o'rtasida faqat gumanistik munosabatlar va muloqot uslublari mavjud.

Ikkinchidan, madaniyatning yuqori darajasi (ham umumiy, ham pedagogik).

Uchinchidan, o'qituvchining kasbiy fazilatlari:bolalarga mehr-muhabbat, mas'uliyat, axloq, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, stressga chidamlilik.

Bolalarga bo'lgan sevgi talabchanlik bilan uyg'un bo'lishi kerak, bu o'quvchilarni tarbiyalaydi, salbiy harakatlarni oldini oladi va ijobiy narsalarni rag'batlantiradi. Ammo, maktab o'quvchilarida o'z qobiliyatlari yoki bilimlarida noaniqlik paydo bo'lmasligi uchun talablarda mutanosiblik hissi bo'lishi kerak.

To'rtinchidan, kasbiy bilimlar tizimi, muloqot, tadqiqot, diagnostika, tashkiliy loyi-

halash va ko‘nikmalar.

Beshinchidan, o‘qituvchining ijodkorligi o‘quv jarayonidagi barcha muammolarga va o‘quv vazifalariga ijodiy yondashish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Komponentlardan tashqari pedagogik mahorat darajalarini ham ajratish mumkin:

1-bosqich: reproduktiv (faoliyatni tahlil qilish). Boshqa o‘qituvchilar, metodistlar yoki olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ish namunasidan o‘z faoliyatida foydalanishni o‘z ichiga oladi.

2-bosqich: konstruktiv. U shaxsiy to‘plangan o‘qitish tajribasi va boshqa o‘qituvchilar, metodistlar va olimlarning tavsiyalarini birlashtiradi.

3-bosqich: ijodiy. Eksperimental ish jarayonida shaxsiy to‘plangan tajribaga asoslanib, o‘qituvchi shaxsiy (mualliflik) ta’lim va tarbiya metodologiyasini yaratadi.

Agar pedagogik mahorat tushunchasi haqida gapiradigan bo‘lsak, unda “pedagogik texnika” atamasini eslatib o‘tish kerak.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya - bu o‘qituvchining xatti-harakatlarining vositalari, usullari, ko‘nikmalari va xususiyatlari majmui, o‘quv faoliyatining ijodiy tabiati va o‘quvchilarni rag‘batlantirish uchun eng samarali sharoitlarni yaratib, bolaning shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlaydi. Bularga quyidagilar kiradi:

O‘z-o‘zini tartibga solish, o‘z his-tuyg‘ularini va his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyati, yurish, o‘tirish, turish qobiliyati. O‘qituvchining mahorati diksiyada, ovozda, yuz ifodalarida ham namoyon bo‘ladi. Vaqti-vaqti bilan qichqiriqga aylangan juda baland ovoz talabaning asab tizimiga yomon ta’sir qiladi. O‘qituvchining nutqi ochiq, ifodali va mantiqiy izchil bo‘lishi kerak.

Talabalarni o‘qituvchilik faoliyatiga maxsus tashkil etilgan tayyorlash ta’siri ostida, pedagogik potentsialning yordamchi va ayni paytda kasbiy kompetentsiya va kasbiy mahoratning tarkibiy elementi sifatida, pedagogik potentsialning moyillik, tayyorlik va inklyuziya kabi tarkibiy qismlaridan kelib chiqqan holda. izchil rivojlanmoqda.Dastlabki eksperimentni o‘tkazish jismoniy tarbiya universitetida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari elementlaridan foydalanish asosida talabalarning pedagogik salohiyatini rivojlantirish metodikasi, agar quyidagilar qo‘llanilsa, eng samarali bo‘lishini aniqlashga imkon berdi: jismoniy tarbiya universiteti talabalarining pedagogik salohiyatining tarkibiy qismlarini bosqichma-bosqich shakllantirish,pedagogik muammolarni hal qilish yo‘llarini mustaqil izlash jarayonida o‘quvchilarni o‘z-o‘zini bilish va bilimlarni egallashga yo‘naltirish, talabalarning ichki motivatsiyasini shakllantirishga e’tibor berish,o‘zaro baholash va o‘zaro ta’lim elementlari kiradi.

Asosiy eksperiment davomida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari elementlaridan foydalanish asosida talabalarning pedagogik salohiyatini rivojlantirish metodikasining xususiyatlari yoritib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Аминов, Н.А. Диагностика педагогических способностей /Н. А. Аминов. -М.: 1998.

2.Ананьев, Б.Г. Человек как предмет познания / Б.Г. Ананьев. - Л.: Изд-во Лен. ун-та, 1968. - 339 с.

3. Ананьев, Б.Г. О проблемах современного человекознания / Б.Г. Ананьев. -М.: Наука, 1977.-273 с.

4.Андреев, В.И. Методические принципы и критерии компьютерной диагностики творческих способностей студентов в условиях вуза: Тез. докл. респ. науч.-метод. конф. / В.И. Андреев. Казань: Б.и. -1987. - с. 6 -7.

Risbek JUMATAYEV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tyutori

TALABANI KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH METODI

Annotatsiya

Maqolada kreativlik fikrlash tushunchasi, uning ahamiyati, fikrlash shakllari tahlil qilingan. Hamda yangi g’oyalarga intilish va o’rnatilgan stereotiplarni o’zgartirish hayotiy muammolarni yechishda noodatiy fikrlash zarurati tushuntiriladi. Shuningdek, maqolada kreativlikni oshiruvchi original mashqlar, kreativlikni qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratilishiga oid takliflar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Kreativ fikrlash, stereotip, innovatsiya, ijod, qobiliyat, mulohaza.

В статье анализируется понятие креативное мышления, его значение, формы мышления. Также объясняется необходимость нестандартного мышления при решении жизненных проблем, стремления к новым идеям и изменению устоявшихся стереотипов. Автором предложены оригинальные упражнения, повышающие творческие способности, создание образовательной среды, поддерживающей креативные способности.

Ключевые слова. Креативное мышление, креативность, стереотипы, новаторство, способности, рассуждение.

The article analyzes the concept of creative thinking, its meaning, and forms of thinking. It also explains the need for unconventional thinking when solving life problems, striving for new ideas and changing established stereotypes. The author has proposed original exercises that increase creativity and the creation of an educational environment that supports creative abilities.

Key words. Creative thinking, creativity, stereotypes, innovation, abilities, reasoning.

Ijodkorlik uchun ilhom manbayi o‘quvchilarni o‘quv jarayonida tashabbuskorlik va mustaqillik ko‘rsatishga undaydi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyalar nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirishga yordam beradi, balki o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishini rag‘batlantiradi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi va nostandart qarorlar qabul qiladi.

Ijodiy fikrlash tamoyillariga asoslangan ta’limdagi innovatsiyalar bugungi kun o‘quvchilari ehtiyojlariga moslashtirilgan yanada samarali o‘qitish usullarini yaratishga yordam beradi. Universitetlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat talabalarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi, balki ularni dinamik va raqobatbardosh jamiyatda muvaffaqiyatli moslashishga tayyorlaydi.

O‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishda o‘quvchida ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradigan va ijodkorlikni ilhomlantiradigan optimal o‘quv muhitini yaratish zarur. Ta’limni loyihalash o‘quv rejasini, o‘qitish usullarini ishlab chiqish, ta’lim maydoni va resurslarini tashkil etish, tegishli ta’lim texnologiyalari va vositalarini tanlashni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim dizayni o‘quvchilarning faol o‘zaro ta’sirini ta’minlaydigan, ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradigan va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradigan o‘quv muhitini yaratishga qaratilgan. Bunga loyiha ishlarini tashkil etish, jamoaviy ijodkorlik, interfaol o‘qitish usullari va texnologiyalaridan foydalanish kiradi.

O‘quv dizayni o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlaydi, o‘qituvchilarga o‘z usullarini talabalarning individual ehtiyojlari va manfaatlariga moslashtirishga im-

kon beradi. Bu o‘quv jarayoniga yanada samarali jalb qilish va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’limni loyihalashning asosiy tamoyillari va usullari.

Ta’limni loyihalashning asosiy tamoyillari va usullari ijodiy ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan bir qator yondashuvlar va strategiyalarni o‘z ichiga oladi.

Ta’limni loyihalashning asosiy tamoyillaridan biri har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olishdir. Buning uchun turli xil ta’lim uslublari, qiziqishlari, tayyorgarlik darajasi va axborotni idrok etish xususiyatlarini hisobga oladigan o‘quv materiallari va usullarini ishlab chiqish kerak.

Faol va interaktiv ta’lim.

O‘quvchilarning o‘quv jarayoniga faol jalb etilishiga o‘qitishning interfaol usullaridan, ya’ni suhbat, guruh loyihalari, o‘quv o‘yinlaridan foydalanish orqali erishish mumkin.

Muammoli ta’lim.

Ta’limning bunday yondashuvi real yoki simulyatsiya qilingan muammolarni hal qilishga asoslangan bo‘lib, bu tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, muammolarni ijodiy hal qilishga va bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yordam beradi.

Motivatsion ta’lim muhitini qanday yaratish kerak?

Universitetda motivatsion ta’lim muhitini yaratish talabalarni jalb qilish va ularning o‘quv faolligini rag‘batlantirish uchun o‘qituvchidan bir qator harakatlar va strategiyalar talab qilinadi. Bunga yordam beradigan ba’zi usullar mavjud.

1. Talabalar uchun aniq ta’lim maqsadlari va umidlarini qo‘ying. Bu ularga ulardan nima kutilayotganini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va ularni maqsadlariga erishishga undaydi.

2. Haqiqiy hayotiy vaziyatlar va muammolar bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil qiziqarli amaliy mashg‘ulotlarni yarating. Bu esa o‘quvchilarning o‘quv materialiga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi, o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi.

3. Talabalarni munozaralar va guruh loyihalarida faol ishtirok etishga undash. Bu yaxshi o‘rganish va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

4. O‘qitish usullarining xilma-xilligiga e’tibor bering. Talabalarning xohishlariga ko‘ra turli xil o‘rganish uslublaridan foydalaning.

5. Mustaqillik va tashabbusni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish. Talabalarga o‘z-o‘zini nazorat qilish, materialni mustaqil o‘rganish va ma’lumot qidirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam bering.

6. Talabalarga ularning yutuqlari va harakatlari haqida muntazam fikr bildirish. Bu ularga muvaffaqiyatlarini baholashga yordam beradi va ularning ishlari e’tiborga olinayotganligini ko‘rsatadi.

Motivatsion ta’lim muhitini yaratish doimiy e’tibor va harakatni talab qiladi, lekin u o‘quv jarayonini va talabalar muvaffaqiyatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish uchun o‘yin elementlari va loyiha faoliyatidan foydalanish

Qiziqarli va rag‘batlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish uchun o‘yin elementlari, masalan, o‘yinlar, musobaqalar, nostandart yechimlar bilan muammolar o‘quv jarayoniga kiritilishi mumkin.

Loyiha faoliyati, o‘z navbatida, o‘quvchilarga bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llash, real muammo va muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Loyihalar ilmiy tadqiqot va muhandislik loyihalaridan tortib,

badiiy va madaniy tashabbuslargacha bo‘lishi mumkin.

O‘yin elementlari va loyiha faoliyatidan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini quyidagi yo‘llar bilan rag‘batlantirishi mumkin:

talabalarning qiziqishi va faolligini yaratish, chunki ular ko‘pincha tanlash, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini namoyon qilish imkoniyatlarini taklif qilishadi.

noan’anaviy g‘oyalar va yechimlarni talab qiladigan topshiriqlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va tasavvurlarini rivojlantirishga yordam beradi;

loyiha va o‘yinlarda jamoada ishlash, hamkorlik, muloqot va fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi;

o‘yin ssenariylari va loyihalarida ishtirok etish talabalardan mustaqil bo‘lishni, muammolarni hal qilish va maqsadlarga erishishda tashabbus ko‘rsatishni talab qiladi;

o‘yin elementlari va loyiha faoliyati erkin ijodiy ifoda va tajribalarni rag‘batlantiradigan muhitni yaratishga yordam beradi;

O‘yinlar va loyihalar muammolarni hal qilishda yangi g‘oyalar va yondashuvlarni izlashni rag‘batlantirishi mumkin, bu esa o‘quvchilarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Новиков Д.А. Теория управления организасионнйми системами. Москва: МПСИ, 2005: 584.

2. Скворсова А.Й., Сушенсэва Д.В., Козйрева О.А. Особенности моделирования дефинисиж категории "Воспитаниэ" в структуре изучения дисциплинй "Теория и методика воспитания". Теория и практика образования в современном мире: материалй мезҳдународнож научнож конференсии. (г. Санкт-Петербург, февральъ 2012 г.). Санкт-Петербург: Реноме, 2012: 50 – 53.

3. Алеҳин И.В. Теория и практика воспитания воэннослузҳасчиҳ Вооруэҳеннйҳ сил Россижскож Федерасии. Под ред. И. В. Алеҳина. Санкт-Петербург: БГТУ, 2004: 248.

4. Эфремов О.Й. Воэнная педагогика. Санкт-Петербург: Питер, 2008: 640.

5. Гажсина Г.И. Кулътурологическиж подҳод в теории и практике педагогического образованиЙ. Автореферат диссертасии . доктора педагогическиҳ наук. Москва, 2002: 37.

Dilnura AVEZOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARNING ESSE YOZISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING LINGVOMETODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada essening janr sifatida paydo bo‘lishi, unga berilgan ta’riflar hamda essening bugungi kundagi ta’limiy ahamiyati, esse janriga qo‘yiladigan talablar, uni yozishga oid nutqiy ko‘nikmalarni egallashning lingvometodik asoslari haqida so‘z yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Yozma nutq, esse, ilmiy-ommabop uslub, nutqiy ko‘nikma, malaka, faktli dalillar, taqqoslash va xulosalash.

В данной статье говорится о возникновении эссе как жанра, данных ему определениях, образовательной значимости эссе сегодня, требованиях, предъявляемых к жанру эссе, а также лингвометодических основах приобретения речевых навыков для его написания.

Ключевые слова. письменная речь, эссе, научно-популярный стиль, речевое мастерство, компетентность, фактические данные, сравнение и вывод.

This article talks about the emergence of the essay as a genre, the definitions given to it, the educational significance of the essay today, the requirements for the essay genre, and the linguistic and methodological foundations of acquiring speech skills for writing it.

Key words. Written speech, essay, scientific and popular style, speaking skills, competence, factual evidence, comparison and conclusion.

Yozma nutqni shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, bunda har bir yozma ish turining o‘ziga xos jihatini hisobga olish, unda shakl va mazmun birligiga erishish muhim hisoblanadi. Shakl jihatdan so‘z va qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘llash, gap, ularning o‘zaro bog‘lanishi, tinish belgilaridan o‘rinli foydalanish, so‘zlar imlosiga e’tiborli bo‘lish, xatboshilarni to‘g‘ri aniqlash singari ko‘nikmalar talab etilsa, mazmun jihatdan rejani to‘g‘ri tuza olish, berilgan mavzuni to‘la yoritish, qo‘yilgan maqsaddan uzoqlashmaslik, fikrlarni asoslash, shaxsiy munosabatni ifodalash, muayyan muammoga nisbatan turli yechimlarning taklif etilganiga diqqatni qaratish lozim bo‘ladi.

O‘quvchilarning esse yozish malakalarini shakllantirish xususida so‘z borar ekan, shu o‘rinda essening o‘ziga xos jihatlari, uning boshqa yozma ish turlaridan farqi, esse yozish malakalarini shakllantirishning lingvometodik asoslarini o‘rganishni, mavjud ma’lumotlar tahlilini olib borishni o‘rinli deb bildim.

Esse janrining asoschisi fransiyalik faylasuf M. Monten hisoblanadi. U o‘zining hajmi, syujeti, uslubi va mavzusi jihatdan turli, ammo bir muallifga tegishliligi bilan o‘zaro bog‘liqlikni hosil qiluvchi kichik ijodiy yozishmalaridan iborat bo‘lgan “Less Essais” nomli asari orqali ushbu janrning yaratuvchisi sifatida tarixda iz qoldirgan.

Izlanishlar natijasida ma’lum bo‘lishicha, bir qancha adabiyotlarda “esse” atamasiga quyidagicha izoh berilgan. Ya’ni “esse” fransuzcha “essai” – “tajriba”, ingliz tilida “essay” intilish, ijodiy sinov, ocherk degan ma’nolarni anglatib, erkin kompozitsiyali, hajm jihatdan uncha katta bo‘lmagan nasriy asar hisoblanadi. Esseda biror narsa yoki shaxsga oid subyektiv fikr bildiriladi. Uning o‘ziga xosligi shundaki, esseda ko‘tarilgan muammoga nisbatan fakt va dalillarni o‘rinli keltirish va shu orqali o‘z munosabatini ifodalash muhim sanaladi.

Ba’zi lug‘atlarda esse tushunchasi “adabiy-tanqidiy, tarixiy-biografik, falsafiy, publitsistik uslubga ega bo‘lgan, biror muammoga nisbatan muallifning shaxsiy munosabatini ifodalovchi nasriy janr”[1] sifatida izohlangan.

L.P.Krisinning lug‘atida esa esse “muayyan muammoga oid fikrlarni ma’lum tartib va izchillikda emas, balki erkin shaklda ifodalash imkoniyatini beruvchi ocherk” sifatida tilga olingan[2].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida essega “adabiy, falsafiy, ijtimoiy, publitsistik va boshqa mavzularda yozilgan, muammolar sistematik ilmiy tarzda emas, balki erkin shaklda talqin qilinadigan nasriy asar[3]” deb ta’rif berilgan.

O‘zbek adiblaridan Sh. Xolmirzayev esse janrida barakali ijod qilgan yozuvchilardan biri bo‘lib, u ham ijodiy ishning ushbu turini “erkin ijod” vositasi sifatida tilga olgan hamda unga nisbatan o‘z munosabatini quyidagicha ifodalagan: “Esse yozguvchi adib tasvirlayotgan yoxud bayon etayotgan voqea-hodisaga – inson qismatining ma’lum davri bo‘lagiga nisbatan o‘z munosabatini ochiq-oshkor bildirib turishi barobarida o‘z ko‘nglida tug‘ilgan qandaydir his-hayajonini ham, hatto shaxsiy mulohazalarini ham bemalol yozish imkoniga egadir”[4].

O. Madvaliyev esa esse janrini ta’lim oluvchilarning yozma nutqini baholash vositasi sifatida o‘rganib chiqib, unga quyidagicha ta’rif bergan: “esse – erkin kompozitsiyali nasriy-adabiy janr. U adabiy, falsafiy, ijtimoiy, publitsistik va boshqa mavzularda yoziladi, muammolar tizimli, ilmiy tarzda emas, balki erkin shaklda talqin qilinadi”[5].

Anglaganimizdek, esse muallifning shaxsiy fikrlarini ifodalash, o‘z mulohazalarini boshqa yozma ish turlariga nisbatan erkin bildirish imkoniyatini taqdim etuvchi janr. Ta’lim siyosatidan ham aynan dunyoqarashi keng, erkin fikrlay oladigan, o‘z munosabatini asosli va savodli tarzda bildira oladigan, turli muammoli vaziyatlarga nisbatan obyektiv baho bera oladigan insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazish talab etilmoqda[6]. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, yozma ish turlari ichida aynan essening bu boradagi imkoniyatlari kengroq.

Esse XIX asrda adabiy janr sifatida anchagina ommalashgan bo‘lib, XX asrga kelgandagina undan ta’lim jarayonida yozma nutqqa oid ko‘nikmalar hamda mulohaza yuritish va mantiqiy fikrlashni sinovdan o‘tkazish vositasi sifatida foydalanish boshlangan. Quyida essening XIX asrda qo‘llangan turlari hamda XX asrda ta’lim jarayoniga olib kirilgandan keyingi o‘zaro qiyosi berilgan:

XIX asr	XX asr
1-turi: tashakkur bildirish mazmuniga ega bo‘lib, unda muallif uy egasining xotira daftariga mehmondorchilik bilan bog‘liq fikrlarini ifoda etgan. 2-turi: ilmiy-ommabop uslubda yozilgan bo‘lib, unda ilmiy hamda so‘zlashuvga xos uslubning xususiyatlari namoyon bo‘lgan. 3-turi: badiiy uslubda yozilgan bo‘lib, muallifning avtobiografik xotiralari bilan bog‘liq mazmunda bo‘lgan.	Akademik esse: - imkon qadar qisqa jumlalardan foydalanish; - o‘z fikrlarini o‘z aql-idroki doirasida yozish; - asosiy muammoni ochib berishga urg‘u berish; - salmoqli fikrlarni ifodalash; - matn uslubi qisman rasmiy-idoraviy uslubga yaqin bo‘lishi kerakligi talab etilgan.

[1] Большой энциклопедический словарь.

[2] http://pnu.edu.ru/ru/recruitment/graduates/essay/

[3] http://www.slovorod.ru/dic-krysin/index.html

[4] Sh. Xolmirzayev. Esse – erkin ijod.

[5] Orif Tolib. O‘qituvchiga ham, o‘quvchiga ham birday muhim: esse qanday yoziladi? daryo.uz.

[6] Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –B.14.

Bugungi kunga kelib esa esse yozish topshirig‘idan ko‘plab xalqaro imtihonlarda foydalanilmoqda. Xorijiy mamlakatlarda esse ishga yoki o‘qishga kirishda muhim hisoblangan hujjatlar qatorida taqdim etiluvchi yozma ish bo‘lib, u nomzodlar orasidan eng yaxshisini tanlab olish imkonini beradi. Bu esa esse yozish ko‘nikmasini egallashning yana bir ahamiyatli jihatini namoyon etib, uni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishini ayni shu sabablar bilan izohlash mumkin.

Shu sababli, keyingi yillarda xalqaro tan olingan til bilish darajasini sinovdan o‘tkazuvchi dasturlar (IELTS, TOEFL, SAT) imtihonlarida, shuningdek, milliy sertifikatlash tizimida ham esse yozish bilan bog‘liq bosqich mavjud bo‘lib, u o‘quvchining nafaqat yozma nutqqa oid malakalarini, balki o‘quvchining muayyan mavzuga nisbatan munosabatini ifodalash usuli, uni dalillar bilan asoslay olish va yana bir qancha boshqa malakalarini sinovdan o‘tkazishga asoslanadi.

Aslida esse yozishga o‘rgatishda ko‘zda tutilgan ta’limiy maqsadlar zamirida shaxsning muayyan mavzuga nisbatan o‘zining xolisona fikrini namoyon etish masalasi nazarda tutilganini, inson faoliyatining keyingi qismlari(kasbiy, ijtimoiy)da bunday fikrlarning katta auditoriya uchun taqdim etilishini hisobga olgan holda aytish mumkinki, bugungi texnologiya va globallashuv sharoitida esse yozish ko‘nikmalarini egallashning ahamiyati yanada oshib borsa boradiki, aslo kamaymaydi.

Esse janriga qo‘yiladigan talablar turli adabiyotlarda turlicha izohlangan bo‘lib, quyida biz uning mazmuniga qo‘yiladigan ayrim jihatlarga e’tiborni qaratmoqchimiz.

Xorijiy adabiyotlarda esse janriga shakl jihatdan bir-biriga yaqin talablar qo‘yilgan bo‘lsa-da, ammo mazmun jihatdan ularning bir qancha farqlari borligini ko‘rishimiz mumkin:

– esse yozish uchun tanlangan mavzu keng ko‘lamli muammolarni hal etishga qaratilmasligi lozim. Ya’ni unda muayyan bitta sohaga tegishli bo‘lgan bir mavzu yoki masala xususida so‘z borishi muhim sanaladi;

– muallifdan ushbu mavzu bilan bog‘liq individual fikrlari, shaxsiy taassurotlari hamda mulohazalarini ifodalash so‘raladi, ammo mavzuni keng ko‘lamda yoritib berish talab etilmaydi;

– esseda muallifning shaxsiy pozitsiyasi, qarashlari hamda uslubi sezilib turishi kerak. Shu nuqtayi nazardan u falsafiy, tarixiy-biografik, publitsistik, adabiy-tanqidiy, ilmiy-ommabop xarakterga ega bo‘lishi mumkin;

– esseda, eng avvalo, muallifning shaxsiyati, uning dunyoqarashi hamda his-tuyg‘ulari birlamchi bo‘lib, bu jihatlar essening sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.[7]

Ba’zi manbalarda esa esse yaxlit bir fikrni o‘zida ifodalovchi, hajman 1-2 sahifadan iborat bo‘lishi hamda mazmun jihatdan quyidagi talablarga javob berishi kerakligi aytilgan:

– fikrlarni aniq, tushunarli va ixcham shaklda ifodalash;

– mazmunan yaxlitlik saqlangan, tuzilishi jihatdan mantiqiy va o‘zaro bog‘liqlik sezilib turadigan bir butun kompozitsion qurilishga ega bo‘lish;

– har bir xatboshida bittadan asosiy fikrning mavjudligi;

– atamalar, nazariy tushunchalarni o‘z o‘rnida va maqsadli qo‘llash;

– qo‘yilgan muammoni izohlash va o‘z qarashlarini asoslovchi dalillardan samarali foydalana olish.[8]

[7] Л. Петренко, Е. Храновская. Методы и приёмы работы написания эссе. SPU "Ion Creanga", Chisinau. ORCID: 0000-0001-6972-8903

[8] Д.В. КОЛЕСОВА, А.А. ХАРИТОНОВ. "Пишем эссе: учебное пособие для изучающих русский язык" -3-е изд. –СПб.: Златоуст, 2008. с.17.

O‘zbek tili ta’limida esse janridan 2020-yillardan so‘ng yozma nutq hamda tafakkurni shakllantirish vositasi sifatida foydalanib kelinayotganini ko‘rishimiz mumkin. Shunga ko‘ra, esse bo‘yicha ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar[9]da uni yozishda quyidagi talablarga qat’iy rioya etish talab etilishi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan:

– shaxsiy munosabatning bildirilishi;
– tezis – kalit so‘zni to‘g‘ri aniqlash;
– faktli dalillar (argumentlar);
– nazariyaga asoslanish;
– atamalarni o‘z o‘rnida qo‘llash;
– sitatalar keltirish;
– mantiqiy qonuniyatning saqlanishi;
– taqqoslash va xulosalash usullaridan foydalanish;
– savodlilik (uslubiy, imlo, tinish belgilari);
– yumor, o‘tkir hajv;
– foydalanilgan ilmiy manbalarga havolalar.

Demak, esse janriga qo‘yiladigan talablar turlicha bo‘lib, yuqorida berilgan talablarni o‘zaro birlashtirib turuvchi xususiyatlar quyidagilardan iborat degan xulosaga kelish mumkin:

– fikrni ixcham, tushunarli va aniq shaklda yetkazish;
– berilgan mavzu orqali o‘quvchi diqqatini konkret bir voqea-hodisa yoki muammoga qaratish;
– o‘z fikrlarini mavzuga oid fakt va dalillar yordamida asoslash;
– shaxsiy munosabatni ifodalash.

O‘rganilgan ma’lumotlar va olib borilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda ona tili ta’limida esse yozish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid ta’lim mazmuni, ushbu jarayonni tashkil etish texnologiyalari, esseni baholash mazmuni va mezonlarini ishlab chiqish masalalari hali to‘laligicha o‘z yechimini topmagan bo‘lib, ularni takomillashtirish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Большой энциклопедический словарь.
2.http://pnu.edu.ru/ru/recruitment/graduates/essay/
3.http://www.slovorod.ru/dic-krysin/index.html
4.Sh. Xolmirzayev. Esse – erkin ijod.
5.Orif Tolib. O‘qituvchiga ham, o‘quvchiga ham birday muhim: esse qanday yoziladi? daryo.uz.
6.Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent:O‘zbekiston, 2016. –b.14.
7. WALKER H. The English essay and essayist. London, 1966
8. Л. Петренко, Е. Храновская. Методы и приёмы работы написания эссе. SPU “Ion Creanga”, Chisinau.
ORCID: 0000-0001-6972-8903
9.Колесова Д.В., Харитонов А.А. “Пишем эссе: учебное пособие для изучающих русский язык” -3-е изд. –СПб.: Златоуст, 2008. с.17.

[9] https://bellashuv.uz/soragan-edingiz/1671-esse-yozish-boyicha-uslubiy-tavsiya.html#gsc.tab=0

M.E. INOYATOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti innovatsion loyiha rahbari, p.f.n.

ADABIYOT TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY IT VOSITALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Zamonaviy o'quv jarayoniga xos dolzarb muammolardan biri o'quvchilarda ta'lim olishga nisbatan motivatsiyaning quyi darajada ekanligidir. Maqolada adabiyot ta'limi samaradorligini oshirishda zamonaviy IT vositalarini qo'llash shuningdek o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etishning optimal shart-sharoitlarini ta'minlab berishi atroflicha asoslab taqdim etilgan.

Tayanch so'zlar. Adabiyot o'quv predmeti, axborot maydoni, IT sohasiga oid amaliy texnologiyalar, multimedia mahsulotlar, elekron o'quv materiallar.

Одной из актуальных проблем современного образовательного процесса является низкий уровень мотивации учащихся. В статье подробно представлено, что использование современных ИТ-инструментов в повышении эффективности литературного образования обеспечивает оптимальные условия для вовлечения учащихся в учебный процесс.

Ключевые слова. Предмет литературы, информационное поле, прикладные технологии, относящиеся к сфере ИТ, мультимедийные продукты, электронные учебные материалы.

One of the pressing problems of the modern educational process is the low level of motivation of students. The article presents in detail that the use of modern IT tools in increasing the effectiveness of literary education provides optimal conditions for involving students in the educational process.

Key words. Subject of literature, information field, applied technologies related to the IT field, multimedia products, electronic educational materials.

Zamonaviy o'quv jarayoniga xos dolzarb muammolardan biri o'quvchilarda ta'lim olishga nisbatan motivatsiyaning quyi darajada ekanligidir. Afsuski, so'nggi yillarda o'quvchilarni adabiyotga qiziqtirish, o'quv jarayoniga jalb etish murakkab pedagogik-psixologik jarayonga aylanmoqda. O'quvchilarning hammasi ham o'quv dasturida taqdim etilayotgan badiiy asarlarni o'rganishni istayvermaydilar, bilimlarni zerikarli deb biladilar. O'quvchini o'rab turgan axborot maydonining rang-barangligi ularninig olayotgan axborotlari (jumladan, didaktik materiallar)ning ham rang-barang bo'lishini talab etmoqda. Demak, o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etishning zamonaviy yo'llarini izlash zarur (1-rasm).

Davlatimiz rahbari "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida zamonaviy IT vositalarini qo'llashning zarurligiga alohida to'xtalib, "Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida qog'oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash hamda xuddi shunday yondashuvga ko'ra mavjud o'quv jarayonini raqamlashtirish doirasini muttasil kengaytirib borish lozim" deya ta'kidlagan edi.


Shunga ko'ra, o'quvchilarda o'quv motivatsiyasini oshirish orqali adabiyot ta'limi samaradorligini ta'minlashda quyidagilardan foydalanish zarur:

– IT sohasiga oid amaliy texnologiyalarni qo'llash;

– o'quvchilarni multimedia mahsulotlar ishlab chiqishga yo'naltirish;

– o‘quv videolari, animatsion taqdimotlardan keng foydalanish;
– tayyor media-mahsulotlarni qo‘llay bilish;
– o‘quvchilarni multimedia mahsulotlar ishlab chiqishga yo‘naltirish;

O‘qituvchi o‘quv jarayonining qiziqarli bo‘lishi, pozitiv yo‘llar bilan ta’lim samaradorligiga erishish uchun nima qilishi zarur? Buning yechimi ta’lim samaradorligini oshirishning zamonaviy vositalaridan biri IT sohasiga oid amaliy texnologiyalardir. O‘quv videolari, animatsion taqdimotlar, darsning elementlariga aylanib, ma’lum bir effekt yaratishga yordam beradi. Ular, bir tomondan, o‘qituvchiga o‘rganilayotgan materialga o‘quvchilar e’tiborini qaratish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, turli media mahsulotlarni mustaqil ishlab chiqish orqali o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishlariga zamin yaratadi.



1-rasm. O‘quvchilarni ta’lim jarayoniga jalb etishning zamonaviy yo‘llari

Adabiy asarga o‘quvchi diqqatini jalb etishning yo‘llaridan biri tayyor media-mahsulotlarni qo‘llay bilishdir. Ilg‘or xorijiy davlatlar novator pedagoglari bundan mohirona foydalanishmoqda[1]. Masalan, A.Qahhorning “O‘g‘ri” asari o‘rganilayotganda TikTok dagi bilim olishni istamayotgan bolalar haqidagi videoni, A.Qahhorning “O‘g‘ri” asaridagi xat-savodi yo‘q Qobil boboning tilmoch huzuridagi holati bilan solishtirish mumkin. “O‘g‘ri” asarida ilgari surilgan yana bir muammo – savodsizlik masalasining hatto hozir ham qanchalik ahamiyatli ekanligi ayon bo‘ladi-qoladi.


Shunda masalaning hamon dolzarbligi yaqqol ko‘rinadi. O‘quvchilar ko‘rgan-bilgan narsalarini qayta ko‘rayotgandek, takrorlayotgandek bo‘ladilar, lekin muammoning qiyosiy taqdim etilishi ularda chuqur taassurot qoldiradi.

Eng muhimi, A.Qahhor asarlariga jiddiy yondasha boshlaydilar. O‘quvchilarga tanish shakl yangi mazmun bilan boyiydi hamda kuchli ta’sir ko‘rsata boshlaydi.

Aksariyat zamonaviy muzeylarda muzeyga kiruvchilar diqqatini jalb etish uchun multimedia texnologiyalaridan foydalanilayotganini kuzatish mumkin. Ulardan ayrimlarini dars jarayonida ham qo‘llash mumkin. Shuningdek, informatika o‘qituvchisi bilan hamkorlikda o‘quvchilarni multimedia mahsulotlar ishlab chiqishga yo‘naltirish mumkin. Bu individual shakldagi uy vazifasi yoki jamoaviy topshiriq shaklidagi yillik o‘quv loyihasi bo‘lishi mumkin. Adabiyot to‘garaklari yoki sinfdan tashqari ishlarda ham bu xil ishlarni amalga oshirish, shubhasiz, o‘quvchilarning o‘quv dasturidan o‘rin olgan ada-

[1] Юлия Высоцкая Россия, Ленинградская обл., г. Мурино Всеволожского района - https://www.google.com/ УРОК.РФ

biy asarlar mazmunini to‘liq o‘zlashtirib olishlariga yordam beradi (2-rasm).



2-rasm. O‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladigan topshiriq turlari

O‘quvchilarga o‘rganilayotgan asardan videoroliklar tayyorlashni topshirish mumkin, natijada o‘quvchilar asarni o‘zgacha ishtiyoq va diqqat bilan o‘rganadilar, videorolik uchun undan qisqa, qiziqarli, tarbiyaviy ahamiyatga ega hayotiy material qidiradilar va ijodiy tasavvurlarini ishga solib, barcha tengdoshlariga nihoyatda qiziqarli bo‘lgan (sababi, o‘quvchilar sinfdoshlarining ijodiy ishlariga hamisha kuchli qiziqish bilan yondashadilar), eng muhimi, ularning bilimlarini boyita oladigan ijodiy mahsulotni ishlab chiqadilar. Natijada, o‘qituvchining axborot bazasi o‘quvchilar muayyan mavzu bo‘yicha ishlab chiqqan ijodiy videoroliklar galereyasi bilan boyiydi. Hattoki bir necha daqiqa davom etadigan videorolik uchun ham o‘quvchi asarda o‘rganilayotgan muhit bilan yaxshiroq tanishishi, asar matni bilan ishlashi, qahramohlar kiyadigan liboslar ustida o‘ylab ko‘rishi, ularni izlab topishi kerak bo‘ladi. Odatda, yirik loyihalarda guruhli ishlar taklif etiladi, bu jarayonga kerakli ma’lumotlarni yig’ish va qayta ishlash uchun bir qancha o‘quvchilardan iborat jamoa faoliyati ko‘proq mos keladi. Bu o‘quvchidan ijodiy fikrlash, analitik va tadqiqot qobiliyatini talab etadi. Loyihada ishlash jarayonida ularda aynan shunday qobiliyatlar rivojlanadi. Video ekskursiyalarni yaratish, masalan, harakatlanuvchi qahramonlar uchun marshrutlar ishlab chiqish bo‘yicha ekspozitsiya tayyorlash o‘quvchilardan kreativ tafakkurni talab etadi. Asar qahramonlarning kichik video kartalarini ham kiritish o‘quvchiga guruh tarkibida individual ishlash imkonini beradi. Natijada, har bir loyiha ishtirokchisi o‘z ijodiy mahsulotini yaratib, to‘plangan barcha materiallarni birlashtirish yo‘li bilan loyiha ishtirokchilari o‘ziga xos noyob mahsulot yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

2. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования / Под ред. Е.С. Полат и др. – М.: Академия, 2000.

3. Rasulova M. O‘qitishning texnik vositalarini qo‘llashning psixologik xususiyatlari. // Xalq ta’limi/ ilmiy-metodik jurnal. – 2012- - ¹5. - 71-71-b.

Obod ERGASHEVA,
Termiz davlat universiteti," Pedagogika va ijtimoiy ish" kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD)

O'QUVCHI-QIZLARNING IJTIMOIYLASHUVIDA SHARQONA TARBIYANING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek oilalaridagi qiz bolalarga nisbatan alohida e'tibor, ularni milliy qadriyatlar asosida iboli-hayoli, or-nomusli, tejamkor, oqila qilib tarbiya berish vositalari hamda oilalarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar bayon etilgan. Shuningdek, oilada onaning o'rni va jamiyatning rivojlanish taraqqiyotiga mosligi yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar. Oila tarbiyasi, oila muhiti, ibo-hayo, or-nomus, tejamkorlik, oqila qiz, ibrat-namuna, ayolga e'tibor.

В стате содержится информатсия о воспитании роли девушки в узбекской семе, взяты в основе натсионалных сенностей нравственности и морали, гордости, скромности, мудрости, семейно-ориентированной. А также место матери и ее роли в обществе являются неотъемлемой частю развития.

Ключевые слова. Общество, воспитание, развитие, сенности.

It contains information on how to create a family-oriented, family-oriented, balanced and intellectual way of thinking about a girl in Uzbek families and how to manage her family. The role of the mother and her role in the development of the team are an integral part of success.

Key words. Girl, mother, father, father, youth, sage, virgin, mother's honor, respect for girls, family mode, family upbringing, family environment.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev har bir ma'ruzalarida xotin-qizlar roliga alohida e'tibor berib, ularning jamiyatdagi faoliyatlarini rivojlantirib, iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratishni aniq belgilab berdilar. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasining roli yanada oshirildi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, ayollarimizning jamiyatdagi o'rnini takomillashtirish maqsadida, so'nggi ikki yilda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitalari va uning hududiy bo'linmalarining faoliyati tubdan o'zgartirilib, aniq vazifalari belgilab olindi. Qabul qilingan farmon doirasida Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta qaror, 4 ta farmoyish va 12 ta chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning barcha sohalarda teng huquqli mehnat qilishi borasida huquqiy asoslar yaratilgan.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilib, ayollar masalasi ko'tarilgan. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Tarqqiyot strategiyasi 69-maqsadida "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash,ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash", vazifasi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini

oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida": 2019-yil 3-maydagi PK-4307-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 2019-yil 31-dekabrda Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi qabul qilindi.

Konsepsiyada Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, xayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo‘stlik, bolajonlik, murosalilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish”. 2019-yil 24-yanvar O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida qizlarni Oliy ta’limga jalb qilish masalasiga alohida e’tiborni qaratish zarurligi aytib o‘tildi. O‘quvchi-qizlarni yoshligidanoq hayotda o‘z o‘rnini topish uchun fan sirlarini yaxshi o‘rganish zarurligini ular ongiga singdirish, qizlarning o‘qimishli , ziyoli bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratish har bir ota-ona va o‘qituvchilarning vazifasidir. Men Qumqurg‘on tumani 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabida Xotin qizlar qo‘mitasining ishlari bilan tanishganimda ta’lim muassasasidagi faol ayollar bilan jonli muloqot tashkil etilishi. Viloyat, shahar gazetalarida iqtidorli qizlarning yutuqlari haqida maqolalar chop etish, maktabda qizlar orasida kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini tashkil etilganligini ko‘rib, o‘sha tadbirlarda muntazzam ishtirok etgan qizlar bilan suhbatlashganimda qizlarning dunyoqarashining kengligini ko‘rib havasim keldi.

Bugun biz o‘zbeklar ulug‘ bir millat bo‘lib tiklanish, Vatanimiz qudratini oshirib, buyuk kelajak yaratish imkoniga ega bo‘ldik. Bu shu Vatanda yashayotgan har bir inson zimmasiga tarixiy burch va mas’uliyat yuklaydi. Avvalo, biz har birimiz shu mas’uliyatni anglamog‘imiz va uning qudratini his etmog‘imiz kerak. Bu ulug‘ vazifaning zamirida tarbiya yotadi. Ayol esa tarbiyachidir. U nafaqat bolalarning, balki erkaklarning ham tarbiyachisidir. Donishmandlar “Har qanday buyuk shaxs ortida ayol turadi”, deb aytgan hikmat bejiz emas. Bu borada Payg‘ambarimiz hadislarida ham “Har bir erkak xotinining dinidadur”, – deb ta’kidlanadi. Xalqimizda “Yaxshi xotin o‘zdiradi, yomon xotin to‘zdiradi”, “Erni er qiladigan ham xotin, qaro yer qiladigan ham xotin” degan maqollar bejiz aytilmagan. Bu hikmatli so‘zlar zamiridagi haqiqatni dastlab ayollarning o‘zlari mag‘zini chaqib, bu ulkan mas’uliyatni anglab yetishlari kerak. Erkaklar oilani boqish va boshqarishni yana o‘z yelkalariga olib oilada bolalarga ayol, mehr-muhabbatidan qoniqib yashashlari uchun imkon yaratib berishlari lozim. Hukumat va jamiyat esa ayollarga millatning tarbiyachilari, deb qarab ularni ham moddiy, ham ma’naviy tomondan ijtimoiy himoya eta olsagina, biz zimmamizdagi ulug‘ vazifani ko‘ngildagidek ado etgan bo‘lamiz.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, odob-axloq, tarbiya xotin-qizlar, ona va ayol haqidagi g‘oyalar eramizdan oldingi birinchi ming yillik boshlarida shakllanganligi haqidagi ma’lumotlar bor. Eng qadimgi yozma manbalarda odob-axloq g‘oyalari zardushtiylik ta’limotining muqaddas kitobi "Avesto"da qimmatli fikrlar talqin etilgan. Muqaddas Qur’oni-Karim va Hadisi-shariflarda musulmon ahlining dunyoqarashi, falsafasi, ma’naviyati, axloqi, e’tiqodi, har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarni shakllantirishda ayol va xotin-qizlarga bag‘ishlangan qimmatli fikrlari bayon qilingan. Hadislarda “qizlarni turmushga chiqarish to‘g‘risida onalar bilan maslahatlashing” deb ta’kidlangan.

Bugun O‘zbekiston aholisining ko‘pchiligini yoshlar tashkil etadi. Ular manfaatini himoya qilish, barkamol bo‘lib voyaga yetishlari va qulay shart-sharoitlarda o‘qishlari, mehnat qilishlari va imkoniyatlarning yaratilishi yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir. Yoshlarning dunyoqarashi, hayotiy maqsadlari, ijtimoiy mo‘ljallari, o‘zlarini qanday tuta bilishlari mamlakatimizning kelajak taqdiri bilan juda uyg‘un.

O‘zbekona qarashlarda qadimdan qiz bola tarbiyasiga alohida e’tibor bilan qaraladi. O‘zbekchilikda qizlarning yurish-turishi, gap-so‘zi, o‘zini tutishi-yu, epchil-chaqqonligi u ko‘zga ko‘ringan paytdan boshlab odamlarning og‘ziga tushadi. Elimizda qiz bolaning chiroyidan ko‘ra uning husni xulqi, epchil, chaqqon, pazanda-yu chevarligiga ko‘proq ahamiyat beriladi.

Shuning uchun hamki, qizning tug‘ilganidan boshlab, unga muomala madaniyati, kiyinish madaniyati, ozodalik va tozalik, oilada odob-axloq qoidalari qat’iy o‘rgatib boriladi. Har bir qiz – ana shu oilaning yuzi deb baho beriladi.

Umuman olganda, qiz farzandimiz dunyoga kelgan kundan boshlab uni har tomonlama yetuk, komila etib tarbiyalashga va sog‘lom bo‘lib voyaga yetishiga jiddiy e’tibor qaratamiz. Dunyo go‘zallari qad-u-qomati, tiniq yuzi-yu va hokazo shunga o‘xshagan diqqatni tortadigan tashqi chiroyi bilan latofatli sanalsada, bunday sifatlar ikkinchi darajali hisoblanadi. Albatta, birinchi o‘rinda yuqorida aytib o‘tilganidek qiz bolaning odob-axloqi, o‘zida ibo-hayo va ozodaligi kabi zebo xislatlarni mujassam etgan fe’l-atvori bilan to‘kis husnga ega hisoblangan. O‘tmish avlodlarimiz hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘z oldimizga Oybarchin,To‘maris, Qutlug‘nigorxonim, Gavharshodbegim, Zebiniso, Uvaysiy, Nodira – yana yuzlab nomlarini keltirish mumkin bo‘lgan ayollarimiz borki, ular shiddatkorligi, oqilaligi, sabr-toqatliligi bilan birga ibo, hayosi bilan ham o‘rnak bo‘lishgan.

O‘zbek ayoli hamisha ham niyatini ochiq aytavermaydi. Dilidagini pardalab gapirishga urinadi. Buni bosh milliy dostonimiz “Alpomish”dagi bir qator tasvirlarda yaqqol ko‘rish mumkin. Chunonchi, qalmoqlarning to‘qson alpi zug‘umida qolgan Oybarchinning Alpomishga yozgan xatida bu holat yorqin ko‘zga tashlanadi. Qizning bitgan xati sof o‘zbekcha: “Oltoychalik yo‘lga keldim, to‘qson alpga toytalashda qoldim, olti oyga muhlat oldim, mendan umidi bo‘lsa, Alpomish kelsin, bo‘lmasa javobimni bersin”. Kichikkina bu maktubda ham xavotir, ham noz, ham iddao, ham istig‘no, ham g‘urur, ham umid, ham ko‘ngil mayli aks etgan. O‘zbekning qizi haqiqiy maishiy vaziyat bilan emas, ko‘ngli holati bilan yashaydi. Birovga atashtirilgan qiz javobini olmasa, qayerda va qancha bo‘lsa ham, o‘zini boshi bog‘liq sanaydi, egali deb biladi. Chunki unga egalisan, deyilgan! Chunki u Yaratganni o‘rtaga qo‘yib so‘z bergan! O‘zbekning qizi uchun so‘z shunday qudratli kuch hisoblanadi. U “Ha, endi, vaziyat shunday bo‘lib qoldi, boshqaning etagini tutishimga to‘g‘ri keldi”, demaydi. U o‘zini o‘qilgan fotiha, atashtirilgan odam oldida mas’ul sezadi. Ming yilcha oldin yaratilgan dostonda o‘zbek ayolining ma’naviyati,ibosi yorqin ko‘rinib turibdi.

Kaykovus ota-onaning yana bir muhim vazifasi farzand balog‘atga yetgach, o‘g‘il bo‘lsa uylantirib, qiz bo‘lsa uzatib, o‘z burchini ado etishi kerak, deb ko‘rsatadi. Ayniqsa qiz bola tarbiyasiga e’tibor berish, unga g‘amxo‘rlik qilish kerakligini alohida qayd etadi: “Agar qizing bo‘lsa, uni mastura doyalarga topshirg‘il, toki yaxshi parvarish qilg‘aylar va kattaroq bo‘lg‘andin so‘ng muallimga topshirg‘il ... Balog‘atga yetgandan so‘ng harakat qilib erga berg‘il, unga shafqat va marhamat ko‘rguzg‘il, nedinkim qiz otaning asiri bo‘lur”.

Bizda ayol tavozesi, ayol itoatkorligi oliy fazilat hisoblanadi. O‘zbek ayoli deganda eri qarshisida bosh egib turgan go‘zal siymo tasavvur etiladi va qizlar juda yoshligidanoq umr yo‘ldoshini hurmat qilishga o‘rgatiladi. Itoatkorlikning juda muhim tomonlari borki, uni nazardan qochirsak katta xato qilgan bo‘lamiz. Itoatkor ayollar ikki toifaga bo‘linadi, birinchi toifa erining zulmidan, jabr-jafosidan qo‘rqib, uning har qanday istagi, amr va farmonlarini so‘zsiz bajaradi; ikkinchisi esa o‘zini tanigan o‘z haq-huquqlarini anglagan,

o‘zini qadrlagan holda eriga o‘zaro hurmat va muhabbat bilan itoat etadi. Bu esa momolarimizdan qolgan katta ma’naviy merosdir.

Biz tariximizga nazar solar ekanmiz yurtimiz juda ko‘p marta istilochilar qo‘lidan-qo‘liga o‘tib kelganini ko‘ramiz, buning sababi, avvalo, tabiatimizning boyligi bo‘lsa, keyingisi esa ma’lum tarixiy davrlarda noto‘g‘ri siyosat oqibatida xalqimizning haddan tashqari itoatkorlikka moyil bo‘lib qolganidir. Bugun biz mustaqilligimizni mustahkamlash, abadiy o‘zimizniki qilib saqlashimiz, uchun hurlikka, ozodlikka intilib yashaydigan farzandlarni dunyoga keltirishimiz va tarbiyalashimiz shart. Demak bunda jamiyatimizda yashayotgan har bir ayol o‘zini tanishi, qadr-qimmatini, burch va haq-huquqlarini anglab yetishi lozim. Erkaklar va ayollar Olloh taolo tomonidan ularga omonat qilib berilganini, omonatni ehtiyotlab asrash farz ekanini, zulmkorlik, zo‘ravonlikni olloh qattiq la’natlaganini va uning oqibati yomon bo‘lishini his etib yashasa, qolaversa, ular o‘z farzandlari va millat taqdiri uchun ayollarni barkamol qilish yo‘lida qayg‘ursa, biz ko‘zlagan maqsadlarimizga erisha olamiz.

Xo‘sh, ayol bolalarning, erlarning, hattoki millatning tarbiyachisi ekan, uning o‘zini kim tarbiyalaydi? Bu savol ta’bir joiz bo‘lsa, jamiyatning maqsadini ifoda etadi. Axir bizning maqsadimiz yaxshi, baxtli kelajak qurish emasmi? Shu bois bugun o‘zini ziyoliman, deb hisoblovchi, o‘z taqdirini Vatan, millat taqdiri bilan bog‘lay oluvchi har bir fuqaro bu ulug‘ ishga bosh qo‘shmog‘i shart. Chunki, erkakni tarbiyalash – bir odamni tarbiyalash, ayolni tarbiyalash esa millatni tarbiyalash, demakdir. Buni hech qachon unutmaslik kerak. Faylasuflardan biri “Bizga yaxshi onalarni beringlar, biz yaxshi odamlar bo‘lib yetishamiz”, deya ta’kidlaganda haq edi.

Ayni vaqtda, ma’naviy poklanishimiz, milliy tiklanishimiz va kuch-qudratimizni oshirish uchun yaxshi odamlar kerak. Demak, yaxshi onalar kerak. Illo, yaxshi onalar millatimizning kelajagidir. Kelajak esa yonimizda e’tiborga, mehr-muhabbatga intizor bo‘lib turibdi. Ertangi farovon kunimiz hurmati, ayolga shavkatli va muruvvatli bo‘laylik! Zero insoniyatning baxti ham baxtsizligi ham ayolda mujassam bo‘lgan. Adabiyot namoyondalaridan biri, shoiri Sharl’ Bodler “Ayol – baxtga taklifnomadir”, deb dilbar so‘zlar bilan ayolni ulug‘lagan edi. Bu ko‘hna dunyoning qiyomatga qadar barhaq turadigan ilohiy kalomlaridan biridir. Prezidentimiz “Qiz bolalarni hayotga tayyorlash, ularni zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga o‘rgatish, ilm-fan, madaniyat va san’at, sport sohalariga keng jalb etish orqali ularning qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish muhim ahamiyatga ega ekanini, o‘ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz” deganlarida bugunning gapini aytgan edilar.

Hozirgi kunda bir qator ayollar qizlarning hayotga tayyorligini ularning seplari bilan belgilamoqda. Sep, qalin va boshqa sarf-xarajatlarni haddan oshirib, oilalarning tezda buzilib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Ayrim joylarda hali ham qalin deb ko‘p mol-mulk olish xurofotidan qutila olmagan kelin olish uchun ko‘p miqdordagi pul, o‘nlab mol-qo‘y, kiyim-kechak va jihozlar berishga, kelin kelgach, undan narsalarni undirib olishga o‘rgangan oilalar haligacha bor, bunday olish-berishlar qizlarimizning haq-huquqini kamsitish, ularni oldi-sotdi qilish emasmi?! Hozirgi kunda qizlarning seplarida turli hashamdor ro‘zg‘or anjomlari o‘rin olmoqda, agar bu qizlarimizning hayotda o‘z o‘rnini topishga xizmat qilsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Biroq, bu narsalar qizlar baxtini kafolatlay oladimi?!

Qizlarimizning seplarida ularning ma’naviyatini ko‘tarishga xizmat qiladigan turli mavzulardagi kitoblar, ma’naviy manbalar (onalar tomonidan tikilgan kashtalar, buvilari tomonidan qoldirilgan taqinchoqlar) bo‘lsa juda yaxshi bo‘lar edi. Shu sababli o‘zbek

oilalarida qizlarni tarbiyalashda quyidagi masalalarga e’tiborni qaratmoq lozim deb topdik:

– qizlarimizga yoshligidanoq o‘zbek urf-odatlarini va udumlarini singdirib borish;

– avvalo, ona, qolaversa, ota qiziga har tomonlama o‘rnak, namuna bo‘lishi lozim;

– oilada ayollar o‘rnini, vazifasini, burchini, huquqini tushuntirib borish;

– oilada ayollar zimmasidagi yumushlarini puxta o‘rgatib borish;

– qizlarning savollariga, tushunmagan narsalari bo‘yicha so‘rovlariga shoshilmay, mukammal javob berish;

– qarindosh-urug‘, mahalla-kuydagi obro‘ - e’tiborli oilalarning ayollarini, qizlarini namuna qilib ko‘rsatib borish;

– ortiqcha erkalatmaslik, ranjitmaslik, ayniqsa, yomon so‘zlar bilan haqoratlamaslik kerak;

– qiz bolaga ota-ona, aka-ukalar tomonidan zulm o‘tkazmaslik;

– noto‘g‘ri ish, xatti-harakatini tushuntirib, yengil koyish bilan birga yaxshi ishlarni rag‘batlantirib borish;

– yoshi ulg‘aya borgan sari qiz bolaga turmush, oila, turmush o‘rtog‘i, unga munosabat haqidagi tushunchalarni shakillantirish;

– qiz bolaning adabiyotga, san’atga she’riyatga havasini orttirib borish;

– odob-axloq, sharm-hayo, ibo, muloyimlik, yurish-turish va kiyinish madaniyati, tejamkorlik, sabr-toqatli bo‘lish masalalarida tushuncha berib borish maqsadga muvofiqdir.

Jamiyatdagi har bir qiz millatning ertasi hisoblanada. Chunki, uning faoliyati, hech bo‘lmaganda, bitta oilani qamrab oladi. Oiladagi muhitning ta’siri jamiyatning ildiziga borib tutashadi. Kelajak egalari sanaluvchi yoshlarni tarbiyalar ekan har bir qiz fan tomondan ham, din tomondan ham atroflicha, chuqur bilimga ega bo‘lishi shart. Qolaversa, qizlarning ushbu jihatlarda ham savodxonligi ahamiyatlidir:

– meditsinaga oid boshlang‘ich tushunchalar;

– matematik savodxonlik;

– ona tilini yaxshi bilishi;

– odob-axloq normalariga oid bilimlar;

– urf-odat, milliy qadriyatlar, an’analarga hurmat;

– o‘zini shaxs sifatida tanish.

Asrlar oshib, o‘zbekning tarjimai holiga aylangan mintalitetimiz qoidalari texnologiya asrida ham qizlarimizga ziynat bo‘lib xizmat qilishi xalqning muddaosidir. Ayol xilqatining haqiqiy qiyofasini belgilovchi bu kabi hislatlar esa qizlarning sharqona tarbiya olib, hayotda o‘z o‘rnini topishiga, qolavesa, ijtimoiylashuviga yordam beradi .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni, 2018-yil 02.03.

2. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022 yil 28-yanvar PF-60-son.

3. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi 2019-yil-maydagi PK-4307-son karori ijrosini ta’minlash maqsadida 2019-yil 31-dekabr.

4. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining navbatdagi sesiyasidagi ma’ruzasi. 2019-yil.07.03

Lazokatxon SHABDULLAYEVA,
Andijon davlat tibbiyot instituti, “O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

IMOM AL-BUXORIY ASARLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Har bir mamlakatning poydevori yosh avlod hisoblanadi. Yoshlar yurt kelajagidir. Yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim vazifadir. Yosh avlodga kerakli bilimlarni berish orqali biz kelajagimiz poydevorini mustahkam qurishimiz mumkin. Yosh avlodaga ilg‘or bilim berishda ajdodlarimizning asarlaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu maqolada muhaddis olim Imom al-Buxoriy asarlarining pedagogik ahamiyati keng yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Imom al-Buxoriy, ta’lim, pedagog, tizim, yosh avlod, ta’lim- tarbiya, hadis, odob-axloq, ma`naviyat, madaniyat, pedagogika.

Основа каждой страны – молодое поколение. Молодёжь – будущее страны. Важной задачей является воспитание молодых людей, чтобы они стали зрелыми и всесторонне развитыми личностями. Передавая необходимые знания молодому поколению, мы можем заложить прочный фундамент для нашего будущего. Труды наших предков широко используются для передачи передовых знаний подрастающему поколению. В данной статье широко освещено педагогическое значение трудов мухаддистоведа Имама аль-Бухари.

Ключевые слова. Имам аль-Бухари, образование, педагог, система, молодое поколение, образование, хадис, нравы, духовность, культура, педагогика.

The foundation of every country is the young generation. Young people are the future of the country. It is an important task to educate young people to become mature and well-rounded individuals in all respects. By imparting the necessary knowledge to the younger generation, we can build a solid foundation for our future. The works of our ancestors are widely used to provide advanced knowledge to the younger generation. In this article, the pedagogical importance of the works of Muhaddith scholar Imam al-Bukhari is widely covered.

Key words. Imam al-Bukhari, education, pedagogue, system, young generation, education, hadith, manners, spirituality, culture, pedagogy.

Yangilanayotgan O‘zbekistonimiz Renessans davrining 3-bosqichini boshidan kechirmoqda. Bugungi kunda islohotlar soni ko‘paymoqda. Bu islohotlarning juda katta qismi ta’lim sohasiga qaratilmoqda. Bunga asosiy sabab yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda ta’lim tizimi muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni ongiga o‘zbek milliy madaniyatini va milliy tuyg‘usini singdirish muhim vazifalardan biridir. Har bir yosh avlodni odobli va andishali qilib tarbiyalashda ta’lim tizimining o‘rni beqiyosdir. Ta’lim tizimida buyuk mutafakkirlarimizning asarlarini o‘rganish va ular amalda ko‘rsatib o‘tgan metodlardan keng ko‘lamda foydalanish orqali samarali yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, muhaddis olim Imom al-Buxoriy bobomizning asarlarini o‘rganish orqali o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225-yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori (1997-yil.

29 aprel.) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. (1998-yil 23-oktabrda). Samarqandda yubiley to‘y-tantanalari bo‘lib o‘tdi.Buxoriyning boy ma’naviy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi tuzildi (1998-yil 4-noyabr; raisi Zohidillo Munavvarov). Jamg‘armaning asosiy vazifasi Qur’oni karim va Buxoriyning “Al Jome as-sahih”i tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o‘tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an’analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. Toshkent Islom institutiga Buxoriy nomi berilgan. Buxoriyning hayoti va ijodiga bag‘ishlab bir necha tillarda kitob, albom, 2 qismli film (1995), “Hadis ilmining sultoni” 4 qismli kinoqissa (1998) yaratilgan.

Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o‘zining go‘zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatliligi, himmatliligi va beqiyos saxovatliligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o‘tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g‘oyat shuhrat qozongan. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan. Imom al-Buxoriyning hadislari ta’lim tizimizda qo‘llanilib kelinayotgan darsliklardan joy olgan. Har bir o‘quvchini keng mushohadaga solib qo‘yadigan bu hadislar o‘quvchini hayot davomida o‘zgarib borayotgan xulq-atvoriga va odob-axloqiga ijobiy ta’sir qiladi. Ayniqsa, o‘smir yoshdagi yosh o‘g‘il-qizlarga Imom al-Buxoriy bobomizning hadislari to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi vosita hisoblanadi. Imom al-Buxoriy asarlarining pedagogik ahamiyati ham mana shunda. Muhadis olimning hadislari har qanday o‘quvchini qalbini zabt eta oladi hamda odobli bo`lib voyaga yetishida xizmat qiladi. Bilim olishning qanchalik savobli ekanligini, bilimli kishi hech qachon xor bo‘lmasligini o‘quvchilar anglab yetadi. Alloma ibn Salohning ta’kidlashicha, Al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo‘lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. Jumladan, taniqli adib va tarixchi an-Nuvayriy (1332 -yilda vafot etgan) al-Buxoriyning ushbu asaridan sakkiz nusxa ko‘chirib, har birini ming dirhamdan sotgan. 1325 -yilda ko‘chirilgan sakkiz jilddan iborat go‘zal bir nusxasi hozir Istanbulda saqlanmoqda. “Al-Jome as-sahih”ga ko‘pdan-ko‘p sharhlar bitilgan bo‘lib, muhim manba sifatida u qayta-qayta nashr ham qilingan. Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo‘lgani “Al-jome’ as-Sahih”dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo‘lgan ilmlarga oid bir qator o‘ta ahamiyatli kitoblar yozdi.

Buxoriy yaratgan “Kitob alfavoid” (Foydali ashyolar haqida kitob), “Al Jome al-kabiyr” (Katta tayanch), “Xalq af’ol alibod”, (Alloh bandalari ishlarining tabiati), “Al Musnad al-kabiyr” (Katta tayanch), “Attafsir alkabiyr”(Katta tafsir), “Kitob alxiba” (Xayrehson haqida kitob) va boshqa asarlarning ba’zilari bizgacha yetib kelmagan. Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo‘lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan “Al-jome as-sahih”, “Al-adab al-mufrad’, “At-ta’rix as-sag‘ir”, “At-ta’rix al-avsot”, “At-ta’rixal-kabir”, “Kitob al-ilal”, “Barr ul-volidayn”, “Asomi us-sahoba”, “Kitob al-kuna” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Buyuk allomaning eng muhim asari, shubhasiz, “Al-jome’ as-sahih”dir. Imom al-Buxoriy asarlarining ko‘p qismi nafaqat bizning yurtda boshqa mamlakatlarda ham ta’lim tizmining beqiyos namunasi hisoblanadi. Qohira, Quvayt, Abu-Dabi, BAA va bir nechta arab davlatlarida ham Imom al-Buxoriy asarlari ta’lim sohasida keng qo`llanilib kelinmoqda.

Imom al-Buxoriy to‘plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta’limotiga oid umumiy

qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko‘ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik va halollikka da’vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o‘zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo‘l-yo‘riqlar, pand-nasihat va o‘gitlar aks ettirilgan. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida payg‘ambar alayhissallom sunnatlari bo‘yicha asosiy darslik, qo‘llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olim-u ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abu Abdulloh ibn Ismoil Al-Buxoriy. “Al-adab al-mufrad” – T.: O’zbekiston, 1999.
2. Hoshimov K. Nishonova S Pedagogika tarixi. Darslik – T: O’qituvchi, 2005-yil.
3. Mansurov A., Jo’rayev., Lafasov., M Hadis ilmi saboqlari. – T.:1999, G‘ofur G‘ulom nashriyoti.
4. Usmonxon Hoji Temurxon o’g’li va Baxtiyor Nabixon O’gli., Imom Al-Buxoriy Muhaddislar Sultoni. – T.: 1999.
5. Khaydarov, S. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. Cutting edge-science. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
6. Davrenov, J., Haydarov, S. (2021). Tarix fanini o’rganishda xvi-xviii asrlarda yaponiya davlati tarixini ahamiyati. Scientific progress, 1(6).
7. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). Tarix fanini o’qitishda ispaniya XV-XVII asrlardagi tarixi. Scientific progress, 1(6).
8. https://www.Ziyo.net
9. https://www.scientificprogress.uz
10. https://www.Pedagog.uz

Zilola XUDOYBERDIYEVA,
O'zbekiston respublikasi bank moliya akademiyasi magistri

BANK TIZIMIDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR VA KOMMUNIKATSION SIYOSATINI YO'LGA QO'YISHDA SAMARALI LOYIHA TUZISH VA UNI AMALGA OSHIRISH (Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Valyuta jamg'armasi tajribalari misolida)

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy bank tizimida jamoatchilik bilan aloqalar va kommunikatsion siyosatni yo'lga quyishdagi loyihalarni amalga oshirish va uarni amalda qulash to'g'risida ko'pgina masalar yoritib berildi.Bank tizimida jamoatchilik bilan aloqalar va kommunikatsion texnologiyalarning qanchalik muhimligi va dolzarbligi yoritib berildi.

Tayanch so'zlar. Bank, zamonaviy bank tizimi, jamoatchilik bilan aloqalar, kommunikatsia, loyiha, texnologiya.

В статье освещены многие вопросы реализации проектов и реализации политики связей с общественностью и коммуникаций в современной банковской системе. Была разъяснена важность и актуальность связей с общественностью и коммуникационных технологий в банковской системе.

Ключевые слова. Банк, современная банковская система, связи с общественностью, коммуникация, проект, технология.

In the article, many issues about the implementation of projects and implementation of public relations and communication policy in the modern banking system were highlighted. The importance and relevance of public relations and communication technologies in the banking system was explained.

Key words. Bank, modern banking system, public relations, communication, project, technology.

Kredit tashkilotlarida jamoatchilik bilan aloqalar PR faoliyatining eng qiyin yo'nalishlaridan biridir. Bu xizmatlarning nomoddiyligi, tizimning murakkabligi, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Biroq, bank sektorining rivojlanishi va raqobatning kuchayishi tufayli kredit tashkiloti samarali jamoatchilik bilan aloqalarsiz ishlamaydi. Bankdagi PR - bu bank va aholi o'rtasida qulay munosabatlar va o'zaro tushunishni saqlashga qaratilgan rejalashtirilgan harakatlar majmuidir. Shuni ta'kidlash kerakki, bankning PR faoliyati ham maqsadli auditoriyaga, ham investorlarga (kapitalni jalb qilish uchun) qaratilgan. Shunday qilib, bank sektoridagi PR ob'ektlari tashqi maqsadli auditoriya, ichki maqsadli auditoriya (xodimlar) va investorlardir. Aholi o'rtasida banklarga nisbatan ishonchsizlik ortib borayotganligi sababli bankdagi PRning eng muhim vazifalaridan biri uning obro'sini shakllantirish hisoblanadi. Keling, PR vositalari va usullaridan foydalangan holda bank obro'sini shakllantirishning asosiy bosqichlarini ko'rib chiqaylik.

1-bosqich. Bankning obro'-e'tibori konsepsiyasini yaratish. Bu bankning tashqi imidjini yaratish uchun asos bo'ladi (bankning missiyasi, maqsadlari, vazifalari, qadriyatlari va tamoyillari).

1. U yoki bu PR strategiyasi ishlab chiqiladigan maqsadli auditoriyani aniqlash (mijozlar, hamkorlar, moliyaviy doiralar, investorlar, xodimlar va boshqalar). Har bir maqsadli auditoriya uchun maxsus PR vositalari tanlanadi.

2. Maqsadli auditoriyani (ijtimoiy, psixologik, demografik, moliyaviy va boshqalar) to‘liq tahlil qilish.

3. Bankning missiyasini ishlab chiqish (bank nima uchun yaratilgan va faoliyat yuritadi), asosiy maqsad va bank xizmatlari turlarini belgilash.

4. Bank intiladigan ideal obro‘ modelini ishlab chiqish.

2-bosqich. Bankning obro‘si va obro‘ kapitalini shakllantirish.

1. Maqsadli auditoriya ongiga bankning ishonchli kredit muassasasi sifatidagi imidjini kiritish. Bu yerda jamoatchilik bilan aloqalarning asosiy vositalari va usullari qo‘llaniladi:

2. Korporativ identifikatsiyani rivojlantirish

3. Ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro aloqalar (publika, maqolalar, press-relizlar, intervyular, press-turlar, matbuot anjumanlari va boshqalar)

4. Internetdagi kommunikatsiyalar (veb-sayt, elektron ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, sharhlar va boshqalar)

5.Maxsus tadbirlar (hodisalar) va boshqalar.

6.Reklama

7.Xayriya

8.Homiylik

3-bosqich. Bankning ijobiy obro‘sini saqlab qolish.

1. Ommaviy axborot vositalarida va internetda paydo bo‘layotgan bank haqidagi barcha ma’lumotlarni turli usullar, jumladan, matbuotdan qirqish, kontent tahlili va boshqalar yordamida tizimli monitoring qilish, tahlil qilish va qayta ishlash.

2. Salbiy fikrlar va sharhlarni aniqlash va ularni ijobiyga aylantirish, shuningdek rad etish (kerak bo‘lsa).

3. Kommunikatsion faoliyat (axborot tadbirlarini yaratish, maxsus tadbirlarni o‘tkazish, PR kompaniyalarini o‘tkazish, rebrending va boshqa PR usullari) orqali bankning ijobiy obro‘sini muntazam mustahkamlash.

Zamonaviy sharoitda bank sektorida marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning dolzarbligi asoslab berilgan. Bank bozorida tarqatiladigan ma’lumotlarning majburiy va ixtiyoriy asosida tuzilgan tasnifi berilgan:

– maxfiylik darajasiga ko‘ra: ochiq va yopiq;

– manba bo‘yicha: rasmiy va norasmiy;

– turi bo‘yicha: yangiliklar, tahliliy, majoziy;

– operatsion ma’lumotlar; qonunlar va qoidalar, professional va korporativ standartlar, rasmiy bayonotlar, sharhlar, professional biznes tahlillari uchun janr bo‘yicha;

rasmiy, ishbilarmonlik, professional, aralash ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan ommaviy axborot vositalarining turlari bo‘yicha: ichki va tashqi shakllanish va to‘planish sohasida.

Bank sektoridagi kommunikatsiyalar murakkab jarayon ekanligi isbotlangan, uni ishlab chiqishda mahsulotlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni iste’molchi tomonidan idrok etish xususiyatlarini hisobga olish kerak. Bank bozorida aloqa almashinuvi sohasida qo‘llaniladigan marketing vositalarining asosiy majmuasi aniqlandi. Aniqlanishicha, banklar o‘z faoliyatida aniq maqsadlarga erishish uchun an’anaviy marketing kommunikatsiyalarining (reklama, PR, savdoni rag‘batlantirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing, shaxsiy savdo) va noan’anaviy vositalardan, masalan, virusli marketingdan

to‘liq foydalanishi mumkin. Banklar ushbu vositalarni integratsiyalashgan holda qo‘llashdan maksimal samaradorlikka erishishga intilishadi, ammo o‘rnatilgan amaliyotga ko‘ra, ular reklama va PRdan foydalanishda ustunlik beradi. Axborot texnologiyalarining umumiy rivojlanishi bilan birga iste’molchi va moliyaviy bozorlardagi so‘nggi o‘zgarishlar mutaxassislar va bozor tadqiqotchilarining e’tiborini ushbu o‘zgarishlarni o‘rganishga jalb qilmoqda. Ushbu tadqiqotlar kontekstida bozor faolligini ta’minlaydigan mutlaqo yangi aloqa kanallarining ishlash muammolari alohida o‘rin tutadi. Xususan, bank bozorida kommunikatsiyalarni rivojlantirish yo‘nalishlari juda dolzarb va o‘rganish uchun qiziqarli bo‘lib, ularning tez o‘zgarishi hozirgi vaqtda Rossiya va chet eldagi bank aloqalari barcha ishtirokchilarining e’tiborini tortmoqda. Bank xizmatlari iste’molchisi uchun uni qiziqtiradigan muayyan kredit mahsulotining narxi va boshqa xususiyatlari to‘g‘risida ishonchli va to‘liq ma’lumot olish kerak. Iste’molchilarni o‘z mahsulotlarining xususiyatlari to‘g‘risida xabardor qilish uchun global va mahalliy amaliyotda marketing aloqalarining turli xil kanallari qo‘llaniladi, ular umuman mahsulot to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yaratish, saqlash yoki saqlash uchun maqsadli auditoriyaga uzatish jarayonini ifodalaydi. Aniq mahsulot (tovar), xizmatlar, tashkilotlar va boshqalarga nisbatan maqsadli auditoriyaning pozitsiyalari yoki xatti-harakatlarini o‘zgartirish.

Chunki marketing kommunikatsiyalarining ob’ekti axborot bo‘lib, uni turli mantiqiy tamoyillarga asoslanib, quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Majburiyat asosida: majburiy, ya’ni qonunda nazarda tutilgan ixtiyoriy yoki tashabbus, ya’ni moliyaviy tuzilma yoki ommaviy axborot vositalari tashabbusi bilan joylashtirilgan. Tashabbus ma’lumotlari, o‘z navbatida, tijorat va notijorat reklama, PR ma’lumotlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Shuni yodda tutish kerakki, bank sohasida tijorat reklamasi klassik formulaga asoslanadi: diqqat-qiziqish-istak-harakat. Shunga ko‘ra, masalan, bank reklamasining maqsadi bank (savdo belgisi) va uning xizmatlari (mahsulotlari) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish, brend va mahsulot imidjini shakllantirish va mustahkamlash, ma’lum bir xizmatga talabni boshlash va maksimal darajada oshirishdir. Muayyan bankning, shu tariqa bankni ishbilarmonlik muhitida ilgari surish, uning foydasini oshirishdir.

2. Maxfiylik darajasiga ko‘ra: ochiq axborot, yopiq axborot.

3. Axborot manbalari bo‘yicha: rasmiy manbalar (qonun hujjatlari, mansabdor shaxslarning rasmiy bayonotlari va boshqalar), norasmiy manbalar.

4. Axborot turlari bo‘yicha: yangiliklar, analitik, majoziy,operatsion ma’lumotlar va boshqalar.

5. Janr bo‘yicha: qonun va qoidalar, professional va korporativ standartlar,rasmiy bayonotlar, sharhlar, professional biznes tahlillari (sharhlar, prognozlar, versiyalar, fikrlar, so‘rovlar).

6. Axborot joylashtiriladigan ommaviy axborot vositalarining turlari bo‘yicha: rasmiy biznes (universal, ixtisoslashtirilgan, yuqori ixtisoslashgan, professional, korporativ), aralash turi.

7. Ta’lim va to‘plash sohasida: tashqi (tashkilotdan tashqari muhitda shakllanadigan, uning faoliyati bilan bog‘liq va bevosita bog‘liq bo‘lmagan turli xil ma’lumotlar) va ichki (tashkilotning tashqi muhitida shakllantiriladigan jarayonda uning ishlashi).

Shunday qilib, bank sektoridagi kommunikatsiyalar murakkab jarayon bo‘lib, uni ishlab chiqishda mahsulotlarning o‘ziga xos xususiyatlarini va iste’molchilarning idrok etish xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Yuqoridagilarni tizimlashtirgan holda shuni ta’kidlash joizki, bank sohasida

kommunikatsiyalarni boshqarish quyidagi qator xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga e’tibor berish bank sektoridagi kommunikatsiyalarni imkon qadar samarali boshqarish imkonini beradi.

Bank sektoridagi kommunikatsiyalarning xususiyatlari:

1) mahsulotning nomoddiyligi;

2) mahsulot sifati;

3) xizmatlarning cheklangan doirasi;

4) bank xizmatlari iste’molchisining shubhasi xizmatlarning nomoddiyligi va xizmatni idrok etish omilining roli.

Bank xizmatlari, qoida tariqasida, ma’nosiz va mavhumdir. Mijoz bank mahsulotlaridan foydalanganda ma’lum moliyaviy foyda yoki moliyaviy himoya oladi, moliyaviy faoliyatni optimallashtiradi. Shuningdek, agar kerak bo‘lsa, mijozning bank bilan munosabatlari paydo bo‘lishi mumkin, bu iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish talablari bilan bog‘liq. Bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular ishonch va shartnoma asosida qurilgan. Bunday holda, mijozning xizmat ko‘rsatuvchi bankka munosabati turli xil idrok stereotiplariga asoslanadi. Shaxs bank mijozi bo‘lib qolishi mumkin, chunki bank uni ba’zi mahsulotlarning narxi bo‘yicha to‘liq qoniqtirmaydi. Shunday qilib, mijoz barcha stereotiplar yig‘indisidan ko‘proq parametrlar bo‘yicha o‘ziga mos keladigan moliyaviy tashkilotlar va xizmatlarni tanlaydi.

Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (inglizcha European Bank for Reconstruction and Development) — Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, shuningdek, MDH ga a’zo mamlakatlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga yordam ko‘rsatuvchi xalqaro bank. 1990-yilda 42 ta a’zo mamlakat hukumatlari tomonidan 10 mlrd. ekyu mablag‘ bilan tashkil etilgan. 1991-yildan faoliyat olib boradi. Shtab-kvartirasi Londonda joylashgan. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida bo‘lgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar (davlat mulki va korxonalarini xususiylashtirish hamda monopoliyadan chiqarish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va moliya sektorlariga investitsiyalarni jalb etish, kapital bozorini shakllantirish va boshqa)ga moliyaviy yordam ko‘rsatadi va ularni jahon iqtisodiy hamjamiyatiga tezroq qo‘shilishiga ko‘maklashadi. Bank kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlar sinfini shakllantirish masalalariga katta e’tibor beradi. Transport, energetika, ishlab chiqarish sohalaridagi yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashda ishtirok etadi. Bank resurslarining kamida 60 foizi xususiylashtirilayotgan davlat korxonalari yoki xususiy sektor korxonalariga, 40 foizi infratuzilma yoki boshqa loyihalarga yo‘naltiriladi. 1997-yilda bank tomonidan Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda moliyaviy ta’minlangan loyihalar qiymati 240 mln. ekyuni tashkil etdi. O‘zbekiston 1992-yil boshida Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Bankiga a’zo bo‘ldi va shu yili Toshkent shahrida uning vakolatxonasi ochildi. 1993-yildan O‘zbekistonda loyihalarni amalga oshirishda ishtirok eta boshladi. 1994-yil 10-yanvarda Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Bankining Direktorlar kengashi O‘zbekiston Respublikasiga loyihalarni moliyalash masalalari bo‘yicha salbiy garov shartlarini bekor qildi.

Londonda joylashgan qarorgohi hamda boshqa joylarda joylashgan ofislari o‘rtasida bo‘lingan Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki uch bosqichli tuzilmadan iborat bo‘lib, birinchi bosqich prezident va jamoasi, ikkinchi bosqich boshqaruv kengashi va uchinchi bosqich direktorlar kengashidan iborat. Vaqt o‘tishi bilan moliya muassasasi ichidagi raqobat bilan bog‘liq xavotirlar tufayli bank tuzilishi o‘zgardi. Haqiqatda, 90-yillarning boshida ikki xil bank bo‘linmasi faoliyat yuritardi (bir tomonda xususiy sektor bilan

bog‘liq bo‘lgan savdo banki, boshqa tomondan, asosan, davlat sektori bilan ishlaydigan taraqqiyot banki). Binobarin, ikkita bo‘linma, bittaga birlashtirildi va bu tuzilma boshqasiga almashtirildi, o‘rniga yettita siyosat va mintaqaviy bo‘linmalarga bo‘lindi .

Boshqaruv kengashi – ushbu kengash har bir a’zo davlatdan vakillar tuzadi, ular vakolatga ega.

Direktorlar kengashi- boshqaruv kengashi tomonidan saylangan 23 nafar a’zodan iborat. Ushbu a’zolar Boshqaruv kengashida bo‘la olmaydilar. Uning vazifasi bankning umumiy faoliyatini tashkil qilishdan iborat, xususan:

– Budjetni tasdiqlash;

– Boshqaruv kengashiga muvofiq siyosayni belgilash va boshqa qarorlar, kreditlar, investitsiyalarni ishlab chiqish;

– Boshqaruv kengashi ishini tayyorlash;

– Har yili tekshirilgan hisobotlarni Boshqaruv kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etish.

YTTBning O‘zbekistondagi faoliyati

Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki O‘zbekistonda moliyaviy sektor va bank infratuzilmasini rivojlantirish, energetika majmui, turizmni rivojlantirish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, bozor infratuzilmasini shakllantirish, tabiiy resurelarni o‘zlashtirish, paxtani qayta ishlash va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarini taraqqiy ettirish kabi yettita yo‘nalishda faoliyat yuritadi. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki Farg‘onadagi neftni qayta ishlash zavodini jihozlash (umumiy qiymati 81,5 mln. ekyu), energetika ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va Sirdaryo GRESning xalqaro andozalarga muvofiqligini ta’minlashga qaratilgan (umumiy qiymati 25,2 mln. ekyu) va Toshkent xalqaro aeroportini ta’mirlash, shuningdek, xavfsizlikni oshirish uchun maxsus jihozlar sotib olish (umumiy qiymati 43,5 mln. ekyu) loyihalarni amalga oshirish uchun kreditlar ajratdi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki ishtirokida umumiy qiymati 1 mlrd. AQSH dollaridan ortiq bo‘lgan 15 ta loyiha amaliyotga joriy etilmoqda (bunda bankning bevosita moliyalashdagi ulushi 597,7 mln. AQSh dollariga teng). Xususan, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki tomonidan O‘zbekistonda o‘rta va kichik biznesni rivojlantirish maqsadida 120 mln. AQSh dollaridan iborat kredit berildi. Shundan 60 mln. AQSh dollari hukumat kafolatisiz O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankiga, 60 mln. dollari esa hukumat kafolati bilan boshqa tijorat banklariga berilgan.Bank kreditlar ajratishdan tashqari mamlakatlarga loyihalarni tayyorlashda yordam ko‘rsatadi.

1992-yil O‘zbekiston XTTB ga a’zo bo‘lib kirdi va 1993-yilda uning vakolatxonasi Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsata boshladi. 1993-yil noyabr oyida O‘zbekiston uchun mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, moliyaviy sektorni rivojlantirish bo‘yicha tarkibiy yo‘nalish va dasturlarni ishlab chiqishni moliyalashtirish uchun 21,0 mln. AQSH dollari miqdorida dastlabki qarz mablag‘lari ajratildi. 1994-2000-yillarda bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida turli loyihalarni moliyalashtirish maqsadida jami 458,0 mln. dollar miqdorida qarz mablag‘lari ajratildi. Ulardan eng yiriklari mamlakatimizda paxtachilikni rivojlantirishga (66,0 mln. dollar) va suv ta’minoti, sanitariya va salomatlik tadbirlarini moliyalashtirishga (75,0 mln. dollar) sarflandi. 2003-yilda Jahon bankining Direktorlar kengashi O‘zbekistonga 60,0 mln. dollar miqdorida (uning yarmi XTTB tomonidan 20-yil muddatga imtiyozli foiz stavkalarida) kredit mablag‘lari ajratish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) 1991-yildan buyon faoliyat yuritib, ochiq

bozorga yo‘naltirilgan iqtisodiyotga o‘tishni, shuningdek, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarida xususiy va tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlovchi institutdir. Xususiy bank sektor bilan hamkorlikka e’tibor qaratgan holda, loyihalarga sarmoyalar kiritadi, davlat siyosati masalalari bo‘yicha muloqot olib boradi va innovatsiyalarni rivojlantirish, barqaror va ochiq bozor iqtisodiyotini barpo etish uchun texnik yordam ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Уровень доступности финансовых услуг в Российской Федерации. Режим доступа: http: www.infinplan.ru/system/files/u772/Samiev.pdf.

Список литературы:

2. Харламова И. Ю. Исследование потребительского поведения в условиях кризиса Научное обозрение. 2016. №20. С. 166-169.

3. Смирнов Н. А., Суслов С. А., Игошин А. Н. Экономика отрасли: учебно-методическое пособие. Княгинино, 2016.

4. Никулина О. В., Шилова В. И. Управление валютными рисками при совершении операций с ценными бумагами на фондовых рынках зарубежных стран Научное обозрение. 2015. №11. С. 260-268.

5. Архипченко В. В. Проблемы оценки себестоимости банковских продуктов Управление в кредитной организации. 2009. №4. С. 61-66.

6. Никулина О. В., Мануйлова Е. С. Совершенствование банковского финансирования малого инновационного предпринимательства в России и за рубежом Экономика и предпринимательство. 2016. №1-1 (66-1). С. 905-910.

7. Барнетт Дж., Мориарти С. Маркетинговые коммуникации. Интегрированный подход. СПб.: Питер, 2002.

8. Хлусова О. С., Юшко Ю. А. Направления повышения финансовой надежности коммерческого банка Приоритетные научные направления: от теории к практике. 2015. №16. С. 154-159.

9. Никулина О. В., Иванова Н. В. Развитие инновационных технологий в банковской деятельности Экономика: теория и практика. 2013. №4 (32). С. 20-26.

10. Кулягина Е. А., Бедулина В. В. Современные взгляды (концепции) на экономическое содержание прибыли Транспортное дело России. 2016. №2. С. 14-17.

11. Козырь Н. С., Гетманова А. В. Технологии в сфере дистанционного банковского обслуживания: анализ и перспективы развития Финансовая аналитика: проблемы и решения. 2016. №25 (307). С. 14-29.

Dilafruz ZIKRIYAYEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, magistrant

BANKLARDA VALYUTA OPERATSIYALARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda valyuta xavfini kamaytirish uchun bank valyuta pozitsiyasining maxsus iqtisodiy ko’rsatkichi valyuta kurslarining o’zgarishi natijasida yuzaga keladigan xavflarni aniqlash va cheklashga yordam berishi xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, banklarda valyuta operatsiyalari auditini takomillashtirish bo‘yicha ustavlar, qaror va huquqiy me’yor hujjatlardagi talablar batafsil tahlil qilianadi.

Tayanch so‘zlar. Bank, valyuta, audit, risk, mijoz, raqobat, davlat.

В статье подробно анализируются, как специальный экономический индикатор валютной позиции банка помогает выявить и ограничить риски, возникающие при изменении валютного курса, с целью снижения валютного риска при проведении валютных операций. Также в статье, приводятся результаты изучения требований уставов, решений и правовых норм по совершенствованию проверки валютных операций в банках.

Ключевые слова. Банк, валюта, аудит, риск, клиент, конкуренция, государство.

The article analyzes in detail how a special economic indicator of a bank’s currency position helps to identify and limit the risks that arise when the exchange rate changes, in order to reduce currency risk when conducting foreign exchange transactions. The article also provides the results of a study of the requirements of charters, decisions and legal norms to improve the verification of foreign exchange transactions in banks.

Key words. Bank, currency, audit, risk, client, competition, state.

Ma’lumki, iqtisodiy standartlarni hisobga olish va hisoblash maqsadida banklarning valyuta operatsiyalari ikki guruhga bo‘linadi:

1) bankning valyuta pozitsiyasiga ta’sir qiladi, chunki ular ayirboshlash operatsiyasi xususiyatiga ega va ikki xil valyutada amalga oshiriladi. Bu naqd va naqd bo‘lmagan xorijiy valyutani sotib olish va sotish, daromadlarni (xarajatlarni) hisoblash, olish (to‘lash), ustav fondlariga mablag‘larning kelib tushishi, pul majburiyatlari valyutasining o‘zgarishi, zaxiralarni shakllantirish, mulkni sotib olish va sotish, boshqa yuridik shaxslarning ustav fondlariga kapital qo‘yilmalar.

2) valyuta pozitsiyasiga ta’sir qilmaydi, chunki ular ayirboshlash operatsiyasi xususiyatiga ega emas va bir xil valyutada amalga oshiriladi. Bularga kredit operatsiyalari, depozit operatsiyalari, qimmatli qog‘ozlar, debitorlar va kreditorlar bilan operatsiyalar va boshqa operatsiyalar kiradi. Shu bilan birga, xorijiy valyutadagi barcha turdagi daromadlar (xarajatlar) (qabul qilingan, to‘langan foizlar, komissiyalar, boshqa bank daromadlari (xarajatlari)) bankning valyuta pozitsiyasiga ta’sir qiladi.

Valyuta pozitsiyasi bankning chet el valyutasi va qimmatbaho metallardagi talablari va majburiyatlari miqdorini tavsiflaydi. Da’volar miqdori va bank majburiyatlari miqdori teng bo‘lganda yopilishi va ular mos kelmaganda ochilishi mumkin.

Ochiq valyuta pozitsiyasi xorijiy valyutadagi talablarni aks ettirsa, “uzun” (“ortiqcha”

belgisi bilan yoziladi) yoki chet el valyutasidagi majburiyatlarni aks ettirsa (“minus” belgisi bilan) “qisqa” bo‘ladi. Uzoq va qisqa pozitsiyalar orasidagi farq aniq pozitsiyani tashkil qiladi.

Bank valyuta pozitsiyasining auditi uni hisoblash tartibining to‘g‘riligini aniqlashga qaratilgan.

Bankning chet el valyutasida ifodalangan talablari va majburiyatlari balansda ham, balansdan tashqari barcha hisob varaqlarda ham tekshiriladi. Bunda tuzilgan, lekin bajarilmagan va balansda aks ettirilmagan bitimlar (xorijiy valyutani, shuningdek spot, forvard, svop, fyuchers va optsion operatsiyalari natijasida sotib olingan yoki sotilgan qimmatbaho metallarni olish va yetkazib berish uchun) hisobga olinadi. Shu bilan birga, ochiq valyuta pozitsiyasini hisoblashda faqat iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra balansdan tashqari talablar va majburiyatlar kiritiladi.

Ochiq valyuta pozitsiyasi holatini nazorat qilish uchun valyuta riskini cheklashning quyidagi standartlari belgilangan:

1) barcha turdagi xorijiy valyutalar bo‘yicha jami ochiq valyuta pozitsiyasining miqdori bank normativ kapitalining 20 foizidan oshmasligi kerak;

2) har bir chet el valyutasi turi bo‘yicha sof ochiq valyuta pozitsiyasining qiymati bankning normativ kapitalining 10 foizidan oshmasligi kerak;

3) xorijiy valyutaning har bir turi bilan alohida-alohida forvard operatsiyalari bo‘yicha sof ochiq pozitsiyaning qiymati bankning normativ kapitalining 10 foizidan oshmasligi kerak. Ushbu limitni hisoblashda svop shartnomalarining forvard qismi hisobga olinmaydi.

Valyuta operatsiyalariga chet el valyutalarini sotib olish, sotish va konvertatsiya qilish kiradi.

Chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalari auditi bitimlar tuzish va yakunlashning belgilangan tartibiga rioya etilishini tekshirishga asoslanadi.

Chet el valyutasining rezident xaridoriga xizmat ko‘rsatuvchi bank sotib olingan valyutadan maqsadli foydalanishni nazorat qilishi shart. Buning uchun mijoz chet el valyutasida maxsus hisob ochadi, u foydalanilgunga qadar uni saqlash uchun mo‘ljallangan. Boshqa manbalardan olingan chet el valyutasini maxsus hisob raqamiga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Valyuta operatsiyalarining sub’ektlari - rezidentlar zaruratga qarab, o‘zlari belgilaydigan xorijiy valyutani ichki valyuta bozorida sotish (konvertatsiya qilish) huquqiga ega, birjada majburiy sotilishi shart bo‘lgan valyuta bundan mustasno.

Birjadan tashqari bozorda chet el valyutasini sotib olish, sotish, konvertatsiya qilish valyuta operatsiyalari sub’ektlari tomonidan bank o‘tkazmasi (sotib olish bilan o‘tkazish, sotish bilan o‘tkazish, konvertatsiya qilish bilan o‘tkazish) doirasida ariza topshirmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish norezident tomonidan faqat o‘zbek so‘mida chet el valyutasida (sotib olingan valyuta hisobiga) ochilgan bank orqali amalga oshiriladi. Valyuta bozorida sotish va konvertatsiya qilish norezident tomonidan uning chet el valyutasida hisob raqami ochilgan bank orqali arizasi asosida amalga oshiriladi.

Birjadan tashqari ichki bozorda norezidentlar istalgan banklar orqali valyuta operatsiyalarini amalga oshirishlari mumkin. Shu bilan birga, norezidentning hisob raqami so‘mda ochilgan bankdan chet el valyutasini olish ariza topshirib sotib olish bilan o‘tkazish mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Chet el valyutasini norezidentning xorijiy valyutadagi hisob raqami ochilgan bankka sotish va konvertatsiya qilish ham ariza berish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, valyuta riskini tekshirishda auditning metodologik ahamiyati katta. Auditning maqsadi esa bankda faoliyat ko‘rsatayotgan ichki nazorat tizimining valyuta riskining paydo bo‘lishiga olib keladigan operatsiyalarga muvofiqligini va umuman valyuta riski darajasini mustaqil va ob’ektiv baholashdir. Auditning vazifalariga valyuta riskini boshqarish tizimining bosqichma-bosqich auditini o‘tkazish, shu jumladan identifikatsiyalash (identifikatsiya qilish), o‘lchash (baholash), maqbul darajani aniqlash, shuningdek valyuta riski darajasini va uni cheklashni nazorat qilish yuklatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. М.Ж. Темирханова, Совершенствование бухгалтерского и налогового учета и отчетности в туристических компаниях в Республике УзбекистанСовершенствование налоговой политики государства в условиях глобализирующейся экономики. Тамбов, 15 мая 2014 года, 267-275 стр.

2. Ценообразование: особые вопросы (Т. Кошелева, 4 апреля 2014 г.)

3. Темирханова М.Ж. Организация учета обязательств в туристической фирме. Экономика и предпринимательство. 2016. № 11-2 (76). С. 879-882.

Inobat TOSHPO'LATOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV KOMEPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA FAOLLIK MARKAZLARINING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faollik markazlari, ularni tashkil etish, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirishda pedagoglarning faoliyatidagi faollik markazlaring o'rni haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar. "Ilk qadam", didaktik metodlar, ta'lim-tarbiya, faoliyat, rivojlantiruvchi markazlar, faoliyat, kompetensiya, kreativlik.

В данной статье говорится о центрах активности в организациях дошкольного образования, их организации, развитии старших дошкольников и их зависимости от центров активности.

Ключевые слова. "Первый шаг", центры развития, активность, компетентность, креативность.

This article talks about activity centers in pre-school education organizations, their organization, development of older preschool children and their dependence on activity centers.

Key words. "First step", development centers, activity, competence, creativity.

Bizga ma'lumki insoniyat tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar kishilik jamiyatidan o'zaro muloqot orqali yosh avlodlarga o'tib keladi. Bu esa avlodlar o'rtasidagi ijtimoiy madaniy aloqani ta'minlaydi. Hozirgi globallashgan davrda har qanday jamiyat o'z oldiga yosh avlodni har tamonlama yetuk intelektual salohiyatli shaxs sifatida shakllanishiga alohida e'tibor bermoqda. Ertangi kun poydevori bo'lgan yoshlarga ta'lim-tarbiya berish uchun eng qulay yosh davri bu maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning psixologik xususiyatlari ijtimoiy norma va bilim ko'nikmalarni o'zlashtirishda boshqa yosh davrlaridan keskin farq qiladi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga olib chiqilib ularni moddiy-texnik bazasini rivojlantirish pedagog kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ta'lim to'g'risidagi qonunning 8-moddasida shunday deyiladi: maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Zamon talabidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari – bola o'z rivojlanishi uchun eng ahamiyatli sohalarda, shu bilan birgalikda kattalar va tengdoshlari bilan keng hissiy-amaliy o'zaro munosabati tajribasini oladigan maskandir, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola o'z ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq holda individual rivojlanishiga bo'lgan huquqini shu jarayon uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiradi; pedagog o'zining kasbiy va shaxsiyat fazilatlarini

rivojlantiradi, rahbar, bolalar va pedagoglar faoliyatining samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Ma’lumki, Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarga ta’lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad ularni sog’lom, ijodiy salohiyatli, kreativ xususiyatlarga ega barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ xususiyatlarni rivojlantirishdan oldin kreativ tushunchasi o‘zini nima, u qanday jarayon degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Kreativlik tushunchasi so‘nggi vaqtlarda nafaqat ta’lim-tarbiya balki, jamiyatning boshqa sektorlarida ham tez-tez qo‘llanilib kelinmoqda. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi (3.365).

Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega orginal g’oyalar majmui” sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish demakdir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg’ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi hamda shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi,qolaversa kreativlik zehnining o‘tkirligini belgilab beradi.

Maktabgacha ta’lim muassasasidagi bolalarda kreativ xususiyatlarni rivojlantirishda asosiy e’tibor tashkilot pedagogik jamoasiga qaratiladi. Chunki kreativ yoshlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, u samarali tashkil etilgan ta’lim-tarbiya natijasidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash, uning interfaol metodlaridan keng qamrovda foydalanish pedagogik jamoadan yuksak bilim va mehnatni talab qiladi. Ta’lim-tarbiya tizimi markazida bola shaxsi turib, uning rivojlanishi va intekktual salohiyatini tadbiq etish uchun qulay, xavotirsiz va nizosiz sharoitlar yaratilishi ko‘zda tutiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5 ta markaz faoliyat olib boradi. Ushbu markazlar tarbiyalanuvchilar uchun muhim o‘rin kasb etadi, chunki bola markazlarda erkin faoliyat olib boradi. Tarbiyachi esa ularga yordamchi sanaladi. Bu esa bolalarning nutqini, erkin fikrlashini, jismoniy,ijtimoiy bilish shu bilan birgalikda kreativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini samarali tashkil etish va uning unumdorligini oshirish maqsadida tarbiyachi ta’limiy faoliyat uchun berilgan vaqtdan unumli foydalanishi, turli texnologiyalar, usul va metodlardan foydalanib turli mashg’ulotlarni tashkil etishi, tarbiyachi bu tajribalarni puxta o‘zlashtirishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham tarbiyachi-pedagog mashg‘ulotlarni tashkil etishda mashg‘ulotlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda zamonaviy didaktik metodlar va innovatsiyalardan foydalanib ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashi talab etiladi.

Kompetensiya – bolaning bilim, ko‘nikma, malakalar va qadriyatlar majmui hisoblanadi.

Kreativ kompetensiya egallayotgan bilimlarini mustahkamligi va mukammalligini ta’minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi.

Bolaning kreativ kompetensiyasini rivojlanishida har bir markazning alohida

ahamiyati bor. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi asosida faollik markazlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

“Til va Nutq”,

“Qurish, yasash va matematika”,

“San’at”,

“Fan va tabiat”,

“Syujetli va rolli” markazlar.

Til va nutq markazi: didaktik o‘yinlar, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallarlar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasmlar, bolalar kitoblari kutubxonasi, topishmoqlar albomlari, magnit harflar to‘plami : “ Rasmli Alifbo” kubiklari, ertak kitoblari. “Til va Nutq’’markazi: bunda biror bir qutichaga mashg‘ulotga mos rasmli kartochkalar solinib, bolalar ikki guruhga bo‘linadi. Har bir guruhdan bittadan ishtirokchi chiqib, birin-ketin quti ichidan kartochka tanlab olib, rasmiga mos hikoya tuzadi yoki she’r aytadi. Markazda bolalarning do‘stlari orasida o‘z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarcha suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud. Boladagi ko‘pchilik orasida tortinchoqlik odatlari kichik guruhlarda ishlash jarayonida yo‘qola boshlaydi.

Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi: har xil qurilish to‘plamlari: kublar, legolar, bloklar, konstruktorlar, o‘ynash uchun didaktik o‘yinlar va boshlang‘ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish uchun o‘quv materiallari. Ushbu markazda bola qurish-yasashni, matematik bilimlarni, muloqotga kirishishni o‘rganadi. Shu bilan birga mayda motorika rivojlanadi, bola doimiy harakatda bo‘ladi, bilmaganlarini bir- biridan o‘rganadi, bir-biriga o‘rgatadi.

San’at markazi: tasviriy faoliyat, zarur jihozlar, xalq hunardmanchilik mahsulotlari tasvir etilgan albomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san’at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar, bolalar yozuvchisi va O‘zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblarni o‘z ichiga oladi.

Ilm, fan va tabiat markazi: atrof-muhit madaniyati bo‘yicha didaktik materiallar, “Tabiat va odam” rasmlari va illyustratsiyalari, valiologiya bo‘yicha maketlar, tabiiy materiallarlarning xususiyatlarini o‘rganish uchun materiallar, to‘plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to‘plamlari, o‘ynash uchun o‘yin mavzular to‘plamlari – uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar, qushlar.“Fan va tabiat” markazi: bu markazni xonadagi markazda yoki tabiat bag‘rida o‘tkazsa ham bo‘laveradi. Ushbu markazda bolalarning tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalari va ko‘chadan topilgan narsalar bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun foydalaniladi. Bolalar kichik tajribalar o‘tkazishi, laboratoriya tashkil etishi va o‘zlari narsa va hodisalarni o‘rganib, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydilar. Masalan, tabiatdagi tabiiy unsurlar: suv, havo va qum, tuproqning xususiyatlarini o‘rganadilar.

Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi: teatrning barcha turlari uchun atributlar va o‘yin materiallarlari, rolli, dramatik, rejissyorlik va dramatizatsiya o‘yinlari, shlyapalar,maskalar, o‘yin to‘plamlari va burchaklarda o‘ynash uchun o‘yinchoqlar masalan “Sartarosh”, “Kasalxona” va “Do‘kon” o‘yinlari atrebutlari. “Syujetli va rolli” markazi: bolajonlarning eng sevimli markazlaridan biri hisoblanadi, chunki bolajonlar bunda ertaklar tinglab, ertakdagi qahramonlarga taqlid qilib, uning rolini bajaradilar. Kimdir Zumrad, kimdir Qimmat rolini, yana kimdir quvnoq mushukcha rolini bajarishni istaydilar. Markaz bolaga nima beradi? Eng avvalo bolaning nutqi rivojlanadi, kattalar bilan muloqot qilishni o‘rganadi, qarindosh-urug’chilikni tushunadi. Mehmondo‘stlik

va mehmonda bo‘lish odobi tarbiyalanadi, kattalar mehnati bilan tanishadi, kasblarga qiziqish uyg’onadi. Ma’lum bir kasbni tanlashning ilk bosqichlari boshlanadi. Bolaning tasavvuri kengayadi. O‘rtoqlaridan bilmaganlarini o‘rganadi, pul bilan muomala qilishning dastlabki bosqichlarini bajaradi. Oilasi , oiladagi yaxshi va yomon odatlar haqidagi ma’lumotlar bola tomonidan o‘zi bilmagan holda beriladi.

MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish davlat talablari va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual sifatlari , rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan holda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Psixolog olimlar Jan Piaje, Erikson, L.S.Vigotskiy nazariyalari bo‘yicha bolani o‘rab turgan rivojlanish muhitni faollik markazlariga bo‘lishni tavsiya etadi. Buning uchun guruhdagi barcha materiallar va jihozlar sohalar bo‘yicha tartibga solinishi lozim. Bu bolalar o‘yinlari va ishlarining yanada qulay uyushtirilishiga yordam beradi. Bu sohalar faollik markazlari deb ataladi. Bugungi kunda rivojlanish markazlar deb yuritilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan faollik markazlaridagi jarayonlar tarbiyachilarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga va mustahkamlashga, kreativ qobiliyatlarini yuzaga chiqarish rivojlantirishga yordam beradi. Bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Markazlardagi bolalarning o‘yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e’tibor qaratadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan rivojlanish markaz faoliyatlarida bolalarga quyidagilar o‘rgatiladi - muammolarni eta olish; - ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish, atrof-olam to‘g’risida g’amxo‘rlik qilishni. To‘g’ri va samarali tashkil etilgan sog’lom, ijtimoiy-ma’naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag’bat uyg’otadi.

Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to‘g‘ri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga o‘ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kreativlik sifatlarini namoyon etishga, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga, tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xujamberdiyeva Sh.K., Qoraboyeva Z.T Maktabgacha pedagogika “Fan ziyosi” nashriyoti. – T.: 2023. 58, 354 betlar.

2. Qayumov B.Z. Kreativlikni shakllantirishning psixologik asoslari // “O‘zbekiston aholisining etnopsixologik va etnohududiy xususiyatlari: muammo va yechimlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Namangan. NamDU. 2022 18-may. B. 364-368

3. Qayumov B.Z. O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda ta’lim metodlarining o‘rni // Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.– T:. TDSHU. 2022 21-dekabr. B.321-325

4.Xallokova M.E,Omonjonova N.R (Xaydaraliyeva) maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlanish markazlarini samarali tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar //yangi o‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi. 2023-yil. – №. 06.

5. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – T.: 2022 yil.

Dilfuza QARSHIBAEVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumani 450-sonli DMTT direktori

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA METODIK ISHLARNI TASHKIL ETISH MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik xizmatni tashkil etishga oid olimlarning pedagogik g'oyalari, metodik ishlarning tarkibiy qismlari xususida so'z yuritiladi. MTT uslubchisining oylik ish rejasi, metodik xizmatni amalga oshirishda boshqaruv tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, ularning nazariy va amaliy bilimlarini yangilashda metodik ishlar turlicha shaklda amalga oshirilishi bo'yicha ilmiy mulohazalar yuritilgan. Metodistning asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar. Kompetensiya, psixologik muhit, metodik ishlar, ijodiy potensial, kasb mahorati, optimal, mexanizm, pedagogik jarayon, axborot, diagnostika va bashoratlash, innovatsiya, ijodiylik, ilg'or tajriba, uzluksiz malaka oshirish, zamonaviy texnologiyalar, axborot vositalari.

В статье рассматриваются педагогические идеи ученых и составляющие методической работы, связанные с организатsией методического обслуживания в дошкольной образовательной организатsии. В ежемесячном графике работы стилиста МТТ изложены принципы управления выполнением методической службы. Также проведены научные исследования по осуществлению методической работы различными способами повышения профессионального мастерства воспитателей и педагогов и актуализатsии их теоретических и практических знаний. Даны инструкции по основным направлениям деятельности методиста.

Ключевые слова. Компетентность, психологическая среда, методическая работа, творческий потенциал, профессиональные навыки, оптимал, механизм, педагогический процесс, информация, диагностика и прогнозирование, инновации, творчество, передовой опыт, непрерывное совершенствование, современные технологии, информационные средтсво.

The article discusses the pedagogical ideas of scientists and the components of methodological work related to the organization of methodological services in a preschool educational organization. The monthly work schedule of the MTT stylist sets out the principles of managing the implementation of the methodological service. Scientific research has also been carried out on the implementation of methodological work in various ways to improve the professional skills of educators and teachers and to update their theoretical and practical knowledge. Instructions are given on the main areas of activity of the methodologist.

Key words. Competence, psychological environment, methodical work, creative potential, professional skills, optimal, mechanism, pedagogical process, information, diagnostics and forecasting, innovations, creativity, best practices, continuous improvement, modern technologies, information media.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'limni zamonaviy yondashuv asosida boshqarish talab etilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodist metodik ishlarni tashkil etadi va boshqaradi. U yangiliklarni anglashi, tashabbuskor bo'lish va ma'suliyatni o'z zimmasiga olishi, muammo yechimini topa olish kompetensiyasiga ega bo'lishi zarur. Metodik ishlar maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda muhim o'rin egallaydi. Metodist pedagog-tarbiyachilarning faolligini oshiradi, ularning ijodiy

qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, pedagog-xodimlarning malakasini oshirishni ta’minlaydi. Pedagoglar bilan muntazam ishlash uzluksiz ravishda ularning pedagogik mahoratini takomillashtirishni kafolatlaydi. Bugungi kunda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish davr talabi hisoblanadi. Mahoratli metodist pedagogik jamoaning vazifasini aniq belgilaydi, ularni amalga oshirishning samarali yo‘llarini aniqlaydi. U muayyan belgilangan o‘zgarmas mexanizm bilan emas, balki bevosita ta’limiy-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etuvchi tarbiyachi-pedagoglar faoliyatiga asosan ish yuritadi. Chunki, maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishda aniq maqsadga yo‘naltirilgan reja bo‘lsada, pedagogik jarayon tarbiyalanuvchila holatiga qarab o‘zgarishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim metodikasining yirik namoyondalaridan biri L.M Volobueva izlanishlarida metodik ishlar samarali bo‘lishi uchun ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil qilishning optimal yo‘llarini izlash; bolalar uchun yaratilgan sharoitlarni o‘rganish va tahlil qilish; tarbiyachilar tomonidan pedagogik ishlarni qay darajada tashkil etilayotganligini nazorat qilish; pedagogik jamoadagi psixologik muhit va o‘zaro munosabatlarni kuzatish muhimligi asoslagan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, tashkilot faoliyati bilan bog‘liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, pedagoglarning kasb mahorati va ijodkorligini rivojlantirish maqsadida metodik xizmat amalga oshiriladi.

M.M. Potashnik fikricha “metodik ishlar mazmunini ilm-fan yutuqlariga asoslangan holda pedagoglar faoliyatida tahlil qilingan muammo va ularning yechimlari, ilg‘or tajribalar, ularni har tomonlama pedagogik mahoratini oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tashkil qiladi. Pedagogik jamoaning ijodiy potensialini rivojlantirish, ta’limda optimal natijaga erishish, bolalarning tarbiyasi va rivojlanishini ta’minlash ko‘zda tutiladi”. Maktabgacha ta’lim metodisti tajribalar o‘tkazishda ishtirok etadi va yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqishda tashabbuskorlik qiladi, ota-onalarga farzand tarbiyasida pedagogik maslahatlar uyushtiradi.

M.Fayzullayeva, M.Rustamova, D.Qarshibaevalar tomonidan metodistning oylik ish rejasi ishlab chiqilgan, bir oyga mo‘ljallangan vazifalarini kundalik faoliyatiga muqobillashtirish tamoyili asosida yuritadi.

– Pedagog-kadrlar bilan ishlash.
– Tashkiliy-pedagogik ishlar.
– Hamkorlik ishlari.
– Tadbirlarga tayyorgarlik.
– Ta’lim-tarbiya jarayonini kuzatish.

Yuqorida olimlarning mulohazalari asosida maktabgacha ta’lim tashkilotida metodik xizmatning tarkibiy qismlarini quyidagi chizmada ifodalaymiz (qarang: 1-rasm).

Axborot bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim tizimdagi yangi huquqiy me’yoriy hujjatlar bilan tanishish, tarbiyachilarga ish xujjatlarini yuritishda ko‘mak berish va reja qanday yozilishi bo‘yicha maslahatlar berish, yosh mutaxassislar uchun ta’limiy-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish yuzasidan maslahatlar berishdan iborat.

Diagnostika va bashoratlash tarbiyachi-pedagoglar faoliyatini baholash asosida tashxis qo‘yishga erishiladi. Maktabgacha ta’limga oid yangiliklar va yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha istiqbol strategiyalarni belgilaydi. O‘quv yili davomida rejani tahlil etadi va yakunida aniq yechimlar jamlanadi.

Innovatsiya va ijodiylik-metodist pedagogik jarayonga yangiliklarni joriy etish bo‘yicha tarbiyachilarga maslahat beradi. Mualliflik metodlarini yaratishga yo‘naltiradi va


pedagoglarni ijodiy ishlarini takomillashtirishga ko‘mak beradi.Ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish-uslubchi pedagog-tarbiyachilarning tajribalarini o‘rganadi, ustoz-shogird tizimini yo‘lga qo‘yadi. Yosh mutaxassislarga metodik jihatdan ko‘mak beradi. Tajribaga boy pedagoglar tomonidan “Mahorat darslari” tashkil etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va tuman miqyosida noyob tajribalarni ommalashtiradi.

Uzluksiz malaka oshirishni yo‘lga qo‘yish-pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishning samarali yo‘li uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etishdan iborat. Tarbiyachilar o‘rtasida trening, seminar, tanlovlar o‘kazish ularning kasbiy bilimini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Yuqorida keltirilgan metodik xizmatni amalga oshirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti metodisti pedagogik jarayonlarni tashkil qilishda turlicha yondashuvlarga tayanadi va istiqbolda tashkilotni rivojlantirish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqadi. Natijada metodik ishlarning ahamiyati va o‘rni tarbiyaviy jarayonlar sifati ortishiga erishiladi. Tarbiyachi-pedagoglarning mahoratini oshirish, ularning nazariy va amaliy bilimlarini yangilashda metodik ishlar turlicha shaklda amalga oshiriladi.Pedagogik tajribaning eng muhim vositasi bu pedagogik kengash hisoblanadi, bunda jamoaviy pedagogik g‘oyalar jamlanadi, ta’limiy-tarbiyaviy ishlar hamkorlikda boshqariladi.

Darhaqiqat tashkilotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishda pedagogik jamoaning faoliyat yo‘nalishi belgilanadi, ilg‘or pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etishda pedagogik jamoa birlashadi, demokratiya, oshkoralik, o‘zini-o‘zi boshqarish tamoyillari asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti boshqaruvi amalga oshiriladi. Pedagogik kengash tomonidan tarbiyalanuvchilarni “O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” asosida egallashi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishida tashkilot pedagoglar jamoasining faoliyati o‘rganiladi. Natijalar tahlil qilinadi, baholanadi va aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish hamda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilanadi. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayoniga xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda ilg‘or ta’lim shakllari, zamonaviy texnologiyalar hamda axborot vositalarini tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Metodik xizmatni amalga oshirishda quyida keltirilgan boshqaruv tamoyillariga tayanish maqsadga muvofiq:



2-rasm. Metodik xizmatni amalga oshirishda boshqaruv tamoyillari

Moslilik tamoyili – bajariladigan ishlar pedagog-tarbiyachilarning intellektual va jismoniy imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak.

Ilmiylik-amaliyotga tatbiq etiladigan ma’lumotlar ilmiy tadqiqotlar natijasi, nazariya, tavsiya va konsepsiyaga tayangan holda tanlanishi lozim. Ta’lim-tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarga berilayotgan bilimlar ilmiylik tamoyili asosida beriladi.

Tizimlilik – boshqaruvda metodist va tarbiyachi-pedagoglarning o‘zaro harakati birgalikda amalga oshiriladi, vazifalar ketma-ketlik asosida mantiqan bir-biriga bog‘liq ravishda amalga oshiriladi.

Qaytar aloqa – metodik vazifalar va ularning natijasi baholanadi. Kamchiliklar aniqlanadi, kelgusi rejalar tuziladi.

Hamjihatlilik – do‘stona munosabat asosida pedagogik vaziyatlar muhokama qilinadi, pedagogik kengash va o‘quv seminari, konferensiyalar jamoa bilan bir maqsad asosida o‘tkaziladi. Mazkur tamoyilda umumiy topshiriqlar bo‘yicha shaxsiy javobgarlik talab etilmaydi, balki o‘zaro kelishuv bo‘yicha birgalikda muammolar bartaraf etiladi. Kelgusi rejalar hamkorlikda aniqlanadi. Demokratik jamoaning fikri, talab va istaklari asosida pedagogik ishlar rejalashtiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning manfaatlari ustunlik qiladi.

Pedagogik xodimlarning kasbiy mahorati, obro‘si va javobgarligini oshirish bo‘yicha maqsadli yo‘naltirilgan ishlarni olib boriladi, ularning ilmiy-uslubiy malakalarini oshirish, ijodiy tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanadi. Pedagogik kengash faoliyati natijasida metodist tomonidan tarbiyalanuvchilar ta’lim-tarbiyasi va rivojlanishiga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatiladi, ilg‘or pedagoglarning ish tajribalarini o‘rganish, ommalashtirish, ularni davlat mukofotlariga tavsiya etish, yosh pedagoglarga metodik yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil etadi.

Pedagogik jamoaning samarali natijasi metodik xizmatni tashkil etishda turli shakl va vositalaridan to‘g‘ri foydalanishiga bog‘liq. Metodik ishlarning barcha yo‘nalishi pedagog-tarbiyachilarning yagona tizim asosida ishlashlariga yordam beradi. Metodistning asosiy faoliyat yo‘nalishlari jamoaga metodik yordam ko‘rsatish, ularning malakasini oshirish, ilg‘or tajribalarni targ‘ib qilish, tarbiyachilar ish faoliyati darajasini oshirishdan iborat.

Yuqorida keltirilgan barcha vazifalar uslubchidan katta ma’suliyat talab etadi. Pedagog-tarbiyachilarga ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishlarida yuz beradigan turli xil murakkab vaziyatlarda metodik maslahat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli qarori.

2. Maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’limi vazirining 128-son buyrug‘i.– T.: 2021-yil. 12-iyul.

3. Белая К.Ю. Ежедневник старшего воспитателя ДОУ. М.: АСТ, 2002.-101 с.

4. Fayzullayeva M.Z, Rustamova M.E., Qarshibaeva D.X. Maktabgacha ta’lim tashkiloti metodistining ish hujjatlarini yuritish tartibi (Uslubiy qo‘llanma).– T.: 2024-80 b.

5. Волобуева Л. М. Работа старшего воспитателя ДОУ с педагогами. – М. ТЦ Сфера,2009. – 96с.

6. Поташник Управление М.М. современной школой. М.:-2004.-102 с.

Adxamjon ABDURAShIDOV,
QDPI Maktabgacha talim kafedrasi o‘qituvchisi p.f.b.f.d. (PhD) v.v.b. professori

INNOVATSION YONDOSHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI XODIMLARINI MALAKASINI OSHIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Shuningdek, muallif malaka oshirish tizimini innovatsion yondoshuv asosida tashkil etish bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini berib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, innovatsion yondoshuv, masofaviy ta’lim, malaka oshirish, muammo, jarayon, tizim, dasturlash,baholash, bilim, malaka, ko‘nikma.

В статье рассматриваются вопросы совершенствования системы переподготовки и повышения квалификации кадров дошкольного образования. Автор также поделился своими мыслями о том, как разработать инновационный подход к модернизации системы дошкольного образования.

Ключевые слова. Дошкольное образование, инновационный подход, дистанционное обучение, профессиональное развитие, проблема, процесс, система, программирование, оценка, знания, навыки, умения.

The article deals with the issues of improving the system of retraining and advanced training of preschool education. The author also shared his thoughts on how to develop an innovative approach to the modernization of preschool education.

Key word. Preschool education, innovative approach, distance learning, professional development, problem, process, system, programming, evaluation, knowledge, skills, abilities.

Masofaviy ta’lim fenomenini nazariy anglash to‘g‘risidagi ishlarning xususiyati shundan iboratki, masofaviy ta’lim nazariyasiga bag‘ishlangan ko‘pchilik ishlar pedagogik, tashkiliy, iqtisodiy va boshqa yondashuvlarning sintezi bo‘lib hisoblanadi. Bunda ko‘pgina mualliflar mavjud bo‘lgan ilmiy tushunchalar apparatinining cheklanganligi to‘g‘risida xulosaga keladilar va masofaviy ta’limni mos ravishda yoritish maqsadida nazariy apparatni rivojlantirishda o‘zlarining takliflarini berishga xarakat qiladilar.

Oxirgi o‘ttiz yil davomida masofaviy ta’lim ta’lim tizimlari ko‘rinishini o‘zgartirgan holda ta’limiy va axborot madaniyatining olamshumul hodisasi bo‘ldi. “Masofaviy ta’lim” deb umumiy nom bilan birlashgan butun bir ta’lim industriyasi paydo bo‘ldi va tezkor rivojlanmoqda, u ta’lim oluvchilarning juda ko‘pchilik sonini qamrab oladi va o‘zining o‘lchamlari va infrastrukturasining murakkabligi bilan lol qoldiradi.

Lekin, masofaviy ta’limning ko‘p qirraliligi va keng qamrovliligi, turli markazlarda masofaviy ta’limni tashkil qilish shakllarining turli tumanligi sababli masofaviy ta’limning umumiy qoidasi mavjud emas.

Ba’zi mualliflar masofaviy ta’lim bu ta’limning shakli emas, faqatgina alohida “ta’lim texnologiyalari” yoki “axborotli ta’lim makoni” deb, boshqalari esa masofaviy ta’lim, ta’limning sirtqi shaklini belgilab beradi, uchinchilari ta’limning bu shakli uchun bundan

ham umumiyroq bo‘lgan ochiq ta’lim degan atamani taklif qiladilar.

Yevropa muxbir maktablari assotsiatsiyasi (AECS) prezidentining obrazli ta’biri bo‘yicha: “Masofaviy ta’lim – bu o‘qishdan sal kattaroq, eshitish yoki ko‘rishdan kattaroq, avvalroq tayyorlangan o‘quv materiallaridan kattaroq, texnologiyadan kattaroq, mustaqil o‘rganishdan kattaroq, treningdan kattaroq, ochiq o‘qishdan kattaroq narsadir.”

Bu maqsadda “masofaviy ta’lim” tushunchasiga ta’rif berishning A.V.Gustirning taklif etgan tahlil metodidan foydalanamiz. Agar masofaviy ta’limning asosiy belgisi masofadan o‘qitish, ya’ni ta’lim jarayoni ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi bir auditoriyada emasligi holatida yuz bersa, unda ular orasidagi muloqot bilvosita xarakterga ega bo‘ladi va axborot-kommunikatsion vositalarga muhtoj bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda masofaviy ta’lim ta’lim oluvchining ta’lim beruvchi (umumiy holda predmetli va metodik bilimlar manbai) bilan teskari aloqasi bo‘lishini yoki interfaollikni ko‘zda tutadi.

Shunday qilib, masofaviy ta’limning ta’limning boshqa turlaridan, eng avvalo kunduzgi ta’limdan farqi, bilvosita interfaol kommunikatsiya orqali ta’lim olish usulidir, bunda kommunikatsiyaning muayyan vositalari va texnologiyalari masofaviy ta’limning muhim belgisi sifatiga ega emas.

“Masofaviy ta’lim” tushunchasini kengaytirish maqsadlarida masofadan o‘qitishning amaldagi turlarini solishtirish metodidan foydalanish mumkin, u birinchidan, masofaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishdagi tendensiyalarni aniqlash, ikkinchidan, masofaviy ta’lim turlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish, uchinchidan, masofaviy ta’lim metodologiyasini, uning turlari asosidagi didaktik tamoyillarni aniqlash imkonini beradi.

Masofaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanishini tahlil qilishda ikki turdagi ta’lim tizimi aniq ajralib chiqadi, ularni farqlash, “masofaviy ta’lim” tushunchasini yetarli darajada aniqlashga urinishda yuzaga keladigan ziddiyatlar mohiyatini tushunishga olib keladi.

“Muxbirli ta’lim” deb nom olgan ta’lim tizimi, tarixan masofaviy ta’limning boshqa turlaridan oldin paydo bo‘lgan. O‘qitishning bu turining asosida masofaviy pochta jo‘natmalari vositasidagi ta’lim kommunikatsiyasi yotadi.

Ikkinchi turdagi ta’lim tizimi axborot-kommunikatsiya vositalari rivojlanishidan paydo bo‘lgan, u auditoriya mashg‘ulotlarini uzoq masofalardagi auditoriyalarga uzatib berish imkonini yaratgan va audio,video,translyasiyalar vositasi bilan masofaviy ta’lim kommunikatsiyasini ta’minlagan.

Muxbirli ta’lim tizimi masofaviy ta’lim g‘oyasini ta’lim jarayonining an’anaviy tashkiliy shakllaridan butunlay farq qiladigan ta’lim shakli sifatida amalga oshiradi.

Masofaviy ta’limning “muxbirli” ta’lim tizimining didaktik prinsiplari ushbu ta’lim shaklida o‘qiyotganlarning psixologik xususiyatlari va ta’limiy ehtiyojlarini amalga oshiradi. Umumiy didaktik tamoyillar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. “Muxbirli o‘qitish”, o‘qitish shakli sifatida, ta’lim oluvchilar uchun maxsus o‘quv-metodik va attestatsion materiallarni yaratishni talab qiladigan mustaqil ta’lim faoliyatiga asoslangan;

2. Ta’lim oluvchining ta’limning mazmuni va muddatlarini tanlashdagi mustaqilligini tan olish, oraliq va yakuniy attestatsiyaga va baholashga ta’limning maqsadi va yakuniy natijasi sifatida emas, balki motivatsiya va o‘z-o‘zini nazorat qilish sifatidagi pragmatik munosabatda bo‘lish;

3. Ta’lim beruvchi o‘qituvchi va ta’lim oluvchini mustaqil ta’lim faoliyatiga yo‘naltiruvchi konsultant (ustoz, tyutor)ning rollarini didaktik o‘zaro xarakat (dialog) asosida ajratish;

4. Ta’limning variativlikning yanada yuqoriroq darajasini ta’minlovchi va muxbirli

kommunikatsiyani yengillashtiruvchi modullar asosida tashkil etilishi;

5. Ta'lim muddatlarining o'zgaruvchanligi va ularga mos ravishda ta'lim jarayonining shiddati;

6. Kunduzgi mashg'ulotlar (sessiyalar)ning minimal darajada kamaytirilishi, ularning maqsadga muvofiqligini ta'minlaydigan maxsus shakllarini ishlab chiqish;

Masofaviy ta'limning "muxbirli" didaktik modeliga ko'ra, an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari (ma'ruza va seminarlar) boshqa shakllar: maxsus o'quv-metodik materiallar majmuasi ishlab chiqilib, amalga oshiriladigan o'quvchining o'z-o'zini o'qitish faoliyati, hamda oddiy seminarga o'xshaydigan va ma'ruzadan chuqur farq qiladigan faol amaliy guruhli mashg'ulotlar – tyutoriallar bilan almashtiriladi.

Telekommunikatsiya vositalari va kanallari tyutor va o'quvchining o'quv-metodik materiallarni yetkazish va individual maslahatlar berish jarayonida, guruhning o'zaro ichki xarakatlarida muloqot qilish va interfaollikni ta'minlash vositasi sifatida foydalaniladi.

O'quvchining o'z-o'zini o'qitish faoliyatini ta'minlovchi o'quv-metodik materiallar majmuasiga faqat jihozlar yordamidagina foydalanish mumkin bo'lgan, o'quvchilarning ko'pchilik qismi osonlik bilan ishlata oladigan materiallargina kiradi.

Masofadan o'qitishning "muxbirli" didaktik modelini amalga oshirish o'qituvchi (tyutor)dan nafaqat maslahatlar, balki psixologik qo'llab-quvvvatlashni ham o'z ichiga olgan maxsus maxsus malaka va ko'nikmalarni talab qiladi. Uning uchun tyutor bir necha o'quv kurslari materiallarini erkin bilishi bilan birga guruhli ishlarni ham tashkil qila olishi lozim.

Yuqorida aytilganidek, masofaviy ta'limning "translyasiyali" modeli pedagog va o'quvchining ta'lim jarayoni doirasidagi munosabatlari turidan farq qilmaydigan, demakki, klassik didaktika va ta'lim jarayonining an'anaviy shakllariga asoslangan masofaviy va kunduzgi ta'limning prinsipial birligi g'oyasiga asoslanadi,

Masofaviy ta'limning ushbu modeliga ko'ra, an'anaviy mashg'ulotlar: ma'ruza va seminarlarning telekommunikatsiya vositalari yordamida ma'lum masofaga uzatilishi ta'minlanadi, bu esa virtual auditoriyada o'qiyotganlar sonini bir qancha ko'paytirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim jarayonining boshqa tashkil etuvchi qismlari (seminarlar, mustaqil ish, maslahatlar, baholash va boshqalar.) masofadan tashkil etila olmaydi, bu esa masofaviy ta'limning ustunligini kamaytiradi.

Bundan tashqari, so'z ma'ruzalarni faqat translyasiya qilish ustida ketar ekan, bu turdagi o'quv faoliyati o'z ustunligi bo'yicha passiv xarakterga ega, u o'quvchilar sonining ko'payishi bilan faqat chuqurlashadi.

Masofaviy ta'limning har xil turlarini solishtirishni yakunlar ekanmiz, uning "muxbirli" turining didaktik modeli belgilar majmui bo'yicha avvalambor kattalar ta'limiga yo'naltirilgan bo'lib, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida masofaviy ta'limni joriy etishda qo'l keladi.

Har qanday texnologiyaning ma'nosi va qo'llanish maqsadi – jarayonni optimallashtirish, undan natija uchun zarur bo'lmagan faoliyat va operatsiyalarni chiqarib tashlashdir. Bunda o'qitish texnologiyasining har bir elementiga bir butun ta'lim jarayonida o'zining maqsadga muvofiq joyi mos keladi, har bir texnologik amal, har bir texnologik harakat uni optimallashtirish masalasini hal qilishda o'zining aniq o'rniga ega.

Shunday qilib, ta'lim texnologiyasi – ta'lim jarayonini loyihalashning, agar bajarilsa, rejalashtirilgan natijaga erishishni kafolatlaydigan texnologik amallarining tartiblangan tizimidir.

Masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiyalarga kelinsa, ularning mazmuni pedagogikaning maxsus maqsadlaridan uzoqdir. Qo‘llanish sohalaridan qati nazar, ular axborotni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish, aks ettirish va foydalanishning universal texnologiyasidir. Ta’limga ular faqatgina pedagogik maqsadlarga erishishni ta’minlash uchun, ta’lim jarayonida qo‘llanilishi lozimligi sababli aloqadordir.

Yuqorida keltirilganlar orasida eng mukammal ishlab chiqilganlari o‘quv kurslari va ta’limni boshqarish tizimlarini ta’riflovchi standartlar guruhlaridir. Bu sohalardagi yagona standart hozircha ishlab chiqish va kelishish bosqichida, lekin bir necha standartlar amaliyotda qo‘llanilmoqda. Bu standartlar quyidagi tashkilotlar tomonidan yuritiladi:

ADL tarmoqni standartlashtiruvchi tashkilot (SCORM standarti).

AICC tarmoqni standartlashtiruvchi tashkilot.

IMS/GLC sanoat konsorsiumi.

1. ADL (Advanced Distributed Learning) AQSh Mudofaa vazirligi va AQSh Prezidenti Administratsiyasining fan va texnologiyalar sohasidagi siyosat Departamenti tomonidan masofaviy ta’lim sohasidagi standartlarni rivojlantirish maqsadida yaratilgan. Rivojlantirishning bosh yo‘nalishlaridan biri kompyuterli va web-o‘qitish uchun texnik asosni yaratishdir.

SCORM (Sharable Content Object Reference Model) standartini yaratish ADL konsepsiyasini rivojlantirish yo‘lidagi birinchi qadamdir, sababi, bu standart o‘quv materiallari tuzilmasini va axborot-ta’lim muhiti interfeysini aniqlaydi. Buning hisobiga o‘quv obyektlaridan masofaviy ta’limning SCO (Sharable Content Objects) ob’ektlari bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan turli tizimlarida foydalanish mumkin.

Masofaviy ta’lim tushunchasi va modellarining tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

Masofaviy ta’lim — bu ta’limning tashkiliy-didaktik shakli bo‘lib, boshqa shakllardan asosan bilvosita amalga oshiriladigan ta’lim kommunikatsiyasi usuli va xarakteri bilan farq qiladi.

Masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uning texnologik jarayon, ta’lim jarayonini tashkil etish modeliga bog‘liq holda nisbiy vazni o‘zgaradigan vositalari hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, mustaqil ta’lim kasbiy-pedagogik faoliyatga nisbatan adaptiv yoki produktiv funksiyani bajarishi mumkin. Mustaqil ta’limning adaptiv funksiyasi muayyan sharoitlarda kasbiy masalalarni yechishga qaratilgan, produktiv funksiya esa, pedagogning produktiv faoliyatining asosini tashkil etadigan yangi motivlar, qobiliyatlar, muammolarni shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тихонов А.Н., Иванников А.Д. Технологии дистанционного обучения // Высш. образование в России. – №3 М.: 1994.

2. Круглов Ю.Г. Подготовка учителей без отрыва от производства: Проблемы и значение / Педагогическое образование без отрыва от производства. Ежегодник Учебно-методического объединения по подготовке учителей без отрыва от производства.– №1 – М.: 1990.

4.Тихомиров В.П., Солдаткин В.И, Лобачёв С.Л. Виртуальная образовательная среда: предпосылки, принципы, организация. / Международная Академия Открытого Образования. – М.: Изд-во МЭСИ, 1999. – С.164.

Pardaboy XOLMATOV,
“Toshkent Gumanitar fanlar universiteti” nodavlat oily ta’lim muassasasi, “Pedagogika va tillar” kafedrasi dotsenti, p.f.n.
Mohigul ChORIYEVA,
“Toshkent Gumanitar fanlar universiteti” nodavlat oily ta’lim muassasasi, “Pedagogika va tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni takomillashtirishga oid mulohazalar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar. Kasb-hunar, o‘quvchi o‘z qiziqishi, qobiliyat, bilim, amalda tadbiq.

Вданной статье рассматривается вопрос совершенствания профессиональной ориентации учащихся общеобразовательрых школ.

Ключевые слова. Профессия, интересы и склонности, умение, знание.

This article discusses the issue of improving the proessional orientation of studens in secondary schools.

Key vvords. Profession, interests and inclinations, skill, knovvledge, practical application.

Hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”, deb nomlangan asarida fazandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o‘rin egallashini ta’minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz” deb takidladilar. Maktablarimizda 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarning texnologiya fani ustaxonalarini hamda kasb-hunar amaliyoti xonalarini bosqichma-bosqich tashkil etish va jihozlash choralari belgilangan va shu asosida maktablarimizda samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktablarda o‘quvchilarning o‘quv jarayonida kasb-hunar qiziqishlarini orttirish, ularning mustaqilligi va faolligini ta’minlash, tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bilish jarayonini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Mustaqil kasb-hunar qiziqishini ijodiy tafakkurining rivojlanishi o‘quv jarayonida o‘quvchini kasblarga oid malumotlar izlanishga undaydi. Bunda shaxs fikrlash faoliyatining eng muhim jihatlari namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘quvchi o‘qituvchi bilan birgalikda faol izlanishda bo‘ladilar. Maktab o‘quvchilarining ijodiy-tanqidiy fikrlash darajasini o‘rganish uchun ularning muloqotga kirishish jarayonlarini kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish metodidan o‘quvchilarning fikrlash va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qiyoslashda keng foydalaniladi.

O‘quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan

pedagogik tizimni vujudga keltirishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

– o‘quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik-psixologik sharoitlarini yaratish;

– o‘quvchilarning ijodiy-tanqidiy fikrlashiga qo‘yilgan talablarni aniqlash;

– o‘quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining o‘ziga xos pedagogik texnologiya jihatlarini aniqlash.

Respublikamiz iqtisodiyotida hozirgi kunda mehnat bozorida kasb tanlash o‘ta dolzarb muammolardan biri yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda norasmiy sektor ko‘lamini kamaytirish, aholining ijtimoiy muhtoj qatlamlari uchun ish joylari zahirasini belgilash, ishsizlik darajasini pasaytirish hamda aholiga munosib mehnat sharoitini tashkil etishdan iboratdir. Mehnat bozorining eng muhim muammolaridan biri – aholining kasb-hunar va ish bilan bandligidir. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchi yoshlarni barkamol avlod sifatida tayyorlash, xalq xo‘jaligining muayyan zamonaviy tarmog‘idagi istiqbolli kasblarga yo‘naltirish mehnat bozorida raqobatbardosh o‘zini o‘rnini topishda tog‘ri kasb egallashida ham yanada katta rol o‘ynaydi.

Respublikamizda ta’lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichi ta’lim mazmuni va metodikasiga, uning samaradorligini oshirishga sifat jihatdan yangi talablar qo‘ymoqda. Hozirgi adabiyotlarda “Kasb tanlashga yo‘llash” termini-yo‘naltirish, ajrata bilish, belgilash, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlash degan ma’noni bildiradi. “Kasb tanlashga yo‘llash” tushunchasi umumiy o‘rta ta’lim maktablari amaliyotda o‘quvchi yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga, mehnat yo‘lini to‘g‘ri belgilashga qaratilgan muayyan pedagogika jarayonini ifoda etadi. Murakkab yuqori unumli ishlab chiqarish texnikasi raqamli texnologiyalar va ilg‘or texnologiya bilan qurollangan hozirgi zamon sanoati va qishloq xo‘jalik korxonalari uchun maxsus bilimlarga ega bo‘lgan yoshlar bilan birga amaliy mehnat turi bo‘yicha amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lgan ishchilar zarurdir. Maktabdagi kasb tanlashga yo‘llash ishlari quyidagi maqsadlarini ko‘zda tutadi:

1. O‘quvchilarni boshlang‘ich sinflaridan boshlab xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib borish istiqbolli kasblar bilan tanishtirish. Bunda axborot ma’lumotlarining mazmuniga, ham uni tushuntirishda foydalaniladigan metodlarga qo‘yiladigan muayyan didaktik talablariga rioya qilish, o‘quvchilarning aqliy va jismoniy rivojlanishini hisobga olish muhimdir.

2. O‘quvchilarni xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirish jarayonida ancha keng tarqalgan yangi kasblarning mazmuni va xususiyatini yoritib berishi. Kasb tanlashga yo‘llash ishining bu turi umumiy o‘rta ta’lim fanini o‘qitish metodikasi ham, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlariga ham amalga oshirilishi.

3. Kasb tanlashga yo‘llash ishlarini olib borishda o‘qituvchi o‘quvchilarni xalqaro dunyo talabi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan kasb va mutaxasisliklarga yo‘llash kerak bo‘ladi.

4. Har bir o‘quvchining bo‘lajak kasbini tanlashda ongli munosabatlarga ega bo‘lishi o‘zi mustaqil tanlash imkoniyati mavjuddir.

Insoniyat jamoalari rivojlangan sari asta-sekin mehnat qilishni o‘rganish amalga osha boshladi. Oldin dehqonchilik va chorvachilikda, keyinchalik hunarmandchilik va savdo-sotiq sohalari paydo bo‘ldi. Moddiy va ma’naviy hayotni rivojlanishi bilan odamlarni faoliyat olib borishlarida qiyinchiliklar kelib chiqa boshladi. Shu tariqa kasb tushunchasi paydo bo‘ldi.

“Kasb” yoki “kasb qilmoq” kabi so‘z va tushunchalar arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, (kasaba) fe’lining o‘zagi hisoblanadi. Arab tilidagi “Kasaba” so‘zi qo‘lga kiritmoq,

ishlab topmoq, qozonmoq, biror ishni bajarmoq, qandaydir foyda-manfaatga erishmoq, yutuqqa ega bo‘lmoq kabi ma’nolarni anglatadi.

O‘zbek tilida kasb deb kishining rizq talabida muayyan ish, faoliyat turi bilan davomli tarzda shug‘ullanishga aytiladi.

Lug‘at kitoblarda “Kasb – (lot. professio — rasmiy ko‘rsatilgan mashg‘ulot, ixtisoslik) – maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi” deb keltiriladi.

Hozirda 70 mingdan ortiq kasb-hunar va mutaxassislik turlari mavjud. Kasb va mutaxassislik degan tushunchalarni bir-biridan farqini anglash zarur.

Kasb – bu ma’lum bir maxsus bilim, malakalarga ega bo‘lishni talab etuvchi va insonning yashash sharoitlarini ta’minlovchi faoliyat turidir.

Mutaxassislik – inson o‘zini jismoniy va ma’naviy kuchlaridan kelib chiqib o‘sha sohani bir muncha tor doirasida o‘zini namoyon etishi tushuniladi.

Kasb bir-biriga yaqin bo‘lgan mutaxassislik guruhlarini o‘zida biriktiradi. Masalan, o‘qituvchilik kasbi o‘ziga tarix fani o‘qituvchisi, texnologiya fani o‘qituvchisi matematika fani o‘qituvchisi, texnologiya fani o‘qituvchisi, biologiya fani o‘qituvchisi kabi mutaxassisliklarni qamrab oladi.

Kasb tanlashda inson salomatligining o‘rni muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Kishining salomatligi ma'lum bir kasb talablariga muvofiq kelish yoki kelmasligini aniqlash – bu shifokorning vazifasidir. Shuning uchun ham ishga yoki o‘qishga kirayotgan har bir kishi, albatta, tibbiy ko'rikdan o‘tadi. Lekin ko‘pincha shunday bo‘ladiki, kishi o‘zining nazarida kasb tanlab bo‘lganidan keyin bunday tibbiy ko‘rik amalga oshiriladi. Keyin afsuslanib yoki iztirob chekib yurmaslik uchun o‘z vaqtida shifokor bilan maslahatlashib olish muhim ahamiyatga egadir.

Texnologiya fani mazmuniga asosan 1-7-sinflar o‘quv dasturiga kiritilgan barcha mavzular mazmuniga oid kasb-hunarlar haqidagi bilimlar o‘quvchilarga o‘rgatilsa, 8-9-sinflarda asosan quyi sinflarda o‘rganilgan kasblar tasnifi va bo‘lajak kasbni to‘g‘ri tanlash uchun kerakli tavsiyalarga oid kompetensiyalar o‘rgatiladi.

Davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar mavjud bo‘lib, ularni davlat ta’lim standarti deb ataladi. Shunga ko‘ra, yo‘nalishlar va mutaxassisliklarning klassifikatori ham mavjud.

Klassifikator – oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro‘yxatidir. Unda quyidagi o‘nta bilim sohasi nazarda tutiladi. Shu bilimlar sohasini texnologiya fani darslarida o‘rgatiladigan kasblarni hisobga olgan holda tahlil qilnadigan bo‘lsa, natija 70 foiz bilim sohalarini (bilim sohalari turli ranglarda ajratib ko‘rsatilgan) qamrab olganligini ko‘rish mumkin (1-shakl).

Shuningdek, bilim sohalaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarni kasblarni o‘rgatishda amaldagi kasblar va yangi kirib kelayotgan XXI asr kasblari va ularni o‘quvchilarga o‘rgatishning normativ-huquqiy va metodik hamda moddiy-texnik ta’minoti modeli keltirilgan. Ushbu model asosida o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llashning majmuaviy mazmuni ochib berilgan.



1-shakl

Bilim sohalari bo‘yicha o‘quvchilarni kasb tanlashga o‘rgatish modeli

Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biridir.

Kasb tanlash uchun quyidagi mashqlarni bajarish tavsiya etiladi

1-mashq. Quyidagi so‘zlar ro‘yxatidan mutaxassisliklarni belgilaydiganlarni tanlang:

o‘qituvchi, duradgor, montajchi, sinovchi uchuvchi, hakam, jarroh, maktab direktori, adabiy tanqidchi, pianinachi, nazariy kimyogar, rassom, dizayner, to‘quvchi.

2-mashq. Quyidagi so‘zlar ro‘yxatidan kasbni belgilaydiganlarni tanlang:

veterinariya shifokori, o‘qituvchi, tosh kesuvchi, kitob sotuvchisi, buldozer, fermer xo‘jaligi direktori, muhandis, dizayner rassom, sartarosh, haydovchi, tikuvchi, oshpaz, rasm o‘qituvchisi.

3-mashq. Quyidagi barcha kasblarni va ixtisoslikni ularda aqliy yoki jismoniy mehnatning ustunligiga nisbatan taqsimlang:

konstruktor muhandis, mashinist, duradgor, bolalar bog‘chasi tarbiyachisi, hamshira, agronom, tikuvchi, poezd mashinisti, suvoqchi, hisobchi, kitob sotuvchisi, elektromontajchi, mashina operatori va boshqalar.

4-mashq. Xalq xo‘jaligi sohasi asosida quyidagi kasblarni, mutaxassisliklarni taqsimlang:

mikrosxemalar, agronom, stansiya vagonlari, inspektor, tosh kesuvchi, qandolatchi, bog‘bon, hamshira, tergovchi, traktor haydovchisi keng yo‘nalishli mashinist, po‘lat ishlab chiqaruvchi, tikuvchi-motorist, kitob sotuvchisi, rassom, iqtisodchi va boshqalar

5-mashq. Quyidagi kasblar ro‘yxatidan ishlab chiqarish sohasiga kiradiganlarni tanlang:

sabzavot ishlab chiqaruvchisi, oshpaz, o‘qituvchi, duradgor, hamshira, chizmachi, qurilish muhandisi, trolleybus haydovchisi, trikotajchi, traktor haydovchisi, keng profilli sartarosh.

6-mashq. Ko‘rsatilgan ish kasblarining har biriga mos keladigan malaka darajasini aniqlang:

muhandis, moda uslubchisi, texnologik uskunalar sozlagichi, tikuvchi, taksi haydovchisi, duradgor, dasturiy ta’minot bilan ishlaydigan dastgohlar operatori, bolalar bog‘chasida yordamchi, o‘qituvchi, kotiba, avtomobil mexanigi, temir yo‘l vagonlarini tekshiruvchi, o‘t o‘chiruvchi.

7-mashq. Quyidagi mutaxassisliklarning har biri qaysi turdagi kasblarga tegishli

ekanligini aniqlang:

bolalar bog‘chasi tarbiyachisi, veterinariya shifokori, farmatsevt, rassom, badiiy bezakchi, o‘t o‘chiruvchi, fotosuratchi, hamshira, tosh kesuvchi, kitob sotuvchisi, poyezd mashinisti, radio asboblarini yig‘uvchi mexanik.

8-mashq. Quyidagi mutaxassisliklarning har biri qaysi kasb sinfiga tegishli ekanligini aniqlang:

pazandalik, avtomobil mexanik, modelyer, taksi haydovchisi, sifat nazoratchisi, kompyuter uchun berilgan tayyorlash operatori, operator, chilangar-kollektor, radio uskunalari, tergovchi, agronom, yozuvchi, sartarosh.

9-mashq. Quyidagi vositalarni uning bo‘limlari bo‘yicha taqsimlang:

traktor, belkurak, telefon, razm, tarozi, kir yuvish mashinasi, kamera, rulet, mikrokalkulyator (elektron hisoblovchi ruler), yig‘ilish raisi, avtomobil, oyna, shprits, kompyuter.

10-mashq. Mehnat sharoitlarining o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanadi:

